

SOHIBQIRON YULDUZI

СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ
OWNER STAR

№1 (58) 2025 йил





SOHIBQIRON YULDUZI

Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal

СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ

Общественно-исторический, научно-популярный
журнал

OWNER STAR

Socio-historical, scientific and popular magazine

Qarshi-2025



Bosh muharrir:

Ochil Bo'riyev

Nashr uchun mas'ullar:

Ravshan To'xtamishev, Ilhom Tog'ayev

akademik Akmal Saidov
akademik Anatoliy Sagdullayev
akademik Dilorom Yusupova
Sirojiddin Sayyid
prof. Abdurahim Erkayev
prof. Qahramon Rajabov
prof. Yulduz Ergasheva
prof. Bahodir Eshov
filol.f.d. Nafas Shodmonov
To'lqin Hayit
t.f.d. G.Mo'minova
prof. Shokir G'afforov
filol.f.d. Xo'jamurod Jabborov
filol.f.d. Damin To'rayev
prof. Akram Hasanov
prof. Kamoliddin G'aniyev
prof. Uktam Mavlonov
t.f.n.dots. Matluba To'rayeva
t.f.d.Faxriddin Rahmonov
t.f.f.d. Saodat Murtazova
t.f.f.d. Ra'no To'xtayeva
t.f.f.d. Feruz Narmanov
p.f.n.d. Mahbuba Ismoilova
t.f.f.d dots. Shuxrat Turayev
t.f.f.d.Sarvinoz Omonova
t.f.f.d. Nargiza Samadova
t.f.f.d.Oksana Rakmonkulova
t.f.f.d Sohiba Sulaymonova
t.f.f.d.Jamshid Kucharov
t.f.f.d. Mamlakat Qodirova

Manzilimiz:

Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2-uy. Telefon: 91.466-80-32

Elektron manzilimiz: sohibqiron-jurnali@mail.ru



	<p style="text-align: center;">SOHIBQIRON YULDUZI СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ OWNER STAR</p>
Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal 2010 yildan boshlab chiqarilmoqda	2025/ 1 (58) - SON
<p>Muassis: SOHIBQIRON SHULASI M.CH.J. Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2-uy. Telefon: 91.466-80-32 Sayt: https://sohibqironyulduzi.uz/ E-mail: sohibqiron-jurnali@mail.ru Qashqadaryo viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012 yil 12 martda 14-076 raqami bilan ro'yxatga olingan. Jurnal yilda 4 marotaba chop etiladi. Jurnaldan ko'chirma olinganda manba qayd etilishi shart.</p> <p>Nashr indeksi — 4074 ISSN 2181-2845 7-sonli nashr. Terishga topshirilgan sana 20.01.2025 y. Nashrga berilgan sana 28.03.2025 y. Chop etilgan sana 28.03.2025 y.</p>	<p style="text-align: center;">MUNDARIJA</p> <p style="text-align: center;">TADQIQOT</p> <p>Bo'riyev O. Qashqadaryo vohasi o'zbeklarining qo'noq bilan bog'liq udumlari.....6 Axmedova M. Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda hunarmandchilik.....11 Ergashev J. Turk xoqonligining Buyuk ipak yo'li tizimidagi ahamiyati xususida.....14 Muminova G., Eshimov Sh., Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari tarixi.....22 G'afforov Ya., Bag'rikenglik — eng oliy insoniy qadriyat.....26 Sulaymanova Sh. Sharof Rashidovning O'zbekiston SSR Oliy soveti prezidiumi raisi sifatidagi faoliyati (1950-1959-yillar)34 Mo'minova M., Jadidchilik harakati va Turkiston-Usmonli davlati aloqalari.....39 Matyakubov X., Urug'chilik tuzumi tarixini o'rganish natijalari tahlili: Xorazm vohasi misolida.....44 Meliqulov B., Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi milliy madaniy markazlar.....48 Namozova S., “Go'ro'g'li” dostonining etnografik xususiyatlari haqida ba'zi mulohazalar.....54 Norbutayev P., “Alpomish” dostoni etnografik manba sifatida.. 62</p> <p style="text-align: center;">TARIX</p> <p>Tasheva Sh., Ziyoli kadrlarni tayyorlash jarayonlarining huquqiy asoslari.....68 To'rayev A., Buxoro hunarmandlarning ijtimoiy hayoti va urf-odatlar.....72 Qurbonov X., “Quolsiz askarlar” kimlar va ular haqida O'zbekiston tarixshunosligi.....78 Kurbanova D., Istoriya uchastiya uzbekskix jenshin v politicheskoy jizni obshestva.....87 Parmonov X., Mahalla va yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy himoyadagi roli.....93 Qobulov E., Surxondaryo viloyati iqtisodiy hayotida transport tizimining o'rni.....100</p>



Bichimi 60x84 1/8. Times
garniturası. Shartli bosma
tabog‘i 8,71. Nashr bosma
tabog‘i 8,75. Adadi 20.
Buyurtma №29

Jurnal «Photo Express»
ishlab chiqarish korxonasi
bosmaxonasida chop
etildi.

Bosmaxona manzili:
Qarshi shahri Mustaqillik
shoh ko‘chasi, 22-uy.

**Журнал Ўзбекистон
Республикаси
Вазирлар
Маъкамаси
музуридаги Олий
Аттестация
Комиссияси
раёсатининг 2018 йил
29 декабрдаги
260/7-сонли қарори
билан
«Тарих» фанлари
бўйича илмий
журналлар
рўйхатига
киритилган.**

Toshturov Sh., Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalari
tarixiga nazar.....107
Fayzullayeva X., Zahiriddin Muhammad Boburning musiqa ilmiga
qo‘shgan hissasi.....114
Elmuradova S. Globallashuv davrida ta‘lim madaniyatini
shakllantirishning dolzarb masalalari.....121

ОГЛАВЛЕНИЕ

ИССЛЕДОВАТЬ

Бориев О. Обычаи гостеприимства узбеков Кашкадарьинского
оазиса.....6
Ахмедова М. Ремесла в Кашкадарье в годы независимости...11
Эргашев Ж. О значении Тюркского каганата в системе
Великого Шелкового пути.....14
Муминова Г., Эшимов Ш. История хозяйственных судов
Республики Узбекистан в годы независимости.....22
Гаффоров Я. Толерантность – высшая человеческая
ценность.....26
Сулайманова Ш. Деятельность Шарофа Рашидова на посту
Председателя Президиума Верховного Совета (1950-1959)...32
Муминова М. Джадидское движение и туркестано-османские
отношения.....39
Матякубов Х. Анализ результатов изучения истории
семенной системы: на примере Хорезмского оазиса.....44
Меликулов Б. Национальные культурные центры,
действующие в Самаркандской области.....48
Намозова С. Некоторые замечания об этнографических
особенностях эпоса «Горуглы».....54
Норбутаев П. Эпическая поэма «Алпомиш» как
этнографический источник.....60

ИСТОРИЯ

Ташева Ш. Правовые основы процессов подготовки
интеллигентных кадров.....68
Тураев А. Общественный быт и обычаи бухарских
ремесленников.....72
Курбанов Х. Кто такие «Безоружные воины» и узбекская
историография о них.....78
Курбанова Д. История участия узбекских женщин в
политической жизни общества.....87
Пармонов Х. Роль дворовых и молодежных организаций в
социальной защите.....93
Кобулов Э. Роль транспортной системы в экономической
жизни Сурхандарьинской области.....100
Тоштуров Ш. Взгляд на историю экологии и проблемы
охраны окружающей среды.....107



Файзуллаева Х. , Вклад Захириддина Мухаммада Бабура в музыкознание.....	114
Эльмурадова С. Актуальные вопросы формирования образовательной культуры в эпоху глобализации.....	121

TABLE OF CONTENTS

RESEARCH

Boriyev O. The hospitality customs of the Uzbeks of the Kashkadarya oasis.....	6
Akhmedova M. Crafts in Kashkadarya during the years of independence.....	11
Ergashev J. On the importance of the Turkish Khaganate in the Silk Road system.....	14
Muminova G., Eshimov Sh. , History of economic courts of the Republic of Uzbekistan during the years of independence.....	22
G'afforov Ya. , Tolerance is the highest human value.....	26
Sulaymanova Sh Activities of Sharof Rashidov as Chairman of the Presidium of the Supreme Council (1950-1959)	32
Muminova M. , Jadidism and Turkestan-Ottoman Relations.....	39
Matyakubov X. , The results of the study of the history of the seed system arehLili: On the example of the Khorezm oasis.....	44
Meliqulov B. , National cultural centers operating in Samarkand region.....	48
Namozova S. , Some reflections on the ethnographic features of the saga "Gorogli.....	54
Norbutayev P. , The saga "Alpomish" as an ethnographic source.....	60

HISTORY

Tasheva Sh. , Legal framework for the training of intelligentsia personnel.....	68
Turayev A. , Social life and customs of Bukhara craftsmen.....	72
Qurbonov X. , Uzbek-ton historiography about who are the "unarmed soldiers" and about them.....	78
Gurbanova D. , Istorija uchastiya uzbekskix genshchin v politicheskoy jizni obshestva.....	87
Parmonov X. , The Role of Mahalla and Youth Organizations in Social Protection.....	93
Qobulov E. , The role of transport in the economic life of the Surkhandarya region.....	100
Tashturov Sh. , A look at the history of ecology and environmental issues.....	107
Fayzullayeva X. , Zahiriddin Muhammad Babur's contribution to musicology.....	114
Elmuradova S. Actual issues of formation of educational culture in the era of globalization.....	121



ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ ЎЗБЕКЛАРИНИНГ ҚЎНОҚ БИЛАН БОҒЛИҚ УДУМЛАРИ

**Очил Бўриев,
ҚаршиДУ профессори**

Калит сўзлар: Қашқадарё воҳаси, ўзбеклар, қўноқ, удум, меҳмондўстлик, чўл худудлари, тоғ олди худудлари, қишлоқ, суннат тўй, кўпкари, кураш.

Ключевые слова: Кашкадарынский оазис, узбеки, кунак, обычай, гостеприимства, степных зон, предгорных территорий, селений, суннат туй (обрезания), кўпкари (конных игр), борьба.

Key words: Kashkadarya oasis, uzbeks, guest, udum, hospitality, desert areas, mountain areas, village, traditional wedding, bridge, fight.

Резюме: Ушбу мақолада Қашқадарё воҳаси ўзбекларининг қўноқ билан боғлиқ удумлари этнография ва дала маълумотлари асосида ёритилган.

Резюме: В данной статье на основе этнографических и полевых материалов освещаются обычай кунак (гостеприимство) узбеков Кашкадарынского оазиса.

Summariy: In this article, the customs of the uzbeks of the Kashkadarya oasis related to the guest are covered on the basis of ethnography and field data.

Ўзбекистоннинг дашт ва тоғ олди худудлари қишлоқлари аҳолиси ўртасида қўноқ бериш удуми сақланиб қолганди. Жумладан мамлакатимизнинг жануби-ғарбий худудидеги Қашқадарё воҳасининг Китоб, Шаҳрисабз, Чирокчи, Кўкдала, Деҳқонобод, Қамаш, Гузор, Нишон, Миришкор, Касби, Муборак туманлари чўл ва тоғ олди худуди қишлоқларида, айниқса суннат тўйи тантаналарида кўпроқ қўноқ бериш одатини кўриш мумкин эди.

XX асрнинг 80-90 йилларигача кўпроқ урф бўлган, ҳозирги эса даврда трансформацияга учраб унутилаётган қўноқ бериш удуми мазмун-моҳиятини ва аҳамиятини ўрганишга киришар эканмиз, тарихий-этнографик манба ва адабиётларда жуда маълумотлар камлиги маълум бўлди. Ҳаттоки Ўзбекистон миллий энциклопедиясида ҳам бу удум ҳақида тушунча берилмаган. Ёш ва ўрта авлод вакиллари билан суҳбатларда ҳам бу удум тўғрисида тўла тасаввурга эга эмаслиги аниқланди.

Бу ҳақда баъзи муаллифлар (К. Шониёзов, Ҳ.Исмоилов, Н.Мирзаев, О.Бўриев, Маҳмуд Саттор, Ф. Толипов, М. Атамуратов) асарларида, айрим қомус ва луғатларда жуда қисқа изоҳ берилган, халос. Қуйида мавжуд манба ва тўпланган дала этнографик маълумотларига таяниб, бу ноёб удумнинг мазмуни-моҳияти ёритилмоқда.

Қўноқ удуми бўйича бир қанча халқ мақол ва нақллари мавжуд: “Қўнгунча қўноқ уялар, қўнгандан кейин — уй эгаси”, “Қўноқ бир кун қўнса — қут, икки кун ўтса-ют”, “Қўноқ оши йўлга яхши”, “Қўноқ тўйдим дейди, уй эгаси ёқтирмади дейди”, “Қўноқ қўйдан ҳам юввош, мой берсанг ҳам, еяверади”, “Қўноққа ош бер, отига-ем”, “Ҳурағон ит эгасига қўноқ



келтиради”, “Чақирилмаган кўноқ- йўнилмаган таёк”, “От боқсанг улоққа, кўй боқсанг кўноққа” (**Ўзбек халқ мақоллари. -Т.: “Фан”, 1989 Б. 171).**

“**Ўзбек тилининг изоҳли луғати**” да кўноқ номи билан боғлиқ терминларга тавсиф берилган: **Кўноқ** - бирор жойга бир кимсанинг уйига кўнган, тушган йўловчи, сайёҳ, меҳмон; **Кўноқламоқ** I. кўниш ёки дам олиш учун кўноққа чиқмоқ, кўнмоқ; II. сафарда бирор жойда тўхтамоқ, бирор жойда тунамоқ, бирор жойга тушмоқ; **Кўноқлик** – кўноққа яроқли, кўноқбоп; **Кўнмоқ** - I. кўноқдаги, кўноқ бўлиб турган жойдаги вазият, ҳолат; **кўноқхона** - меҳмонхона; **Кўноқи** – ўз уйига кўноқ, меҳмон кутувчи одам (**Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V -ж. -Т.: ЎЗМЭ ДИН, 2008. Б. 410).**

Шеърят мулкининг султони А. Навоий асарларида **кўналға** (кўналға)-кўнар жой, **кўнақ** -меҳмон тарзида берилган иборалар мавжуд (**А. Навоий асарлари учун қисқача луғат. -Т.: 1993. Б. 354).** “**Меҳмонхона**” сўзи эса меҳмонсаро тарзида берилган (**Шу асар. Б. 168).**

Таниқли тилшунос олим Н.Мирзаев Қашқадарё воҳасидаги кўноқ билан боғлиқ удумларни батафсил тавсифлаган: **Кўник I** (Қамаши, Чирокчи) – тўйда хизмат қилган кишиларга тўй тугагач бериладиган сарпо, гўшт, гуруч; кўник берди, кўникни олишди; **Кўник II** (Косон, Бешкент), кунуғ (Китоб). Тўйга узоқдан келган меҳмонларни зиёфат қилиш учун тўй эгаси томонидан бериладиган масалликлар (гўшт, гуруч, ичимликлар); **Кўник III** (Косон) – тўйга узоқдан келган меҳмонлар. Тўй маслаҳати куни тантанага узоқдан келадиган меҳмонлар уй эгасининг қариндошлари, яқин кишиларига тақсимлаб қўйилган бўлади. Тўй куни ҳар ким ўз меҳмонини (кўнигини) уйига таклиф этган, зиёфат қилган. От-уловларини озуқа билан таъминлаган; **Кўник жой** (Косон, Бешкент, Қарши) — тўйга узоқдан келган меҳмонлар учун уларнинг овқатланиши ва дам олишлари учун тайин қилиб қўйилган хонадон; **Кўникчи** (Чирокчи)-тўйга узоқдан келган меҳмон, кўник; **Кўноқхона** — кўник жой; **Кўшхона** (Китоб)- тўйга узоқдан келган меҳмонлар учун белгиланадиган жой, кўник жой (**Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. -Т.: “Фан”, 1991. Б. 114-115).**

Ўзбек тилида “**кўналға**” (туркий) термини мавжуд. Қомусда ёзилишича, “кўналға”-йўловчининг кўниб ўтадиган жойи. Ўрта асрларда олий ҳукмдорлар ўз элчиси, чопарига ҳамда турли мансабдорларига йўл устидаги қишлоқ аҳли уйида тўхтаб ўтишига рухсат берган. Кўноқ берган шахс мазкур ҳуқуқ соҳибини, унинг хизматкор ва от-уловини жўнатганига қадар боқиши шарт бўлган (**ЎзСЭ, 14 т. -Т., 1980. Б. 275).**

Тарихий манбаларда келтирилишича **кўналға** (туркча) — маъмурий ва ҳарбий амалдорларни йўл давомида улов, ётоқ, озик-овқат ва бошқа нарсалар билан таъминлаш мажбурлиги (**Ш.Воҳидов, Н.Ҳамраева. Абулғозий Баходирхон “Шажарайи турк ва мўғил”. Қарши, “Насаф”. 2022. Б. 83).**

“Алпомиш” достонида кўноқ сўзига кўноқ бўлмоқ, меҳмон бўлмоқ, тунамоқ деб изоҳ берилган (**Мирзаев Т. ва бошқ. “Алпомиш” достони изоҳли луғати. -Т., 2007. Б. 139).**



Таникли элшунос олим Х. Исмоиловнинг ёзишича тўйда меҳмонларни жойлаштириш қийин бўлиб қолса, кўшнилариинг уйлари ва айвонларига жойлаштиришган. Бу меҳмонларни “қўноқлар” деб юритилиб, шу уйда меҳмонларга зиёфат берадилар. Лекин тўйнинг ўйин — кулгуси базм бошланганда кўшни-мезбон қўноқларни олиб тўйхонага чиқадиладар, тўй-томошаларни кўриб бўлганларидан кейин яна кўшниникига қайтиб чиқадиладар. Қўноқлар учун тўйхонада тайёрланган ош, қовурдоқ ва бошқа ноз-неъматлар алоҳида дастурхонларда тўйхонадан чиқаришади. Бу тўйни кўпгина жойларда “Қўноқ оши” атамаси билан юритганлар (**Х. Исмоилов. Ўзбек тўйлари. -Т.: “Ўзбекистон”, 1992. Б. 52).**

Элшунос олим Ф. Толиповнинг ёзишича, Кавказдаги адигей (куначества) ва кирғиз (қозоқ) халқларида ҳам қўноқ бериш одати мавжуд бўлиб, қўноқ энг эъзозли меҳмон ҳисобланган (**Гарданов В. К. Общественный строй адигейских народов. -М., 1967. С. 308-312; Кустанаев Х. Этнографические очерки киргиз Перовского и Казалинского уездов. -Т., 1894 с. 17; Толипов Ф., Атамуратов М. Ўзбек оиласи: кеча ва бугун. -Т., 2020. Б. 117).**

Ўзбекистон қишлоқларида одат бўйича қўноқ бериш тўйга олишдан келган меҳмонлар учун уюштирилган, “Қўноқ” термини халқимиз ўртасида кўним топиш, жой бериш, Қашқадарёда кўшхона тарзида ҳам қўлланилади.

Ҳар бир қишлоқда тўй олдида меҳмони кутиш ва жойлаштириш учун қўноқхона (қўшхона) тайёрланган. Буни қишлоқ ва тўпор оқсоқоли қайси қишлоқдан келган меҳмонлар кимнинг меҳмонхонасида қўноқ бўлишлигини олдиндан белгилаган. Анъанага кўра, қўноқхона учун ўзига тўқ хонадонлар танланган. Бунда тўй эгасининг узоқ — яқин қариндош (хеш)лигига ҳам қаралган. Қўноқлар учун алоҳида меҳмонхона, озиқ — овқат, от — уловига жой озуқа (ем — хашак) ҳам етарли бўлиши ҳисобга олинган.

Қўноқхонада меҳмонлар ва уларнинг от-уловлари учун алоҳида жой ажратилиб, улар учун арпа, ем-хашак қўноқхона эгаси ёки тўй соҳиби ҳисобидан бўлган. Меҳмонлар учун тортилган ош “қўноқ оши” дейилган (**Толипов Ф., Атамуратов М. Кўрсатилган асар. Б. 117).**

Ахборотчи Асрор Пардаев маълумотича, қўноқ-қўшхона-қўниқ халқимизнинг қадимий одатларидан бири бўлиб, тўй-маросимларда тўй эгасининг яқин кўшнисининг уйдан жой олиниб, у ерга ошна-оғайнилар ёки қариндош-уруғлар учун дастурхон тузалади. Қамаш тумани Консой қишлоғида олдин қўноқ деб айтилган удум ҳозирги кунда қўшхона, Қамай қишлоғида қўниқ, Дехқонобод туманида қўноқ-қўниқ дейилади. Тўй эгаси кўшнисига қўноқ бергани учун тўйхонадан барча масалликларни (гуруч, сабзи, пиёз, ёғ, гўшт), бундан ташқари дастурхонга қўйиладиган барча ноз-неъматлар ва ичимликларни берган. Кўпқари, тўйларда бошқа юртлардан келган кўпқарибоз (чавандоз)лар учун алоҳида уй отлари учун арпа, беда ажратилган. Кўпқари неча кун давом этса, шунча кун жой берилган (**Дала ёзувлари, 2024 йил март).**



“Қўноқ” термини олис масофадан келган меҳмонларга нисбатан қўлланилган. Қўноқлар кўпинча чавандозлар ёки полвонлар хонадонига жойлаштирилган. Ҳар бир қишлоқда қўноқлар жойлашадиган доимий белгиланган хонадонлар мавжуд бўлган.

Элшунос Ф. Толиповнинг таъкидича, қўноқ олишда меҳмонлар сони 12 нафар кишидан ошмаслиги лозим бўлган. Тўй эгаси томонидан қўноқлар учун кўниқ ажратилган бўлиб, 12 та мичча (қисм)га бўлинган. Бу ўн икки сони халқ тақвими билан боғлиқ бўлиши мумкин. Қўноқлар орасида кўпинча чавандоз, полвонлар билан бирга устозлари ва шогирдлари ҳам бирга бўлишган.

Одатда тантана (кўпинча суннат, хатна тўйи) ҳақида хабар яқин, олис қишлоқларга 5-6 кун олдин берилган. Унда кураш ёки кўпқари уюштирилиши ҳам айtilган. Тўй бўлаётган қишлоққа тантана ҳақида хабарчи (жарчи, индакчи) от миниб, ҳайқириб эълон қилиб чиққан. Олис қишлоқларга эса хат берилган. Тўй эгаси иқтисодий аҳволига кўра кураш ва кўпқари уюштирган. Агар тўйчи полвон бўлса кураш, чавандоз (чопағон) бўлса кўпқари ташкил қилинган. Ўзига тўқ кишилар тўйдан бир кун олдин кўпинча тўй кечаси кураш, келгуси кундузи кунни эса кўпқари уюштиришган.

Тўйга таклиф этилган меҳмонлар тўйхонага бир кун бурун кечқурун етиб келишган. Бу қозон қураш кунда меҳмонлар шом ошини еб бўлгач, тўйчига тўёна бериб, дуо — фотиҳадан сўнг тўй кайвониси рухсати билан қўноқхонага йўл олишган. Кечқурун кураш бўлса томошага келишган. Баъзан кундузи кураш ва кўпқари бараварига соат 10 /00 ларда ҳам ташкил этилган. Қўноқхонада меҳмонлар ва от-уловлари учун (арпа, беда, ва ҳ.к) зарур шарт-шароитлар яратилган.

Бир қўноқхонага бир бош жонлиқ (кўчқор ёки сарка), баъзан 12 кг хом гўшт берилган. Бу 10-12 нафар кишига етиши лозим бўлган. Баковул томонидан ҳар бир қўноқхонага яқин қариндош (қорақозон)лардан масъул киши белгиланиб, меҳмонларга яратилган шарт-шароитлардан хабар олиб турган. Агар тўй эгаси ночор, қўли қисқа бўлса қўноқхона эгаси тўйга ёрдам — қўшан қилиб, меҳмонларга зарур озиқ-овқат ва от — уловларига озуқа берган. Тўй эгаси (тўйчи) ҳам кечаси 1-2 марта қўноқхоналарини айланиб чиқиб, меҳмонлар аҳволидан хабар олган. Қўноқхонанинг бутун оила аъзолари меҳмонлар учун хизмат қилишиб, қизлари оналарига, ўғиллари эса оталарига яқиндан ёрдам беришган, от-уловларга емиш берган ва суғорган.

Меҳмонлар эрталаб туришгач, чой-пой ичишиб, яна тўйхонага йўл олишган. Тўйда эрталабги эл оши (саропта) наҳор оши (меҳмон оши)ни тавовул қилишгач, туришиб меҳмонлар ва қариялар ўтирадиган жой — мирзақурга жойлашишган. Сўнгра суннат маросими (чикбурон) уюштирилиб, меҳмонлар тўй бола (гулавачча)га пул беришган. Меҳмонларга эса яктак (жегда), белқарс (белбоғ) берилган. Жонлиқ (совун) олиб келган ёки салмоқли кўпроқ тўёна берган ёки ёши улуг кексаларга, қариндошларга, меҳмонларга эса тўн-сарпо кийдирилган. Мулланинг фотиҳасидан сўнг барча ёшу қари эркақлар кураш ёки кўпқарига отланишган. Бу беллашувлар



кундузи 10:00 дан 16:00 ларгача давом этиб, маросим тугагач, тўйчи, кўникчи ва оқсоқол ва меҳмонларни кузатиб қўйишган.

Ушбу удум Қамаш ва Дехқонобод туманларида азалдан мавжуд бўлиб, ҳозирги кунда баъзи ўзгаришларга учраган. Масалан, Дехқонобод тумани Торқопчиғой қишлоғида яшовчи Зиёдулла Ибрагимов ва Қамаш тумани Қамай қишлоғида яшовчи Абдужаббор Пардаев маълумотларига кўра, ҳозирги пайтда кўшхона эгалари тўй эгасидан озиқ-овқат маҳсулотларини олишмайди, ўзлари кўноқларга қарашишади.

Шунингдек, Қамаш тумани Жонбузсой қишлоғида ҳозирги вақтда кўник — деганда маҳалланинг обрўли кишиларини чақириб, тўй эгаси зиёфат бериши ҳам тушунилади (**Дала ёзувлари, 2024 йил март**).

Ҳозирда Қашқадарё воҳасида, шунингдек республикамизнинг дашт ва тоғ олди ҳудудларида мотам маросимларда ҳам олис ҳудудларидан келган кишиларга озиқ-овқат яқин кўшни ва қариндошлар хонадонидида ташкил этилиб, еб-ичириб жўнатилади.

Бугун мамлакатимиз қишлоқларида, жумладан Қашқадарё воҳасида ўзига хос меҳмондорчилик удумлари мавжуд эди. Агар бирон хонадонга олисдан меҳмон келса кўни-кўшнилар ёки яқин қариндошлар уни ўз уйларига таклиф этишарди. Агар меҳмон узрли сабаб билан бора олмаса, унга таом юбориларди.

Мабодо бирор хонадонда ўтов тиклаш, уй қуриш, кигиз босиш, гилам тўқиш, тандир қуриш бошланса кўни-кўшнилар ҳашарга боришарди (қўл солишиш), аёллар нон, қатлама, патир, бўғирсоқ, ширинликли дастурхон ёки мазали таом узатишарди.

Юқоридаги этнографик маълумотлардан кўриниб турибдики, аждодларимиз бу турфа ноёб удумлари орқали инсонлар ўртасидаги қариндошлик, меҳр-оқибат, кўни-кўшничилик, саховат, аҳиллик ришталари янада мустаҳкамлашган. Айниқса, ёш авлод меҳмондорчиликка ўргатилган. Ўстирилаётган ўғил болалар меҳмонларнинг от-уловига, чойига қарашган, ёш қизлар эса оналарининг қозон — товоқ ишларига яқиндан кўмаклашган. Бу одатни ўзига хос чиниқиш ва тарбия мактаби дейиш мумкин.

Ҳозирги глобаллашув жараёнлари даврида тўй-тантаналар, асосан, тўйхона ва ресторанларда ўтказилмоқда. Кўноқ беришга эса эҳтиёж қолмаяпти. Бу одат баъзи чўл ва тоғ олди қишлоқларида сақланиб қолган, халос. Фикри-мизча, тўй-тантаналарни шахсий хонадонларда халқона оддий, дабдабасиз ва чиқимсиз ўтказилса, кўноқ бериш удуми яна қайта тикланарди, албатта.

Хуллас ўтмишда ўзбекларда, жумладан Қашқадарё воҳасидаги кўноқ бериш удуми билан бирга ҳозир унутилаётган **гап-гаштак (тўкма, ҳал-фона), дангана, шердона, ҳашар, ҳайров, “чим қўйиш”, “боқи қилиш”, “сут тўплаш”** каби жамоавий эзгу анъаналарни ҳам этнографик йўналишда холисона ўрганиб, ҳозирги авлодга, айниқса, ёшларга етказилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.



MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYODA HUNARMANDCHILIK

Maftuna AXMEDOVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgan yillardan boshlab Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasining rivojlanishi tahlil qilingan. Hunarmandchilikning tarixiy ildizlari, mustaqillikdan keyingi islohotlar, hunarmandlarning iqtisodiy faolligi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi dinamikasi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, hunarmandchilik sohasida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishni kengaytirish, hunarmandlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish va raqamli savdoni rivojlantirish orqali sohaga yangi impuls berish mumkinligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: hunarmandchilik, Qashqadaryo, milliy hunarmandchilik, iqtisodiy rivojlanish, eksport, ustoz-shogird an‘anasi, raqamli savdo.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, milliy hunarmandchilik sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Ayniqsa, tarixiy hunarmandchilik an‘analari qadimdan saqlanib kelgan hududlardan biri bo‘lgan Qashqadaryo viloyatida ushbu yo‘nalishning taraqqiy etishi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilikning rivojlanish tendensiyalari, davlat tomonidan ko‘rsatilgan imtiyozlar, ishlab chiqarish hajmining oshishi hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Qashqadaryo viloyati o‘zining boy tarixiy merosi va hunarmandchilik an‘analari bilan ajralib turadi. Xususan, ushbu hududda quyidagi hunarmandchilik turlari rivojlangan:

- Kulolchilik (Koson, Shahrisabz tumanlari)
- Zargarlik (Qarshi shahri)
- Yog‘och o‘ymakorligi va me‘moriy bezak san‘ati (Shahrisabz)
- Gilam to‘qish va kashtachilik (Dehqonobod, Qamashi, Kitob tumanlari)
- Misgarlik va temirchilik (Koson, Chiroqchi)

Ushbu hunarmandchilik turlari nafaqat mahalliy aholining ehtiyojlarini qondirish, balki eksport imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli bo‘lib kelgan.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston hukumati tomonidan hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi muhim islohotlar amalga oshirildi:

- **"Hunarmand" uyushmasining** tashkil etilishi (2017-yil)
- Hunarmandlarga **soliq va kredit imtiyozlari** berilishi
- Mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish uchun **eksport yordami**

- **Ustoz-shogird maktablarini** kengaytirish
- **"Ipak yo‘li" xalqaro hunarmandchilik festivalining** o‘tkazilishi



Mazkur islohotlar natijasida hunarmandlar faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, ularning erkin ishlashi uchun sharoitlar yaratildi.

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasida ishlayotgan aholi soni va ishlab chiqarish hajmi quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval. 2010–2023-yillarda Qashqadaryoda hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilarning o'sish dinamikasi

Yil	Hunarmandlar soni (ming kishi)	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (mlrd. so'm)
2010	3.5	18.2
2015	7.2	35.8
2020	12.6	82.5
2023	18.9	130.4

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2010–2023-yillar davomida Qashqadaryoda hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilar soni 5,4 barobar oshgan. Bu esa sohaga berilgan imtiyozlarning natijasidir.

Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan hunarmandchilik mahsulotlarining yillik eksport ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-jadval. 2015–2023-yillarda hunarmandchilik mahsulotlarining eksport hajmi

Yil	Asosiy eksport mahsulotlari	Eksport hajmi (mln. AQSh dollari)
2015	Zargarlik buyumlari, gilamlar	3.2
2017	Yog'och o'ymakorligi, misgarlik	5.8
2020	Kulolchilik, ipak mahsulotlari	8.7
2023	Kashtachilik, charm mahsulotlari	12.3

Jadvalga ko'ra, Qashqadaryoda hunarmandchilik mahsulotlari eksporti 2015-yildan 2023-yilgacha 3,8 barobar oshgan. Ayniqsa, xalqaro bozorga ipak, kashtachilik va yog'och o'ymakorligi buyumlarini olib chiqish hunarmandlarning daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Hunarmandchilik rivojiga qaratilgan islohotlarga qaramay, sohada bir qator muammolar mavjud:

1. **Xomashyo ta'minotidagi qiyinchiliklar** – Yog'och, ipak va metall mahsulotlari narxlari oshib bormoqda.

2. **Raqamli savdoni rivojlantirish zarurati** – Hunarmandlarning ko'pchiligi onlayn platformalarda mahsulotlarini targ'ib qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.



3. **Hunarmandlar uchun maxsus moliyaviy dasturlar yetarli emas** – Uzoq muddatli arzon kreditlar olish imkoniyatlari kengaytirilishi zarur.

4. **Hunarmandchilikning xalqaro brend sifatida rivojlantirilishi sust** – Qashqadaryo mahsulotlari xalqaro bozorda yetarlicha tanilmagan.

XULOSA VA MUNOZARA

Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda hunarmandchilik sohasida ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash choralari natijasida hunarmandlar soni sezilarli darajada oshdi, mahsulotlarning eksport hajmi kengaydi. Biroq, bu sohaga oid ayrim muammolar hal qilinsa, Qashqadaryoda hunarmandchilikning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi yanada ortishi mumkin.

Kelajakda hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish hajmini oshirish, hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish orqali Qashqadaryo hunarmandchiligi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo iqtisodiyotining muhim tarmog'iga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'raqulov S. O'zbek hunarmandchiligi tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

2. Rashidov U. Milliy hunarmandchilik va uning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari. – Toshkent: Sharq, 2020.

3. Bo'ronov A. Qashqadaryoda hunarmandchilikning an'anaviy yo'nalishlari. – Qarshi: Nasaf, 2019.

4. Ergashev H. Hunarmandchilik iqtisodiyoti va uning tahlili. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.

5. Karimov D. O'zbek xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.



ТУРК ХОҚОНЛИГИНИНГ БУЮК ИПАК ЙЎЛИ ТИЗИМИДАГИ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА

Жаҳонгир ЭРГАШЕВ,

Бухоро давлат университети

j.y.ergashev@buxdu.uz

j.ergashev91@mail.ru

Аннотация. Турк ҳоқонлиги даврида Буюк ипак йўлининг шимолий тармоғининг аҳамияти, Хитойни Ғарбий ўлкалар билан боғлаб турган йўллар тармоғининг кенгайиб бориши, Буюк ипак йўли бўйлаб иқтисодий-савдо ва маданий алоқаларнинг ривожиди Турк ҳоқонлари ҳомийлигида бўлган суғд савдогарлари, Турк ҳоқонлиги даврида Марказий Осиё савдо йўллари тизимида юз берган катта ўзгаришлар, ипак савдосининг нафақат иқтисодий, шу билан бирга муҳим стратегик аҳамиятга эга бўлган ҳарбий-сиёсий вазифаларни ҳал этишдаги ўрни ҳақидаги маълумотлар тарихий манба ва адабиётлар ёрдамида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Турк ҳоқонлиги, Буюк ипак йўли, “Бэйши”, Лайжоу, Дуньхуан, Чанъан

ОСОБЕННО ЗНАЧЕНИЕ ТУРЕЦКОЙ ЭКОНОМИКИ В СИСТЕМЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ.

Абстрактный. На основе исторических источников и литературы проанализированы значение северной ветви Великого шелкового пути в период Тюркского каганата, расширение сети дорог, связывающих Китай со странами Запада, роль согдийских купцов под покровительством Тюркских каганатов в развитии экономических, торговых и культурных связей на Великом шелковом пути, основные изменения, произошедшие в системе среднеазиатских торговых путей в период Тюркского каганата, роль торговли шелком в решении не только экономических, но и стратегических военно-политических задач.

Ключевые слова: Тюркский каганат, Великий шелковый путь, «Бэйши», Лайчжоу, Дуньхуан, Чанъань

ESPECIALLY THE IMPORTANCE OF THE TURKISH ECONOMY IN THE GREAT SILK ROAD SYSTEM.

Abstract. Based on historical sources and literature, the article analyzes the significance of the northern branch of the Great Silk Road during the Turkic Khaganate, the expansion of the network of roads connecting China with Western countries, the role of Sogdian merchants under the patronage of the Turkic Khaganates in the development of economic, trade and cultural ties on the Great Silk Road, the main changes that occurred in the system of Central Asian trade routes during the Turkic Khaganate, the role of silk trade in solving not only economic, but also strategic military and political problems.



Key words: Turkic Khaganate, Great Silk Road, Beishi, Laizhou, Dunhuang, Chang'an

Кириш. Турк ҳоконлиги даврида Буюк ипак йўлининг шимолий тармоғининг аҳамияти ошиб, Шарқий Туркистондан Тяньшан тоғ доvonлари орқали Еттисувга ўтувчи йўллардан фойдаланиш, тоғ доvonларини ўзлаштириш янада ривожланди [5. 14-20]. Шимолий йўлнинг бир тармоғи Зоминдан Шош орқали Исфижоб, Тароз, Учбулоқ Қулан (ҳозирги Луговая станцияси), Чу водийсидаги Аспара, Новакет, Суяб шаҳри (Оқ-Бешим) орқали Иссиққўлнинг жанубий-шарқий қишлоғида жойлашган Юқори Барсканга келинган [8. 39]. XI асрнинг биринчи ярмида тузилган “Син Тан шу” (“Тан сулоласи янги тарихи”) асарида юқорида кўриб ўтилган шимолий йўналишга мос равишда, Аньсудан Бедел доvони, Иссиққўл (Жэхай), Чу (Суй-е) дарёси водийси, Боласуғун, Суёб, Ашпара орқали Таласга олиб чикувчи йўналишдан илк ўрта асрларда кенг фойдаланилганини қайд этилади [14. 77]. Еттисувдаги Суяб шаҳрида турли мамлакатлардан келган савдогарлар яшашган [6. 3-14]. Суябдан Чоч воҳаси идишларига ўхшаш сопол буюмлар топилгани Чочдан Тароз орқали Чу водийсига ўтган йўл орқали олиб борилган иқтисодий-маданий алоқаларнинг натижасидир [17. 340-341].

Адабиётлар таҳлили ва методология. Марказий Осиё қарвон йўлларининг шаклланиши ва ривожланиш босқичларига Ўзбекистонлик йирик тарихчи олим Ў.Мавлонов томонидан тадқиқ этилди. Унинг асарида Буюк ипак йўлининг шимолий тармоғига Талас ва Чу дарёси водийсида бир қанча маҳаллий йўналишлар қўшилганлиги, улар ичида Тароздан Қора-Бура доvони ва Чотқол водийси орқали Фарғона водийсига ўтувчи Чотқол йўналишини, Харран (ҳозирги Оқсув)дан Чу дарёсидаги Тойкечув ва Қурдай доvони орқали ҳозирги Олмаота ҳудудига олиб чиққан Или йўналиши каби масалалар атрофлича баён этилган.

Муҳокама ва натижалар. Умуман олганда, Еттисув ва Жанубий Қозоғистон ҳудудида илк ўрта асрларда пайдо бўлган шаҳарлар Буюк ипак йўлининг шимолий йўналишида жойлашгани минтақадаги урбанизация жараёнларининг иқтисодий алоқаларга мос равишда ривожланиб борганини кўрсатувчи муҳим хусусиятдир.

Минтақадаги илк ўрта асрлар ички савдо йўллари минтақа турли тарихий вилоятларининг ўзаро алоқаларида катта ўрин тутган. Бу йўналишлар Буюк ипак йўлининг муҳим тармоқлари ҳисобланарди. Бу даврда қадимги давр ва антик даврда қарор топган транзит алоқа йўлларининг баъзи йўналишлари ўз аҳамиятини йўқотди, улар ўрнига мавжуд ижтимоий-сиёсий вазиятга боғлиқ ҳолда халқаро транзит алоқа йўлларининг янги тармоқлари вужудга келди.

Илк ўрта асрларда Ўрта Осиёнинг халқаро алоқалари ҳам ривожланиб борди. Бу даврдаги ташқи иқтисодий-маданий алоқаларда етакчи ўринни Хитой эгаллай бошлади. V асрнинг охири – VI асрнинг бошларида Ўрта Осиёдан ташқари Шарқий Туркистондаги Турфон (479 й), Урумчи (490-497



йй.), Қашқар (497-507 йй.) ҳамда Тоҳаристон жануби ва Ҳиндистоннинг шимолий қисмлари ҳам Эфталийлар давлати таркибига кирди. Шу тариқа Эфталийлар Буюк ипак йўлининг Хитойдан Марказий Осиё худуди орқали Эрондаги Сосонийлар давлати ва Византия империясига ўтувчи асосий савдо йўллари устидан ўз назоратларини ўрнатдилар. Эфталийлар давлатининг кучайиши билан Хитойнинг Ўрта Осиёнинг бу янги қудратли давлати билан сиёсий-иқтисодий алоқалар ўрнатишига бўлган интилиши ошди. Буни V асрнинг 20-50-йилларида Хитойдаги Шимолий Вэй сулоласи (386-550 йй.) томонидан Ўрта Осиёга жўнатилган 3 та элчилик миссиялари ҳам кўрсатади. Бу элчилик миссиялари йўналишларини ўрганиб, Хитойни Ўрта Осиё билан боғловчи алоқа йўллари ҳақида муҳим хулосаларга келиш мумкин [8. 249., 20. 129., 22. 68].

V-VI асрларда Хитой ва Ўрта Осиё ўртасидаги савдо ва маданий алоқалар ривожининг янги босқичи бошланиб, Хитойни Ғарбий ўлкалар билан боғлаб турган йўллар тармоғи кенгайиб борди. V асрга оид ёзма манба – “Бэйши” да Хитойни Ғарбий ўлкалар билан боғловчи йўлларнинг қуйидаги 4 та тармоғи қайд этилган [9. 251., 24. 79-80].

1. Юймень чегара қалъасидан кўчма қумлик орқали – Шаншанга (Пшамшан) (2000 ли¹);

2. Юймень чегара қалъасидан кўчма қумликни шимолий йўналишида кесиб ўтиб Чешу (Турфон) қалъасига (2200 ли);

3. Шачэ (Ёркент)дан ғарбга – Помир тоғ доволари орқали – Цзябейга (1300 ли);

4. Шачэ (Ёркент)дан жануби-ғарбий йўналишда Цунлин тоғи орқали Болуга (1300 ли).

VI-VII асрларда Хитой географи Пэй Цзюй томонидан ёзилган “Ғарбий ўлкалар таърифи ва харитаси” асарда Буюк ипак йўлининг Дуньхуандан Ўрта Ер денгизигача бўлган қуйидаги учта йўналиши келтириб ўтилади:

1. Шимолий йўналиш: Хами – Боркўл – Иссиқкўл – Чу дарёси водийси – Шимолий Кавказ – Византия – Ўрта Ер денгизи.

2. Марказий йўналиш: Турфон – Қарашар – Кучу – Помир тоғ довлари – Уструшона – Самарқанд – Бухоро – Марв – Эрон – Ўрта Ер денгизи.

3. Жанубий йўналиш: Дуньхуан – Лобнор кўли – Такламакон саҳроси – Вахон йўлаги – Тоҳаристон – Эрон – Ўрта Ер денгизи [24. 79-80].

Буюк ипак йўлининг бу асосий йўналишлари бир-бирлари билан маҳаллий йўллар тармоғи орқали боғланган бўлган [21. 121].

Буюк ипак йўлининг Хитойдан Эрон ва Византия чегараларигача бўлган асосий йўналишларини ўз назоратига олган турк ҳоконлиги даврида бу алоқалар янада юксалди. Буюк ипак йўли бўйлаб иқтисодий-савдо ва маданий алоқаларнинг ривожидан Турк ҳоконлари ҳомийлигида бўлган суғд савдогарлари катта ҳисса қўшдилар [1. 124]. Суғдийларнинг Буюк ипак йўли бўйлаб Шарққа силжишлари, Шарқий Туркистонда суғд савдо

1 Хитойда асосий узунлик ўлчови бўлган Ли турли тарихий даврларда 400 м.дан 800 м. гача бўлган масофани билдирган.



ваколатхоналари мил. авв. I асрдаёқ пайдо бўлганлигини юқорида қайд қилиб ўтган эдик[15.]. Илк ўрта асрларда Буюк ипак йўли бўйлаб халқаро савдода етакчилиқни ўз қўлларига олган суғд савдогарларининг савдо ваколатхоналари Шарқий Туркистондаги шаҳарларда, Хитойнинг Лайжоу, Дуньхуан, Чаньон каби йирик савдо шаҳарларида мавжуд бўлган [2.]. Бу даврга тегишли Хитой манбаларида (Таншу – Тхан сулоласи тарихи) суғдийлар савдода моҳирлиги, эркаклари 20 ёшга тўлиши билан савдо-сотик қилиш учун фойда кўпроқ келадиган қўшни мамлакатларга йўл олиши ҳақида маълумот сақланиб қолган[9. 323]. Мутахассислар фикрича, Хитойнинг турли шаҳарларидан топилган Суғд ёзувлари ҳам суғдийларнинг Буюк ипак йўли йўналишлари бўйлаб кенг тарқалганлигини кўрсатади[21. 106., 3. 69-102]. Илк ўрта асрларда Суғд савдогарлари ҳатто Японияга ҳам кириб боришга эришганлар. Япониянинг қадимги пойтахти Нара шаҳридаги ибодатхоналарнинг бирида суғд тилида ёзилган қўлёзма сақланиб келинаётганлиги [16. 119-125], 1987 йилда Японияда Буюк ипак йўлига бағишлаб ташкил этилган кўргазманинг «Ипак йўли Нарага олиб боради» деб номланиши ҳам бу фикрни тасдиқлайди[7. 12., 21. 28].

Турк ҳоконлиги даврида Хитойни Ўрта Осиёнинг марказий ҳудудлари билан боғловчи йўллар ичида Шулэ (Қашқар)дан Бахан (Фарғона) ва Судуйшоно (Уструшоно) орқали Кан (Самарқанд Суғди)га ўтувчи йўналиш ҳам иқтисодий ва давлатлараро элчилик алоқаларида асосий ўрин тутган[22. 68].

Умуман олганда, илк ўрта асрларда Буюк ипак йўлининг минтақамиз орқали ўтган транзит алоқа йўналишларини 3 қисмга – жанубий, марказий ва шимолий йўналишларга бўлиб чиқиш мумкин. Буюк ипак йўлининг жанубий йўналиши Тоҳаристондан Помир тоғ доволари орқали Қашқарга олиб чиққан бўлса, марказий йўналиш Амударё кечувларидан (Келиф, Карки, Амул) Бухоро, Сурхондарё ва Қашқадарё воҳасидаги шаҳарлар орқали ўтиб Самарқандга, бу ердан Жиззах, Шош ва Фарғона водийси шаҳарлари бўйлаб Қашқарга олиб чиққан. Шимолий йўналиш бўйлаб Самарқанддан Еттисувдаги шаҳарлар (Ясси, Исфижоб, Тароз ва бошқалар) орқали ўтиб, Шарқий Туркистонга бориш мумкин эди. Бу йўллар ичида Мовароуннахр шаҳарлари орқали ўтувчи марказий йўналиш халқаро алоқаларда муҳим ўрин тутган.

Илк ўрта асрларда Сосонийлар Эрони билан Эфталлийлар, кейинчалик Турк ҳоконлиги ўртасидаги сиёсий низолар туфайли Эрон ҳудуди орқали Ўрта Ер денгизи портларига олиб чиқувчи коммуникация йўли фаолияти маълум вақт ўз аҳамиятини йўқотади. Бу ташқи сиёсатнинг иқтисодий-маданий алоқалар йўналишларига таъсири катта бўлишининг ёрқин далилларидан биридир. Турк ҳоконлиги даврида Марказий Осиё савдо йўллари тизимида катта ўзгаришлар юз берди. Турк ҳоконлигининг Византия билан дипломатик алоқалари йўлга қўйилди. Суғд савдогари Маниах бошчилигида 567 йилда Византияга жўнатилган элчилар, Византиядан келган жавоб элчилик миссиялари фаолияти бундан далолатдир[4. 89]. Бу алоқаларда Еттисувдан Қозғистон даштлари орқали ҳамда Хоразм воҳасидан Манғишлоқ, Қуйи Волгабўйи, Кавказорти ва Қора денгиздан Трапезунд орқали Константинополга



олиб борувчи савдо йўли муҳим аҳамият касб эта бошлайди. Бу йўналишда хоразмликлар ва хазарлар муҳим воситачилик вазифасини бажарганлар. Бу йўлнинг аҳамияти кейинги даврда, Шимолий Кавказ ва Шарқий Европа вилоятлари билан иқтисодий ва маданий алоқалар жадал ривожланган даврда айниқса ошди. Шимолий Кавказда, Кисловодск яқинида Африғийлар даврида зарб этилган кумуш тангалар, кумуш идишлар ва бошқа моддий топилмалар топилиши Амударёнинг қуйи оқимидан Оролбўйи ва Каспий денгизи шимоли бўйлаб Қуйи Волгага, бу ердан Кавказ ва Қора денгизга олиб чиққан савдо йўли фаолиятининг ёрқин далилидир[13. 72].

Турк ҳокони элчиси сифатида Византияга борган машҳур суғд савдогари Маниах ҳам юқоридаги йўналиш бўйлаб Қора денгиз соҳилидаги портларга ва сув йўли орқали Константинополга борган. Византия ҳукмдори Юстин II нинг Земарх бошчилигидаги элчилари Буюк ипак йўлининг шимолий тармоғи бўйлаб, яъни Қора денгиздан Каспий ва Орол денгизи шимолидаги дашт ҳудуди орқали Етгисувга – Турк ҳокони қароргоҳига етиб келишади. Бу элчилик ҳақида маълумот қолдирган Менандр Византия элчиларининг қайтишда Оих дарёси – Катта бир кўл – Ик дарёси – Даих дарёси орқали ўтганлиги ҳақида хабар беради[25. 33-38]. Агар Оих дарёсини Сирдарё, катта кўлни Орол денгизи, Ик дарёсини Эмба ва ниҳоят Даих дарёсини Ёйиқ (Урал) дарёсига мос келишини ҳисобга олсак, бу даврда Византияни Хитой билан боғловчи Буюк ипак йўлининг шимолий тармоғи йўналишлари янада ойдинлик касб этади.

Шу тариқа, Турк ҳоконлиги даврида Буюк ипак йўлининг Шимолий йўналиши – Шарқий Туркистон ва Етгисувни Қора денгиз соҳиллари билан боғловчи қисқа йўл ҳам пайдо бўлади. Ўрта Осиё шимолидаги даштлар орқали ўтиб Қора денгиз соҳилларигача етиб борган бу йўл қадимги Дашт йўли йўналишларига мос келиб, алоқа йўллари йўналишлари қулай сиёсий-иқтисодий вазиятда ўз аҳамиятини тезда тиклай олишига мисолдир.

Илк ўрта асрларда Тоҳаристон ва Суғддан Амударё бўйлаб Хоразмга, пойтахт Катдан Урганч орқали Каспийбўйига ҳамда Устюртдан қуйи Волгабўйига ўтувчи карвон йўллари минтақанинг Волгабўйидаги Ҳазар давлати[11. 130-131] ҳамда Шарқий Европа ва Византия билан алоқаларида катта аҳамиятга эга йўналишлардан эди. Илмий доираларда “Кавказ йўли” деб аталувчи йўл ҳам бу даврда Хоразм ва Шимолий Кавказ ўртасидаги алоқаларда катта ўрин тутган. Краснодар ўлкаси, Ставрополь ва Шимолий Кавказ ҳудудида топилган Хитой ва Ўрта Осиёдан келтирилган турли-туман буюмлар, тангалар ва бошқа топилмалар Турк – Византия ҳамда Африғийларнинг Ҳазар ҳоконлиги билан қалин алоқаларидан далолат беради[21. 138-144].

Маълумки, Хитойнинг Ғарб ўлкалари билан алоқаларида ипак ва ундан тайёрланган буюмлар катта аҳамият касб этган. Хитойда кўп миқдорда етиштириладиган ипак ва ундан тайёрланадиган буюмлар мамлакатнинг ички бозорида унчалик катта ўрин тутмаган. Натурал хўжалик ҳукмронлиги шароитида ипак буюмлар фақатгина Хитой императори, унинг оиласи ва



зодагонлар эҳтиёжига ишлатилиб, ипакка асосан ташқи бозорда талаб катта бўлган. Буюк ипак йўли фаолияти бошланган дастлабки даврларда Хитой ипаги нодир ва қимматбаҳо маҳсулот сифатида жуда қадрланган. Бу ҳолат илк ўрта асрларда ҳам сақланиб қолди. Хусусан, Византияда Хитой ипаги олтин ва бошқа қимматбаҳо тошларга тенг қийматга эга бўлиб, у Константинополь саройи ва зодагонлар эҳтиёжидан ташқари ёлланма қўшинга ҳақ тўлашда ҳам асосий маҳсулот ҳисобланарди[12. 48,56]. Турк ҳоқонлиги даврида Хитойдан Сосонийлар Эрони ва Қора денгиз орқали Византияга ўтувчи халқаро савдо йўлини ва ипак савдоси назоратини қўлга киритган турклар ва уларнинг ҳомийлиги остида савдо-сотик билан шуғулланган суғд савдогарлари Марказий Осиёда ипак савдоси устидан тўлиқ назорат ўрнатган эдилар. Хитой билан бўладиган савдо-сотикдан, биринчи галда ипак савдосидан катта фойда олаётган Суғд савдогарлари Шарқий Туркистон ва Хитойдаги ўз савдо факториялари орқали Хитой ипаги ва бошқа маҳсулотларни бевосита ишлаб чиқарувчилардан олиб, уларни Буюк ипак йўли бўйлаб, нафақат Ўрта Осиёга, балки Византия ва бошқа Ғарб мамлакатларига ҳам олиб борганлар[21. 137-138].

Ипак савдоси нафақат иқтисодий, шу билан бирга муҳим стратегик аҳамиятга эга бўлган ҳарбий-сиёсий вазифаларни ҳал этишда ҳам катта ўрин тутарди. Хусусан, Турк ҳоқонлари Хитойдан ўлпон тарзида ҳар йили катта миқдорда ипак олиб турганлиги маълум. Хитойдан олинган ипакнинг ички эҳтиёжлардан ортиб қолган катта қисми ташқи бозорга, хусусан, ипакка талаб юқори бўлган Византияга чиқариларди. Бу ҳолат то Византияга тегишли бўлган жанубий ҳудудларда (Сурияда) ипакчилик йўлга қўйилгунга қадар давом этди[12. 48].

Шундай қилиб, Ўрта Осиёнинг V-VIII асрлардаги ташқи алоқалари географияси тўхтовсиз кенгайиб борди. Хусусан, Ўрта Осиё – Византия алоқалари асосида тарихий-маданий алоқаларнинг янги йўналишлари пайдо бўлди. Ўрта Осиё ва Хитой ўртасида мил. авв. II асрда бошланган мунтазам алоқалар илк ўрта асрларда ривожланиш даврига кирди. Хитойдан то Ўрта Ер денгизи қирғоқларигача етиб борган, рамзий равишда “Буюк ипак йўли” номи билан аталган бу халқаро транзит коммуникация йўли Ўрта Осиёнинг ташқи иқтисодий-маданий алоқалари тарихида, алоқа-савдо йўллари тизими ривожига алоҳида муҳим босқични ташкил этади.

Илк ўрта асрларда Ўрта Осиё ҳудудида Византия, Эрон сосонийлари ва Хитой тангалари пайдо бўла бошлайди. Хусусан, Хитой ва минтақамиз ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар ривожидан далолат берувчи Хитой тангалари – у-шу Фарғона водийсидаги, Тошкент воҳасидаги бир қанча ёдгорликлардан топилган[10. 25]. Мутахассислар Фарғонадаги ички савдода Хитой у-шу тангалари ва уларга тақлидан ясалган тангалар амалда бўлганлиги эҳтимолини қайд этиш билан бирга, у-шу ва тань сулоласи тангаларининг Византия ва сосонийлар тангалари каби халқаро валюта сифатидаги аҳамиятига ҳамда Ўрта Осиёнинг шарқий ҳудудлари



Хитойнинг сиёсий ва иқтисодий манфаатлари зонасига кирганлигига урғу бериб ўтадилар[21. 134].

Хулоса. Юқорида келтирилган маълумотлардан, илк ўрта асрларда бутун Марказий Осиёнинг ягона салтанат таркибига киритилиши карвон йўллари тизими ривожига катта таъсир кўрсатганлиги ҳақида хулосага келиш мумкин. Бу давр Буюк ипак йўли орқали олиб борилган халқаро иқтисодий-маданий ва сиёсий муносабатлар юксак ривожланган, карвон йўллари тизимининг самарали фаолияти йўлга қўйилган давр сифатида аҳамиятлидир. Бу даврда Буюк ипак йўлининг шимолий тармоғи ҳам жадал ривожланиб борди. Карвон йўллари ривож билан боғлиқ равишда янги шаҳарлар пайдо бўлди, янги ерларнинг ўзлаштирилиши жадаллашди. Карвон йўллари иқтисодий-маданий алоқалари ривожига катта таъсир кўрсатди. Бу давр бир томондан суғд тили ва ёзувининг қўшни ўлкаларга тарқалиши ҳамда турк тили ва ёзувининг минтақада янада кенг ёйилиши билан ҳам характерланади. Халқаро савдо билан шуғулланувчи ижтимоий табақалар – савдогарлар фаолияти ривожланди. Ички ва ташқи савдо билан шуғулланувчи йирик савдо уюшмалари шаклланди. Йўлбўйи иншоотлари қурилиши, тезкор алоқа-почта хизмати ва йўлларда тегишли хизмат кўрсатиш тизими ривожланиб борди. Буларнинг барчаси илк ўрта асрлар даврида Ўрта Осиёдаги карвон йўллари динамикасига хос асосий хусусиятларни кўрсатади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. De la Vaissiere Etinne. Histoire des Marchands Sogdiens. – Paris: Institut des Hautes Etudes Chinoises, 2004. – 379 p. + map.

2. Gharib B. Sogdian dictionary (sogdian-persian-english). – Tehran: Farhangan publications, 2004. – 519 p.

3. Kljaštornyj S.G., Liršic V.A. (Leningrad). The Sogdian inscription of Bugut revised // Acta orientalia . – Budapest: Academiai Kiado, 1972. Т. 26. – P. 69-102.

4. Абусейтова М.Х., Абылхожин Ж.Б. и др. История Казахстана и Центральной Азии. – Алматы: Білім, 2001. – 612 с.

5. Байпаков К.М. Великий шелковый путь и судьбы цивилизаций. – Алматы, 2006. – 246 с.

6. Байпаков К.М. Раннесредневековая городская культура Южного Казахстана // Средневековые города Южного Казахстана. – Алма-Ата: Наука, 1986. – С. 3-14.

7. Байпаков К.М. Средневековые города Казахстана на Великом шелковом пути. – Алматы: Ғылым, 1998. – 216 с

8. Бартольд. В.В. Очерки истории Семиречья / Соч. в 9 томах. – М.: Наука, 1963. Т. 2. Ч. 1. – С. 25-106.

9. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х частях. – Алматы: ТОО “Жалын Баспасы”, 1998. Ч.2. – 348 с.



10. Буряков Ю.Ф. Экономические и культурные связи Чача и Ферганы // Буюк Ипак йўли ва Фарғона водийси: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: 2004. – С. 22-26.
11. Гумилев Л. Древняя Русь и Великая степь. – М.: Эксмо, 2007. – 864 с.
12. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – СПб.: СЗКЭО Кристалл, 2003. – 576 с.
13. Иерусалимская А.А. О Северокавказском “Шелковом пути” в раннем средневековье // СА. – М., 1967. – № 2. – С. 55-65.
14. Источниковедение Кыргызстана (с древности до конца XIX в.). – Бишкек: Илим, 2004. – 372 с.
15. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. – Ташкент: УМЭД, 2008. – 340 с. и илл., список сокращения, указатели.
16. Когучи Ясуо. Согдийская культура и согдийцы в Японии // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития: Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летию юбилею города Самарканда. – Ташкент–Самарканд: Фан, 2007. – С. 119-125.
17. Кызласов Л.Р. Городская цивилизация Срединной и Северной Азии. Исторические и археологические исследования. – М.: Изд. вост. лит., 2006. – С. 360 с.
18. Менандр. Византийские историки / Перевод с греческого С.Дестуниса, дополненный с примечаниями Д. Дестуниса. – СПб., 1860. – 274 с
19. Мавланов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – 434 б; Эргашев Ж. Латипов Ж. The Influence of Turkic Khaghanate Rule on the Political Life of the Khitan Tribes // Central Asian Journal of Social Sciences and History – Las Palmas, 2021 – Vol. 2. P 81-90
20. Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. – Душанбе: Дониш, 1957. –159 с. и 1л. карт
21. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. – Ташкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 1999. – 280 с.
22. Сверчков Л.М. О локализации государства Мими и Чжечжиба // ОНУ. – Ташкент, 2003. – № 4. – С. 64-69
23. Содиков Қ. Кўк турк битиклари: матн ва унинг тарихий талқини. – Ташкент: 2004. – 143 б.
24. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 280 б.
- Шювен П. О византийских посольствах к первым тюркским правителям Согда (проблемы ономистики и топонимики) // ОНУ. – Ташкент: 1995. – № 1-3. – С. 3



МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХЎЖАЛИК СУДЛАРИ ТАРИХИ

Гавхар МУМИНОВА,
Шахриддин ЭШИМОВ,
Қарши давлат университети

Аннотация: Мазкур мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикаси хўжалик судларининг шаклланиши ва ривожланиши таҳлил қилинган. Хўжалик судлари тизимининг мустақил суд органи сифатида ташкил этилиши, уларнинг иқтисодий низоларни ҳал қилишдаги ўрни ва қонунчилик базасининг такомиллашуви ҳақида маълумот берилган. Шунингдек, хўжалик судлари фаолиятидаги асосий ислохотлар, уларнинг тадбиркорлик муҳитини яхшилашдаги аҳамияти ва суд тизимининг самарадорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: хўжалик судлари, иқтисодий низолар, суд ислохотлари, ҳуқуқий тизим, тадбиркорлик, қонунчилик, мустақиллик, Ўзбекистон.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс формирования и развития хозяйственных судов Республики Узбекистан в годы независимости. Рассматривается создание системы хозяйственных судов как независимого судебного органа, их роль в разрешении экономических споров и совершенствование законодательной базы. Кроме того, исследуются ключевые реформы в деятельности хозяйственных судов, их влияние на улучшение предпринимательской среды и меры, направленные на повышение эффективности судебной системы.

Ключевые слова: хозяйственные суды, экономические споры, судебные реформы, правовая система, предпринимательство, законодательство, независимость, Узбекистан.

Annotation: This article analyzes the formation and development of economic courts in the Republic of Uzbekistan during the years of independence. It examines the establishment of the economic court system as an independent judicial body, its role in resolving economic disputes, and the improvement of the legislative framework. Additionally, the article explores key reforms in the functioning of economic courts, their impact on improving the business environment, and measures aimed at enhancing the efficiency of the judicial system.

Keywords: economic courts, economic disputes, judicial reforms, legal system, entrepreneurship, legislation, independence, Uzbekistan.

Ўзбекистонда иқтисодий судлар дастлаб хўжалик судлари номи билан аталиб, 1991 йилнинг 20 ноябрида “Ҳакамлик суди ва хўжалик низоларини кўриш тартиби тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг қабул қабул қилиниши хўжалик судлари тарихида муҳим воқеа бўлди².

2Полвонзода А.А., Абдумажидов Ғ.А. Ўзбекистонда суд ҳокимияти: ислохотлар даври. – Ташкент.: Адолат, 2002. –Б.65-66.



Хўжалик судлари қонуний асосда ҳар қандай тазйиқ ва таъсирлардан, буйруқ, кўрсатма ва аралашувлардан холи этилиб, маҳаллий хокимиятга бўйсунмайдиган, фақат қонунга бўйсунувчи идора бўлди. Бу судлар Ўзбекистонда қонун устиворлигини таъминлашда кучли механизм, дастак сифатида, мустақиллик ва демократик жараён маҳсули тарзида ташкил этилди.

1998 йил 4 мартда Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг «Хўжалик юритувчи субъектларнинг иқтисодий ночорлиги ва шартнома мажбуриятларининг бажарилиши учун мансабдор шахсларнинг жавобгарлигини кучайтириш тўғрисида»ги Фармони ҳам эълон қилинди. Шу тариқа, мустақил Олий хўжалик суди ва вилоят, туман ҳамда шаҳар хўжалик судлари шаклланди.

Судларда ҳал этилган иқтисодий масалалар хусусидаги ишлар кўлами ортиб борди. 1998 йили хўжалик судларида кўрилган ишлар ҳажми ўтган йилларга нисбатан икки баробарга ўсиб, кўрилган ишлар сони 28298 та бўлди. Шунингдек, ишлардаги суммалар миқдори ҳам ошиб борди. 1994 йили 59 млн. сўм миқдоридаги низолар кўрилган бўлса, 1995 йили бу кўрсаткич 1,3 млрд.га, 1996 йилда 4,5 млрд. сўмга етди. 1997 йилда қарийб 27 млрд. сўмлик низолар ҳал этилди³.

Бозор иқтисодиёти шароитида тадбиркорлар сонининг ортиб бориши бир томондан ишлаб чиқаришнинг ўсиши, халқнинг фаровонлигига олиб келса, иккинчи томондан турли хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги низоларнинг ҳам ортиб бориши табиий ҳол ҳисобланади. Шу тарзда хўжалик судлари томонидан кўрилган ишлар сони йилдан-йилга ортиб борган. 1996-1997 йиллари хўжалик судларига 17 417 та даъво аризалари келиб тушади. 1999 йил мобайнида хўжалик судлари томонидан биринчи инстанцияда 32002 та ишлар мазмунан ҳал этилган бўлиб, улардан Олий хўжалик судининг кассация босқичида 737 та ишлар кўриб чиқилиб, бу жами кўрилган ишларнинг 2,3% ташкил этди⁴.

2000 йилдан кейин Хўжалик процессуал кодексига қатор ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди. Бу эса хўжалик судларига тааллуқли ишларнинг ҳажми кенгайишига олиб келди. 2005 йилда хўжалик судлари томонидан тадбиркорлар, кичик бизнес вакиллари, бошқа хўжалик юритувчи субъектлар иштирокидаги 122 мингдан ортиқ низо кўриб чиқилди. Бу 2004 йилга нисбатан қарийб 22 мингтага кўп демакдир. Жавобгарлардан даъвогарлар фойдасига 1 триллион 600 миллиард сўмдан ортиқ маблағларни ундириш тўғрисида суд ҳужжатлари қабул қилинди ва 2004 йилга нисбатан бу рақам ҳам 700 миллиард кўпайди. Ишларнинг сони ҳам, даъвогарлар фойдасига ундириладиган маблағлар ҳам аввалги йилларга қараганда сезиларли даражада ошган⁵.

3 Мустақиллик билан ҳамнафас. Ўзбекистон Республикаси судлари – 10 йил. – Тошкент, 2001.- Б.12-21.

4 Комолов Д.П. Ўзбекистон суд тизими тарихи (1925 – 2020 йй.): Тарих фанлари бўйича фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси.– Қарши, 2022.–Б. 198-207.

5 Комолов Д.П. Ўзбекистон суд тизими тарихи (1925 – 2020 йй.): Тарих фанлари бўйича фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси.– Қарши, 2022.–Б. 198-207.



Республика хўжалик судларида 2001 йили кўрилган ишларининг 49,8 фоизи 2000 йилдан қолган ишлар ташкил этди. Кўрилган ишларининг аксарияти ташкилотларнинг шартнома шартларининг бажарилмаслиги оқибатида юзага келдиб.

2005 йил Ўзбекистон бўйича хўжалик судларида тадбиркорлик субъектларига нисбатан ҳуқуқий таъсир чоралари қўллаш ҳақида 35 759 та аризалар келиб тушган бўлиб, улардан 10 473 таси бўйича тадбиркорларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоя қилинади⁷.

Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди Пленуми томонидан 2007 йил 15 июнда "Биринчи инстанция судида ишларни кўришда Ўзбекистон Республикаси хўжалик процессуал кодексининг қўлланилиши тўғрисида"ги 162-сонли Қарори қабул қилинди. Қарор ижросини таъминлаш мақсадида Қашқадарё вилоятида ҳам бир қатор ишлар амалга оширилди. Қашқадарё вилоят хўжалик судида 2007 йил иккинчи ярмида жами 9192 та хўжалик низолари кўрилган бўлиб, шундан 318 та хўжалик иши бўйича даъволар кўрмасдан қолдирилган, 244 та хўжалик ишлари бўйича иш юритиш тугатилган, 6 та хўжалик ишлари бўйича иш юритиш тўхтатиб турилган ва тикланган, 8172 та хўжалик ишлари бўйича даъволар қаноатлантирилган, 270 та хўжалик ишлари бўйича даъво қаноатлантириш рад этилган⁸.

Кўрилган ишлар сони 2007 йили 2006 йилга нисбатан Наманган вилоят хўжалик судида 2,1 баробарга (2879-6163), Сурхондарё за Хоразм вилоят хўжалик судларида 43 фоизга (2257-3220) ошган. Бир судьянинг ўртача ойлик иш ҳажми 131 тани ташкил этган бир пайтда, бу кўрсаткич Бухоро вилоят хўжалик судида 303 тани, Қашқадарё вилоят хўжалик судида 188 та, Қорақалпоғистон Республикаси хўжалик судида 171 та, Хоразм вилоят хўжалик судида 149 та, Сирдарё вилоят хўжалик судида 140 тани ташкил этди. Хўжалик ишларини кўриш жараёнида аниқланган қонунбузилиш ҳолатлари юзасидан айбдор мансабдор шахсларга нисбатан жами 7469 та (2006 йил 1- ярмида 6487 та) таъсир чоралари қўлланилган. Жумладан, 3481 та маъмурий, 2436 та моддий, 46 та жиноят ишлари қўзғатилган. Қонунбузилиш ҳолатларини бартараф этиш ва олдини олиш мақсадида тегишли корхона, идораларга 1609 та тақдимномалар киритилган ва хусусий ажримлар чиқарилган⁹.

Жумладан, ишни кўришга тайёрлаш ва мазмунан ҳал этиш жараёнида амалдаги қонун нормаларига тўлиқ риоя қилмаслик, қонунбузилиш ҳолатларини ўз вақтида бартараф этиш чораларини кўрмаслик суд қарорларининг кейинчалик бекор қилинишига ва бу борадаги салбий кўрсаткичнинг ўтган йилнинг шу даврига нисбатан бирмунча ошишига сабаб бўлди. Хўжалик судлари томонидан ҳал этилган ишларнинг 1495 таси ёки 1,8 фоизи апелляция

6 Абдураимова Н. Договорная дисциплина и судебная практика // Правда Востока, 2001, 1 ноябрь.

7 Азизов Х. Хўжалик судлари: қонун устуворлигини таъминлаш йўллари // Нуқуқ ва бурч, 2007.– №1-2.– Б.32-34.

80'z MA, M-72-fond 1-ro'yxat, 532-ish. 147-varaq.

90'z MA, M-72-fond 1-ro'yxat, 512-ish. 2-varaq.



ция, 906 таси ёки 1,1 фоизи кассация инстанцияларида кўрилиб, шуларнинг 408 таси ёки 0,5 фоизи апелляция, 307 таси ёки 0,3 фоизи кассация инстанциялари қарорлари билан бекор қилинган. Апелляция инстанцияси суди томонидан 16 та ҳолатда биринчи инстанция судида қабул қилинган қонуний қарорларни асоссиз равишда бекор қилиш ёки ўзгартириш ҳолларига йўл қўйилган. Жумладан, Қашқадарё, Самарқанд ва Фарғона вилоят хўжалик судларининг 2 тадан апелляция инстанцияси судида ноқонуний равишда бекор қилинган биринчи инстанция судлари қарорлари кассация инстанцияси суди томонидан ўз кучида қолдирилиб, апелляция инстанцияси судининг хатолари тўғриланган. Кўйи инстанция судларида қабул қилинган қарорларнинг кассация инстанцияси ва судида бекор қилиниши республика бўйича 0,3 фоизни ташкил этган бир ҳолда, бу кўрсаткичлар Тошкент шаҳар хўжалик судида 0,9 фоизни (7851-72), Бухоро (5314-36) ва Сурхондарё (3220-23) вилоят хўжалик судларида 0,7 фоизни (1219-8), Қашқадарё вилоят хўжалик судида 0,6 фоизни (7756-47) ташкил этди. Тошкент шаҳар хўжалик судининг 31 та, Қашқадарё вилоят хўжалик судининг 22 та, Бухоро вилоят хўжалик судининг 17 та, Сурхондарё вилоят хўжалик судининг 15 та, жами 134 та и янгидан куриш учун юборилган 10.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, хўжалик судлари томонидан қабул қилинган қарорлар қонун устуворлигини таъминлаш ва тадбиркорлик муҳитини яхшилашда катта аҳамиятга эга. Шу боис, хўжалик судларининг институционал ривожланиши ва уларнинг самарадорлигини ошириш юзасидан изчил ислохотларни давом эттириш мақсадга мувофиқдир.

ФЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

- 1. O‘z MA, M-72-fond 1-ro‘yxat, 512-ish. 2-varaq.**
- 2. O‘z MA, M-72-fond 1-ro‘yxat, 532-ish. 147-varaq.**
3. Абдураимова Н. Договорная дисциплина и судебная практика // Правда Востока, 2001, 1 ноябрь.
4. Азизов Х. Хўжалик судлари: қонун устуворлигини таъминлаш йўллари // Нуқуқ ва бurch, 2007.—№1-2.— Б.32-34.
5. Комолов Д.П. Ўзбекистон суд тизими тарихи (1925 – 2020 йй.): Тарих фанлари бўйича фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси.— Қарши, 2022.—Б. 198-207.
6. Мустақиллик билан ҳамнафас. Ўзбекистон Республикаси судлари – 10 йил. – Тошкент, 2001.- Б.12-21.
7. Полвонзода А.А., Абдумажидов Ғ.А. Ўзбекистонда суд ҳокимияти: ислохотлар даври. – Тошкент.: Адолат, 2002. –Б.65-66.



BAG‘RIKENGLIK — ENG OLIY INSONIY QADRIYAT

**Yarash G‘AFFOROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada azaldan mavjud bo‘lgan millatlar aro munosabatda bag‘rikenglik, totuvlik o‘zbek xalqining o‘ziga xos tug‘ma fazilatlaridan biriga aylanganligi, bag‘rikenglik hozirgi davrda oliy insoniy qadriyat bo‘lgan erkinlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lganligini haqida ayrim fikr mulohazalar yuritib o‘tilgan. Shuningdek, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng respublikamizda mafkuraviy yot g‘oyalar chetlatilib, bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratilganining maqolada alohida qayd etishimiz zarur.

Kalit so‘zlar: birodarlik, mehmondo‘stlik, xalqaro bag‘rikenglik, Ahmad Yugnakiy, Az-Zamaxshariy, "Fozil odamlar shahri", "Temur tuzuklari"

KIRISH

Ko‘hna tarixga nazar tashlar ekanmiz, yurtimiz O‘zbekiston ming yillar davomida turli-tuman din, madaniyat va turmush tarziga ega bo‘lgan xalqlarning birgalikda yashash va hamkorligi markazi bo‘lib kelmoqda. O‘zbek xalqi o‘zining butun tarixi davomida, hamma vaqt boshqa xalqlar, millatlar va dinlar vakillariga nisbatan o‘zining xayrixohligini va hurmat bilan yondashuvini namoyon etib kelgan.

Madaniyatlar aro muloqot va bag‘rikenglik o‘zbek xalqning o‘ziga xos tug‘ma fazilatlaridan biriga aylangan. Mustaqillik milliy istiqlol g‘oyasi xalqlarining manfaati, ozod va Vatan, erkin va farovon hayot qurishdek ulkan maqsadlarni o‘zida mujassam etadi. Bunday ezgu maqsadlarga erishish yurt tinch va osoyishta bo‘lishi lozim. Millatlar aro totuvlik, bag‘rikenglik esa ana shu barqarorlikning muhim shartlaridir. Shu bois mustaqillikning ilk yillaridan yurtimizda millatlararo munosabatlarda bag‘rikenglik, ahillik tinchlik va totuvlikni yanada mustahkamlashga katta ahamiyat qaratib kelinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Biz istiqlolimizning ilk kunlaridanoq eski, qotib qolgan mafkuraviy aqidalardan voz kechishga, ma‘naviy yangilanishga, odamlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillarini sindirishga qaratilgan aniq siyosat olib bordik.

Bu esa, o‘z navbatida, yurtdoshlarimizning tafakkurini o‘zlashtirishga, islohotlarni joriy etishda yangicha yondashuvlarni shakllantirish jamiyatda diniy bag‘rikenglik, millatlar aro totuvlik va konfessiyalar o‘rtasida murosas muhitini mustahkamlashda sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi"[1] -degan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning to‘qqizinchi sessiyasida.

Dunyoda shunday bir kitob borki, u hech qachon o‘qib tugatilmaydi, shunday bir musiqa asari borki, uni oxiratgacha ijro etib bo‘lmaydi. Bu xalq, millat hayoti, taqdiri, urf odatlaridir. O‘zbek xalqi xususida qayerda, qachon gap ketmasin, uning mehnatkashligi, bolajonligi, mehmondo‘stligi, saxiyligi va insonparvarligi tilga olinadi.



Qadim qadimdan qon qarindosh bo‘lib kelgan, tarixiy ildizlari totuvlik, birodarlik, mehmondo‘stlik bilan yo‘g‘rilgan xalqimiz azaldan turli millat vakillari vakillari bilan doimo inoqlikda yashab, ularning madaniyatiga hurmat va bag‘rikenglik bilan munosabatlarda bo‘lib kelgan.

Bag‘rikeng bo‘lmoq — aslida boshqalarning g‘oyalari, turmush tarzi, faoliyati mavjudligini qabul qila olishdir. Bu barcha turfa xil ekanligiga ko‘nikish va o‘zidan farq qiluvchilarni hurmat qilishdir. Lekin, afsuski, hali yer yuzining ko‘p joylarida murosasizlik hukmron. Shuning uchun ham 1995-yil BMT tomonidan Xalqaro Bag‘rikenglik yili deb e‘lon qilindi.

Bag‘rikenglik hozirgi davrda oliy insoniy qadriyat bo‘lgan erkinlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, u ijodiy o‘zaro ta’sirlashuv va umuman ijod tizimining ham muhim emasligidir. Bu esa, o‘z navbatida, bag‘rikenglik tamoyillarining barcha sotsial munosabatlarda ijodiy qo‘llanishi zarurligini anglatadi.

Tarixiy jamiyatda keskin ijtimoiy tabaqalanish, qashshoqlik darajasini ko‘payishi, nochorlar, yordamga muhtoj kishilar soni o‘sib borishi, sotsial adolat normalarining buzilishi xilma-xil ko‘rinishdagi toqatsizlik va murosasizlik qarashlari hamda xarakterining paydo bo‘lishiga yo‘l ko‘rsatadi.

Mavjud munosabatlarning mazmuniga ijtimoiy falsafiy fikr rivoji tarixida ham alohida e‘tibor berilgan. Xususan, Qadimgi Misr, Hind, Xitoy manbalari, buyuk mutafakkirlari qarashlarida egaligi ko‘rsatilganini qayd etish lozim

Ammo afsuski, insoniyat tafakkuri rivojida ulkan iz qoldirgan ba’zi buyuk mutafakkirlar o‘zlari, mansub bo‘lgan guruh, qatlam manfaatlaridan o‘zlari kelib chiqib, antagonistik ijtimoiy munosabatlari oqlaganliklari, sotsial adolatsizlik ko‘rinishlarini tabiiy holat sifatida qayd qilinganligini ham ko‘rish mumkin. Aristotelning "Qulchilik qanday tabiiy bo‘lsa, oila ham shunday tabiiydir", — deb hisoblagani fikrimiz isboti bo‘la oladi.

TADQIQOTLARNING USULLARI

Bugungi kunga kelib esa, insoniyat o‘zi to‘plagan ko‘p asrlik achchiq tajribaga tayanib, sotsial toqatsizlik holatlarining oldini olishga qaratilgan mustahkam siyosiy-huquqiy asoslarini yaratdi. Xususan, xalqaro jurnallarda:

- Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib turishi;
- xar bir inson ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat’iy nazar, teng huquq va erkinliklar sohibi ekani;

- hech kim qullikda yoki qaramlikda saqlanishi mumkin emasligi, qullik va qul savdosining barcha turlari taqiqlanishi;

hech kim insonlikka isnod bo‘lgan yoki qadr qimmatni xo‘rlaydigan muammolarga duchor etilmasligi va barcha odamlar bir-birlariga birodarlarcha munosabatda bo‘lishlari zarurligi haqidagi qoidalarning mustahkamlab qo‘yilganini ta’kidlash zarur [2].

Har qanday mamlakatda ijtimoiy hayotning mazmunini iqtisod va uning o‘zagini tashkil etadigan mulkchilik munosabatlari bilan bog‘liqdir. Mamlakatni muvaffaqiyatli idora qilishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan qadimgi Xitoy



faylasufi Men Szi fuqarolarini doimiy mulk bilan ta'minlashni ana shu qoidalar sirasiga qayd qilingan edi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, insoniyat sotsial adolatsizlik va uning oqibati sifatida chiqadigan ijtimoiy toqatsizlikning iqtisodiy asoslarini bartaraf etish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" hamda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt" kabi xalqaro hujjatlarda har bir insonning:

- Mehnat qilish, ishni o'z erki bilan tanlab olish;
- Biror –bir kamsitishlarsiz teng mehnatga teng haq olish;
- Zarur bo'lgan hollarda ijtimoiy ta'minotning boshqa vositalari bilan to'ldiriladigan, o'zi va oilasi uchun munosib yashashni ta'minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olish
- Ishsizlikdan muhofaza etilish huquqiga egaligi va davlatlar ana shu huquqni zarur darajada ta'minlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rishi zarurligi belgilab qo'yilganini qayd etish lozim [3].

Shunday ekan, jamiyatda bag'rikenglik va murosa madaniyatini tarbiyalash, aholining yordamga muhtoj, nochor qatlamlarini hartomonlama muhofaza qilishga alohida e'tibor berish, ularga mehr muruvvatli bo'lish, o'zgaruvchan vaziyatga ko'nikishlari va kasbiy moslashuvlariga ko'maklashishiga qaratilgan ishlarni tizimli va tadrijiy tashkil etish bugungi kun va yaqin istiqbolning asosiy va eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Tarix yurtimizda hamisha ijtimoiy hamkorlik ruhi va bag'rikenglikni targ'ib etuvchi qadriyatlar ustuvor bo'lib kelganidan dalolat beradi. Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal birligini yoqlagan, targ'ib qilgan "Avesto"da tinchlik va totuvlik, ijtimoiy hamkorlik va hamjihatlik ruhi ustuvor bo'lgan ellar Tangri tomonidan yarlaqalanadi hamda o'lkalar muqarrar gullab — yashnaydi, deb tavsiflangani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Nochor va yordamga muhtoj kishilarni qo'llab-quvvatlash, ularga ko'mak berish, saxiylik ulug' insoniy fazilat sifatida e'tirof etilganida uning sohiblariga esa yuksak izzat ikrom ko'rsatilganida ham shunday qadriyatlarni ko'rish mumkin. Xalqimizning asrlar osha shakllangan tajribasini o'zida mujassam etgan "Saxiyning qo'li ochiq, qo'li ochiqning yo'li ochiq", "O'ng qo'ling bersin, chap qo'ling bilmasin" mazmunidagi maqolalar, az-Zamaxshariy: "Hayru ezgulikdan boshqa insonga ko'rkamlik beradigan hech narsa yo'qdir" [4], Ahmad Yugnakiyning: "Sharaf, martaba va kamolotni orttiradi" [5],-degan so'zlari ham fikrimiz isboti bo'la oladi.

Shu bilan birga, yurtimizda azaldan boylik tufayli kibr-u havoga berilish hamda yomonlik va yovuzlikning har qanday ko'rinishi qat'iy qoralanib kelingan. Xalqimizning purma'no hikmatlarini o'zida mujassam etgan "Devonu lug'atit turk"da; "Molu mulking ko'paysa, mag'rurlanib quturma" [6], "Hibbat ul haqoyiq"da esa: "Zinhor zo'ravonlik va zulm qilma, agar kishi qiyinchilikka tushsa, sen unga ko'mak ber"[7],- deb ta'kidlangani bunday qadriyatlarning ildizlari uzoq, moziyga borib taqalishidan dalolat beradi.



Abu Nasr Farobiy o‘zining "Fozil odamlar shahri" asarida o‘zaro totuvlik va hamjamiyatlik ruhi ustuvorligini fozil shaharlarning muhim belgisi hamda ularning gullab-yashnashi, farovonlik va baxt-saodati tantanasining zamini, o‘zaro ko‘mak, mehr-muruvvatning yo‘qligi johil shaharning asosiy xususiyati hamda fitna, fisq-u faruj hukmronligining sababi sifatida qayd etadi. “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga birlashganliklari tufayli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim” [8] – degan fikrlar ham buyuk faylasufning ijtimoiy hamkorlikni jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omillardan biri, deb hisoblanganini anglash imkonini beradi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tarix shuni ko‘rsatadiki, Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzgan ulkan va qudratli mamlakat xalqlari, ellar va elatlar uchun huquqiy kafolatlar berilgan siyosiy va ijtimoiy makon vazifasi o‘tadi. Sohibqiron qanday siyosiy maqsadni ko‘zlagandan qat’iy nazar, o‘z saltanati dushmanlariga bag‘rikenglik namunalarini namoyon qilgan edi.

Sohibqironning bu boradagi ishlari "Temur tuzuklari" da quyidagi jumalarda o‘z ifodasini topgan; "Turon mamlakatini fath etgan kunim va poytaxt Samarqand taxtiga o‘tirganimdan so‘ng do‘st dushman bilan (muomala)da bir tekis yo‘l tutdim. Menga yomonlik qilgan, xiyla makr ishlatib, jang maydonida menga qilich yalang‘ochlagan Badaxshon amirlari, turk tojik qo‘shinlarining ba’zi amirlari qilgan ishlaridan qo‘rquvda edilar. Chorasiz qolib, iltijo bilan mening panohimda kelganlarida ularga shunday yaxshiliklar qilganmanki, mening inoyatim va xayr- ehsonimni ko‘rib, o‘zlari sharmanda bo‘ldilar"[9].

Bundan tashqari, Sohibqironning turli mamlakatlardan saltanat poytaxti olim-u fuzalolar olib kelinib, ehtirom ko‘rsatgani, ularga munosib sharoit hozirlab bergani ham uning bag‘rikenglik saltanatning namunasi edi.

Bag‘rikenglik ijtimoiy-siyosiy ildizlari quyidagilardan iborat:

- xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari;
- demokratiya, oshkoralik, plyuralizm;
- tarixiy, diniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar;
- mamlakatning barqaror ichki va tashqi siyosati;
- ijtimoiy kafolatlangan bozor iqtisodiyoti
- diniy bag‘rikenglik va millatlararo munosabatlar;

Siyosiy bag‘rikenglik siyosiy plyuralizmga asoslanadi. Jamiyat hayoti, uning demokratik hayotiga, inson huquqlarining himoya qilishida, siyosiy subyektlari orasidagi munosabatning barqaror olib borishda siyosiy plyuralizmning ahamiyati kattadir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida: "O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas" [10],- deb e’tirof etgan mazkur qoida umumbashariy tamoyillarning yorqin ko‘rinishi barobarida jamiyatning tabiiy-tadrijiy taraqqiyoti uchun zamin yaratmoqda.



Hozirgi kunda mamlakatimizda turli xil siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik, ilmiy va diniy yoʻnalishdagi nodavlat va jamoat tashkilotlari, harakatlar roʻyxatga olinib, ularning erkin faoliyatlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Ayni paytda, ular ilgari surilayotgan gʻoyalarni umum demokratik xususiyatga egaligi va turli ijtimoiy guruhlar manfaatini ifoda etishi ham nihoyatda muhimdir.

MUHOKAMA NATIJALARI

Xullas, bagʻrikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr toqatli munosabatda boʻlishini, oʻz iymon-eʼtiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning eʼtiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har har kim oʻz eʼtiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmogʻi lozim. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan sindirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, bagʻrikenglik taʼliming maqsadi, vazifalari va asosiy yoʻnalishlari, tinchlik inson huquqlari va demokratiya taʼlimi boʻyicha YUNESKO tomonidan qabul qilingan Harakat dasturida ham oʻzining aksini topgan. Ushbu toifalarning barchasi asosiy qadriyatlarga mos tushadi. Dunyo fuqarosini shakllantirishning ilk maqsadi va bunday fuqarolik uchun zarur boʻlgan bilim va malaka ana shu asosiy qadriyatlarni amalda namoyish qilishiga olib keladi. Kelajakda turli xalqaro institutlar va murakkab tizimlar yigʻindisidan tashkil topadigan umumbashariy hamjamiyat fuqarolarning faolligiga oʻta muhtoj boʻladi. Milliy davlatlarni bunyod etish jarayonini oʻz ichiga olgan oʻtgan ikki asr mobaynidagi taʼlim tizimining bosh maqsadida ana shu milliy davlatlar fuqarolarini shakllantirishdan iborat edi. Bugungi kunda esa umumbashariy jamiyatning poydevorini yaratish uchun har bir mamlakat oʻz fuqarolarida ana shu umumbashariy jamiyatni qurishda bevosita ishtirok etish tuygʻusini uygʻotishi lozim. Boshqacha aytganda, ularni umumbashariy jamiyat etib tarbiyalamoq lozim.

Shunday qilib, yurtimizda bagʻrikenglik muhiti oʻzining chuqur tarixiy ildizlariga tayangan holda rivojlanib bormoqda, deyish mumkin. Buning uchun, eng avvalo, respublikamizda mustahkam huquqiy zamin yaratilganining alohida qayd etish zarur. Konstitutsiyamizda Oʻzbekiston Respublikasi oʻz hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari hurmat qilishini taʼminladi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi [11], degan qoidaning mustahkamlab qoʻyilgani fikrimizning isboti boʻla oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Karimov I.A. "Oʻzbekistonda demokratik oʻzgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlari". -T.: 2002 "Oʻzbekiston",- B.10
2. Inon huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi // Inson huquqlari toʻgʻrisida xalqaro bill. -T.:"Adolat", 1992,-B.11
3. Inson huquqlari toʻgʻrisida xalqaro bill. -T.:"Adolat", 1992. -B. 20-21
4. Abdulqosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. -T.:"Kamalak" 1992. -B.75



5. Ahmad Yugnakiy. Hibbatul-haqoyiq // Qadimiy hikmatlar. -T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1987. – 421 b.
6. Devoni lugʻati turk // Qadimiy hikmatlar. -T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1987. -B. 73
7. Ahmad Yugnakiy // Qadimiy hikmatlar. -T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1987. -B. 424.
8. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.-B.18673 the
9. Temur tuzuklari// Qadimiy hikmatlar. -T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1987. -B. 89
10. Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. -T.: "Oʻzbekiston", 2016. B.5
11. Ўша асар



**SHAROF RASHIDOVNING O‘ZBEKISTON SSR OLIY
SOVETI PREZIDIUMI RAISI SIFATIDAGI FAOLIYATI
(1950-1959-YILLAR)**

**Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRning davlat boshqaruv organi – Oliy Sovetning o‘tgan asr 50-yillaridagi faoliyati tadqiq etiladi. Muallif tomonidan 1950-1959-yillarda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi sifatida faoliyat yuritgan Sharof Rashidovning ijtimoiy siyosiy faoliyati tahlil qilingan. O‘rganilayotgan davrda “Markaz – respublika” munosabatlaridagi ziddiyatlar, davlat boshqaruvi sohasidagi o‘zgarishlarga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv organi, Oliy Sovet, Kompartiya, Ministrlar Soveti, Prezidium, kollegial, prezident, Sovetlar, sessiya, ijroiya qo‘mitalari, fuqaro murojaatlari.

Деятельность Шарофа Рашидова на посту Председателя Президиума Верховного Совета (1950-1959)

Аннотация. В данной статье исследуется деятельность Верховного Совета Узбекской ССР в 1950-е годы. Автор предоставляет информацию об истории формирования Верховного Совета, его правовой основе, его Президиуме. Также анализируется общественно-политическая деятельность Шарофа Рашидовича Рашидова, занимавшего пост Председателя Президиума Верховного Совета Узбекской ССР с 1950 по 1959 год. В исследуемый период внимание было уделено на противоречия в отношениях «Центр-Республика», а также изменениям в государственном управлении.

Ключевые слова: руководящий орган, Верховный Совет, Коммунистическая партия, Совет Министров, Президиум, коллегия, президент, Советы, сессия, исполкомы, обращения граждан.

Activities of Sharof Rashidov as Chairman of the Presidium of the Supreme Council (1950-1959)

Abstract. This article examines the activities of the Supreme Soviet of the Uzbek SSR in the 1950s. The author provides information on the history of the formation of the Supreme Council, its legal basis, and its Presidium. It also analyzes the social and political activities of Sharof Rashidovich Rashidov, who served as Chairman of the Presidium of the Supreme Soviet of the Uzbek SSR from 1950 to 1959. During the study period, attention was paid to the contradictions in the relations “Center-Republic”, as well as changes in public administration.



Keywords: governing body, Supreme Council, Communist Party, Council of Ministers, Presidium, Board, President, Councils, session, executive committees, citizens' appeals.

Har qanday jamiyat yoki mamlakatning taraqqiyotida davlat boshqaruv organlari va ularning samarali ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sabab, davlat hokimiyatining boshqaruv tizimidagi o'rni, mavqeiga qarab o'sha jamiyat tuzumiga baho berish mumkin. Sovet hokimiyati yillarida ham "barcha hokimiyat sovetlarga" shiori ostida hamda hokimiyatning demokratiyaga asoslangan bo'linish tamoyillariga "intilgan" holda avvaliga Sovetlarning Butunittifoq syezdi keyinchalik Oliy Sovet faoliyati yo'lga qo'yilgan edi.

Qayd etish lozimki, Sovet Ittifoqida yuqori boshqaruv organlarini tashkil etishda "demokratik tamoyillarga" amal qilinishi Oliy Sovetdan mustaqil tarzda faoliyat yuritadigan boshqa bir institutning bo'lishini nazarda tutmas edi. Shu sababli doimiy faoliyat yuritadigan, Oliy Sovetga hisobdor bo'lgan boshqaruv organiga ehtiyoj sezilgan. Natijada, ittifoqning oliy boshqaruv organi – Prezidium tashkil etilgan. Barcha respublikalarda ham ittifoq andozasidagi boshqaruv tizimi o'rnatilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyalari oralig'ida doimiy faoliyat yurituvchi yuqori davlat organi bo'lgan. Prezidium kollegial xarakterga ega bo'lib, rais, uning ikki nafar o'rinbosari, kotib va o'n uch nafar a'zosi tarkibida O'zbekiston SSR Oliy Soveti deputatlari orasidan saylangan holda shakllantirilgan.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi faoliyati O'zbekiston SSR Oliy Soveti faoliyati bilan uzviy bog'langan. O'zbekiston SSR Oliy Soveti vakolatiga kiradigan ayrim vazifalar sessiyalar oralig'ida Prezidium tomonidan amalga oshiriladi. Lekin Prezidiumning barcha harakatlari O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lgan.

Prezidium raisining vakolatlari O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida aks ettirilmagan bo'lsa-da, davlat boshqaruvida uning mavqei ancha yuqori bo'lgan. O'zbekiston SSR boshqaruv tarixiga nazar tashlansa, respublikaning ko'plab birinchi siyosiy rahbarlari: A.Niyozov (1947-1950-yillar), Sh. Rashidov (1950-1959- yillar), I.Usmonxo'jayev (1978-1983-yillar), R.Nishonovlar (1986-1988-yillar) o'z vaqtida Oliy Sovet Prezidiumi raisi sifatida faoliyat yuritganini ko'rish mumkin.

Bu davrdagi ayrim tadqiqotlarda Oliy Soveti Prezidiumi raisi atamasi bilan parallel tarzda prezident nomi ham ishlatilgan. Rossiyalik olim G.Petrov Prezidium raisining vakolatlarini prezidentlik bilan tenglashtirgan [1, C.5-6]. O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi raisi Amin Ermatovich Niyozovning 1950-yilda Ittifoq Soveti deputatligiga nomzodini qo'yilganda, uning nomi oldidan prezident so'zi



ham ishlatilgan: “Respublikamizning prezidenti o‘rtoq Niyozov omma bilan mahkam aloqada bo‘lib, mehnatkashlarning talablariga katta e‘tibor beradi”[2]. Sh.Rashidovning 1950-yilda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimiga kelishini etnik o‘zbek bo‘lgan rossiyalik tarixchi F.Razzoqov ham prezidentlik [3, C.48] deb e‘tirof etadi. Saidakbar Rizayev esa Sh.Rashidovning eng yosh (33 yoshda) prezident bo‘lganiga e‘tibor qaratadi[4, C.16].

Oliy Sovet Prezidiumi O‘zbekiston Ministrlar Soveti raisi taklifiga binoan vazirlarni vazifasidan ozod etish va yangilarini tayinlash vakolatiga ega bo‘lgan, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyalarini yilida 2 marta chaqirgan. “Prezidiumning vakolatlari davlat qurilishi masalalarida ayniqsa keng bo‘lgan. U markaziy davlat organlarining xalq xo‘jaligi, ijtimoiy-madaniy qurilish sohalaridagi rahbarligi yuzasidan kompetentsiyalarini belgilagan, vazirlik va idoralarni tashkil qilgan”[5, -C.207].

Oliy Soveti Prezidiumi raisligiga nomzod asosan respublikaning birinchi siyosiy rahbari tomonidan tavsiya qilingan. Qonun chiqaruvchi idora rahbarining nomzodi kommunistik partiya tomonidan ko‘rsatilishidan siyosiy manfaatlar ko‘zlangan edi. Chunki, Oliy Sovetga rahbarlik qiluvchi shaxs keyinchalik to‘liq partiyaning maqsadlari doirasida harakat qilgan. 1950-yil aprelda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining plenumida so‘zga chiqqan U.Yusupov Sh.Rashidovni O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining byuro a‘zosi etib saylashni taklif qildi va uning nomzodini O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisligiga ko‘rsatdi[6, B.58].

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1950-yil 24-apreldagi majlisida “O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi to‘g‘risida” Qaror muhokama qilindi hamda A.Niyozovning boshqa ishga o‘tganligi munosabati bilan Sh.Rashidovga O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi vazifasi topshirildi [7, 32-барақ]. Sharof Rashidovning Oliy Sovet Prezidiumi raisi sifatidagi 9 yillik faoliyati keyinchalik uning O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi bo‘lishi uchun “tramplin” vazifasini bajardi [8, P.84.]. Professor Donald Karlisl Sharof Rashidovning

Oliy Sovet Prezidiumi raisi lavozimini egallashiga quyidagicha munosabat bildirgan edi: “Garchi bu lavozimning nufuzi unchalik yuqori bo‘lmasada, bu Sh.Rashidovning xizmat pillapoyalaridan ko‘tarilishini anglatar edi”[9, P.106].

Sh.Rashidov yangi lavozimga kirishar ekan, o‘z ishini mahalliy sovetlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilishdan boshlaydi. Uning Prezidium raisi sifatidagi birinchi majlisi 1950-yil 16-mayda o‘tkazilib, mazkur masalaga bag‘ishlangan edi [10, 41-v]. O‘zbekiston mahalliy kengashlarida o‘tkaziladigan sessiyalarning saviyasi pastligi, ularning malakali kadrlar bilan ta‘minlanmaganligi Oliy Sovet ishidagi asosiy kamchiliklardan edi. Butunittifoq miqyosida Moskvada chop etiladigan



“Izvestiya” gazetasining 1950-yil 26-apreldagi sonida O‘zbekiston SSRdagi mahalliy Sovetlar faoliyati tanqid qilingan: “O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1949-yilda qabul qilingan 2 453 ta qaroridan faqatgina to‘rttasi mahalliy kengashlarning tashkiliy masalalariga taalluqli. Shunday bo‘lsada, tashkiliy masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar ijrosi va nazoratiga yetarli e‘tibor qaratilmagan.

Sh. Rashidov raisligida o‘tgan mazkur birinchi yig‘ilishda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi, O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti rahbariyatining faoliyati tahlil qilingan va qator kamchiliklarga e‘tibor qaratilgan. Jumladan, 1949-yilda viloyat kengashlarining tashkil etilishi shart bo‘lgan 36 ta sessiyasi o‘rniga 21 ta sessiya chaqirilgani, tuman kengashlarining 789 ta sessiyasi o‘rniga 379 ta, shahar kengashlarining 324 ta sessiyasi o‘rniga 112 ta sessiya chaqirilgani tanqid ostiga olingan [11, 41-v].

1955-yilgacha respublikadagi 1680 ta mahalliy Sovetlardan 1 100 tasi Konstitutsiyada belgilangan sessiya chaqirish muddatlarini buzgan. 1956-yilga kelib esa ushbu holat ijobiy tomoniga o‘zgargan, ya’ni, bunday sovetlar atiga 80 tani tashkil qilgan [12, 247-v].

Sharof Rashidov Prezidium raisi sifatida ish boshlagan dastlabki kunlardan oq respublikada yig‘ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga kirishdi. O‘zbekiston SSR fuqarolarining turli masalalar yuzasidan murojaatlari bilan ishlash jarayonida, uning yetuk rahbar, tashkilotchi sifatidagi iqtidori shakllana boradi. 1950-yil 14-noyabrda Samarqand viloyati G‘allaorol tuman o‘qituvchilari va xalq maorif bo‘limining xodimlari Sh.Rashidovga jamoaviy murojaat yo‘llashgan.

Xatda qayd etilishicha, tumandagi 30 dan ortiq maktablarda 1 ta partada 5-6 o‘quvchi o‘tirishi, ko‘pchilik maktablarda 280 bolaga atigi 10-15 ta parta borligini ta’kidlanadi. Rayon maktablariga 500 dona parta ajratilishi so‘raladi [13, 154-v].

Keyinchalik Sharof Rashidov O‘zbekiston SSR Maorif vazirligi rahbariyati bilan mazkur masala yuzasidan maslahatlashib, Astraxan va Tyumendan 500 dona parta olib kelinishini ta’minlaydi [13, 152-v].

Yuqoridagi holat sovet boshqaruv tizimiga xos jiddiy kamchiliklarni ko‘rsatadi. Birinchidan, 1950-yillar boshida O‘zbekistonda parta ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmagan yoki ishlab chiqarilsa-da, bu respublika ehtiyojlarini qanoatlantirmagan. O‘zbekiston ko‘pgina jabhalarda bo‘lgani singari, oddiy o‘quv jihozlari bilan ta’minlanishda ham boshqa respublikalarga yoki Markazga qaram bo‘lgan. Ikkinchi tomondan, boshqaruvda shunday ziddiyatli vaziyat yuzaga keltirilganki, respublika uchun zarur bo‘lgan “arzimas” ehtiyojlarga respublika rahbarining shaxsan aralashuvi, iltimosi zarur bo‘lgan. Sharof Rashidov unga yo‘llanadigan ko‘plab murojaatlarni imkon darajasida hal qilishga harakat qilgan. Xalqni tashvishga solayotgan ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ijobiy yechim topishida astoydil mehnat qilgan. “Minglab insonlar Oliy Sovet Prezidiumi



raisiga murojaat qilishgan, uzoq kutilgan yordamni olish yoki olmasliklari faqatgina unga (Sharof Rashidov) va uning apparatiga bog'liq edi.

Garchi insonlarning taqdirini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lmasa-da, Sharof Rashidovning qabulidan ko'plar mamnun holda qaytishgan" [5, C.16].

Barcha jabhalar singari moliyaviy masalalarda ham markazga qaramlik natijasida, respublika o'zining ichki iqtisodiy resurslari, mablag'laridan erkin foydalana olmagan. Masalan, 1954-yil 14-martda Samarqanddagi shahar qo'riqxonasi ishchilari tomonidan jamoaviy murojaat yo'llanadi (41 kishi imzolagan). Ular o'z murojaatida 70 gektar yerga qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda hali hanuz omochdan foydalanib kelishayotganini yozishgan. Shu sabab, 1 dona traktor ajratilishini so'rashgan [14, 10-v]. Shundan so'ng, Sh.Rashidovning topshirig'iga ko'ra 1954-yil, 24-martda Davlat reja komissiyasiga xat yozilib, 1 dona traktor ajratish masalasi buyuriladi. Biroq, Davlat reja komissiyasining 1954-yil 8-apreldagi xatida 1954-yil uchun vazirlik va tashkilotlarga traktorlar ajratib bo'lingani, Samarqand ishchilari uchun traktor ajratish imkoniyati yo'qligi ma'lum qilinadi [14, 8-v].

Sh.Rashidovning 1950-yildan 1959-yilgacha O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi sifatidagi faoliyati davomida Prezidiumning ish uslubi o'zgarib, respublika boshqaruv tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'la boshladi. U Prezidiumning fuqarolar murojaatlari bilan ishlash borasidagi faoliyatini tubdan yaxshilashga harakat qildi. Rahbar sifatida byurokratiya, sansalorlik kabi salbiy illatlarni tugatish va Prezidium tarkibidagi xodimlardan ham mazkur ish uslubiga qat'iy rioya qilishni talab qilgan.

Shu tariqa, O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumining faoliyati ancha jonlanib, uning ish tartibi sifat jihatdan yaxshilanib borgan. Alohida ta'kidlash mumkinki, Sharof Rashidov Prezidium faoliyatiga oid kamchiliklar, uning ishidagi nuqsonlar yuzasidan bo'ladigan tanqidlarni to'g'ri qabul qilib, ularni tuzatishga harakat qilgan. Bu borada 1955-yil 6-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Mehnatkashlar deputatlari mahalliy Sovetlari ijroiya qo'mitalari rahbar xodimlarining respublika kengashini misol qilib olishimiz mumkin. Mazkur respublika yig'ilishida ijroiya qo'mitalari rahbarlari tomonidan Prezidium faoliyatiga oid kamchiliklarni aytishlari uchun imkoniyat yaratilgan. Kengash qatnashchilari O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi, respublika Ministrlar Soveti va ayrim ministrlar mahalliy Sovetlarning va ijroiya komitetlarining amaliy ishida yetarli yordam bermayotgani, ularning ijobiy ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va keng yoyish masalalari bilan shug'ullanmayotgani hamda joylarda ko'tarib chiqilgan masalalarni ba'zan tezkor hal qilmayotganini tanqid qilingan [15, 192-v].

Mazkur respublika yig'ilishida ko'tarilgan Oliy Sovet Prezidiumi faoliyatiga oid kamchiliklarni ko'p o'tmay bartaraf etishga kirishildi. Sh. Rashidov raisligida o'tgan 1956-yil 23-apreldagi O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining



majlisida kun tartibiga “O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi va uning apparati ishlarini yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida”gi masala kiritilgan. Unda Prezidium apparatining ishlarini yaxshilash choralari belgilandi [16, 97-v].

Mazkur ish uslubi, Prezidium faoliyatidagi ijobiy o‘zgarishlar albatta Sh.Rashidov shaxsiyati bilan bevosita bog‘liq edi. Respublika Oliy Sovet Prezidiumi raisi sifatida ishlagan inson katta bosim ostida, to‘liq imkoniyatini ishga solib, tinim bilmay ishlashi, kerak bo‘lsa bor kuchi va asablarini shunga sarflashi lozim edi. “... Sh.Rashidov shunga harakat qildi va tez orada ma‘lum bo‘ldiki, bu – shaxsiy sifatlar, g‘oyalardagi, ish uslubidagi o‘ziga xoslik, insonlar bilan amaldorlarga xos emas balki, hurmat bilan muoamala qilishda ko‘rindi” [5, C.15-16].

Xullas, O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining XX asr 1950-yillaridagi faoliyati dinamik o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Mazkur davrda O‘zbekiston Oliy Sovet Prezidiumining ishida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilib, davlat boshqaruvida u o‘ziga xos mavqega ega bo‘la boshladi. Bu jarayon Prezidium raisi Sharof Rashidovning rahbarlik, tashkilotchilik, yetakchilik hamda diplomatik faoliyati, uning o‘zgacha ish uslubi bilan bog‘liq edi. Bu ish uslubida insonparvarlik, adolat, mehnatkashlik, samimiylik va boshqa qator shaxsiy sifatlar mujassam edi. Boshqa tomondan, Sharof Rashidovning Oliy Sovet Prezidiumi raisi sifatidagi 9 yillik faoliyati uni yetuk siyosat va davlat arbobi sifatida shakllanishida, respublikaning eng dolzarb muammolaridan xabardor bo‘lishida, Markaz siyosiy doiralarida tanilishiga sabab bo‘ldi. Keyinchalik mazkur omil, uning birinchi siyosiy rahbar (O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi) sifatida uzoq yillar xizmat qilishida, xalqning haqli ravishda hurmat va e‘tiboriga tushishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Adabiyotlar

1. Петров Г. И. Советское административное право. – Ленинград: Изд-во Ленингр. Ун-та, 1960.
2. “Qizil O‘zbekiston”, 1950 yil 1 mart. № 49.
3. Раззаков Ф. Коррупция в Политбюро. Дело «красного узбека». – Москва: “Алгоритм”, 2009.
4. Ризаев С. Шараф Рашидов. Штрихи к портрету. – Тошкент: Ёзувчи – Нур, 1992.
5. Коржихина Т.П. Советское государство и его учреждения: ноябрь 1917 г. – декабрь 1991 г. – Москва: “РГГУ”, 1994..
6. Эргашев Ш. Эрк истар кўнгил. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2017.
7. Ўзбекистон миллий архиви, 2454-фонд, 1-рўйхат, 2348-иш.
8. Nicklas Norling. Party Problems and Factionalism in Soviet Uzbekistan: Evidence from the Communist Party Archives. Central Asia-Caucasus Institute and Silk Road Studies Program, 2017.
9. Donald S. Carlisle. The Uzbek power elite: Politburo and secretariat (1938–83) // Central Asian Survey, 1986. №. 5:3-4.



10. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 2348-ish.
11. O‘zbekiston Prezidenti administratsiyasi arxivi, 58-fond, 329-ro‘yxat, -ish.
12. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 2359-ish.
13. O‘zbekiston milliy arxivi, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 5014-ish.
14. Sh.A.Sulaymonova, “Sharof Rashidovning siyosiy zakosi va rahbarlik faoliyati”. “Academic Research In educational sciences”. Volume 2 Issue 2 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021:5. 723
15. Sh.A.Sulaymonova. Sharof Rashidov“s honorable services to the uzbek people. International Journals on Integred Education Volume 1 | Issue 6| june 2021, pp. 126-129
16. Sulaymonova Shohsanam. A Man Who Faily Served the Homeland. WEB OF SYNERGY:
International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 2, Year 2023
ISSN: 2835-3013.<https://univerpubl.com/index.php/synergy>



**JADIDCHILIK HARAKATI VA TURKISTON-USMONLI DAVLATI
ALOQALARI
ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ И ОТНОШЕНИЯ ТУРКЕСТАНА И
ОСМАНИИ
THE JADID MOVEMENT AND TURKESTAN-OTTOMAN STATE
RELATIONS**

Manzura MO'MINOVA,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
mominova23.01.1993@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, ularning maqsadlari hamda faoliyatlari, shuningdek Turkiston jadidlarining Usmonli davlati, xususan yosh turklar bilan oʻrnatgan aloqalari, ikki hududdagi taraqqiyparvarlik harakatlarining oʻxshash hamda farqli jihatlari tarixiy manbalarga tayangan holda tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: Turkiston, Usmonli davlati, yosh turklar, ijtimoiy, maʼrifiy, siyosiy islohotlar, dunyoviy ilm, taraqqiyparvarlar, usuli jadid.

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников анализируются возникновение джадидского движения в Туркестане, его цели и деятельность, а также связи, установленные туркестанскими джадидами с Османским государством, в частности с младотурками, сходства и различия прогрессивных движений в обоих регионах.

Ключевые слова: Туркестан, Османское государство, младотурки, социальные, просветительские, политические реформы, светские науки, прогрессисты, джадидский метод.

Annotation: This article analyzes, based on historical sources, the emergence of the Jadid movement in Turkestan, their goals and activities, as well as the relations established by the Turkestan Jadids with the Ottoman state, in particular with the Young Turks, and the similarities and differences between the progressive movements in the two regions.

Keywords: Turkestan, Ottoman state, Young turks, social, educational, political reforms, secular knowledge, progressives, jadid method.

KIRISH (INTRODUCTION): XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, maʼrifiy harakatlar vujudga keldi va ushbu ijtimoiy, siyosiy hamda maʼrifiy harakat jadidchilik harakati nomini oldi. Jadidchilik harakati dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga kelib, XIX asrning 90-yillaridan Oʻrta Osiyoda ham tarqaladi. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashishgan, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni oʻrganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga



chaqirishgan. “Yaqin tariximizdagi ijtimoiy va madaniy harakatlar orasida jadidchilik kabi muhim rol o‘ynagan, shu bilan birga uning kabi turli xil talqin qilingan va baholangan ikkinchi hodisani topish qiyin”[1] deya tadqiqotchi olimlar tomonidan ushbu harakatga ta’rif berilib, jadidchilik harakatining Markaziy Osiyo respublikalarida o‘chmas izlari borligini ta’kidlab o‘tadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW): Jadidchilik harakati xususida bugungi kunga qadar ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ushbu, ijtimoiy-siyosiy hamda ma’rifiy harakat bugungi kunda ham tadqiqotchi olimlarni diqqat markazida turgan mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Va biz hozirgi o‘rinda maqolamizda aynan Turkiston jadidlarining, Usmonli davlati hamda yosh turklar bilan aloqalari mavzusi haqida fikr yuritayotganligimiz sababli, asosan ushbu mavzuga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda izlanishlar, adabiyotlar tahliliga to‘xtalib, bu xususida izlanish olib borgan ba’zi tadqiqotchilarni keltirib o‘tamiz. Tadqiqotchilar tomonidan jadidchilik harakati kabi "Yosh turklar" harakati ham turli jihatlardan o‘rganilgan va turlicha baholangan[2]. Yosh turklar harakati ham jadidchilik harakati kabi Sovuq urushdan keyin tadqiqotchilar shug‘ullanayotgan va kitoblar yozayotgan mavzular sirasiga kiradi [3].

Boymirza Hayit, Saffet Kurkchu va Altinbek Yo‘ldashevlar, Ibrahim Konjak, Abdulqodir Majid, Mehmet Yuje, Mehmet Akif Erdoğru, Mustafa Ergun kabi tadqiqotchi, olimlar tomonidan aynan jadidchilik harakati, Turkiston jadidlarining yosh turklar bilan o‘rnatgan aloqalari mavzusiga oid tadqiqot ishlari hamda ilmiy maqolalari nashr etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY): Ushbu maqolada Turkiston jadidlarini, Usmonli davlati hamda yosh turklar bilan o‘rnatgan aloqalari, ularning o‘zaro munosabatlarining islohotchilik harakatlariga ta’siri kabilar asosan o‘zbek hamda turk tarixchi olimlari va boshqa tadqiqotchilarning o‘z asarlarida hamda tadqiqot ishlarida keltirilgan ma’lumotlarini o‘zaro qiyoslash, tahlil etish, izchillikda, bosqichma-bosqichlikda yoritish hamda albatta xolislik metodiga alohida ahamiyat bergan holda yoritib berish maqsad qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSIONS): Turkistonda jadidchilik harakati dastlab ma’naviy-ma’rifiy harakat sifatida vujudga kelib, keyinchalik siyosiy harakatga aylangan bo‘lsa, yosh turklar harakati siyosiy maqsadda tashkil etildi hamda dastlab ya’ni 1908-yilga qadar yosh turklar asosan Yevropa va Fransiyada faoliyat yuritdi. Yosh turklar harakati nomi shu shaklda bo‘lsa-da, ushbu harakat vakillari faqat turklardan emas balki yahudiy, arab, arman va boshqa millat vakillaridan ham iborat edi. Turkiston jadidlari va yosh turklarining maqsadlari hamda diniy qarashlarida farqli jihatlar ham bor. O‘rta Osiyodagi jadidchilik harakati islom an’analariga tayangan bo‘lib, ular yosh turklarda bo‘lgani kabi islomiylikni istisno qilmaydilar[4]. Jadidlar asrlar davomida shakllangan "haqiqiy" islom tushunchasini musulmonlarning farovonligiga xizmat qilishini ta’kidlaydilar[5]. Farqli qarash va maqsadlar bilan boshlangan bu ikki harakat keyingi davrlarda o‘zgarishlarga uchradi va ularning barchasi bir xil taqdir egalariga aylandilar. Manbalar Turkiston jadidchilarining usmonli islohotchilari



bilan qizg'in bir shaklda aloqada bo'lganligini isbotlab beradi. Ayniqsa, Turkiston taraqqiyparvarlarining Istanbulda ta'lim olish uchun borganliklari diqqatga sazovordir. Jumladan, Fitrat va Hamza Hakimzodalar 1912-1914-yillarda Istanbulga kelib ta'lim oldilar. Istanbul hamda Qohira shaharlari Turkiston jadidlari hayotida alohida rol o'ynadi. Ma'lumotlarga ko'ra deb keltiradi jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil Gaspirali, "Aynan Istanbul shahri Rossiya islohotchi musulmonlarining uchrashuvlar tashkil etadigan joyiga aylandi"[6] deb u O'rta Osiyo jadidchilarini nazarda tutadi. Shuningdek, Turkiston jadidlarining Usmonli davlati va Misrga qilgan ziyoratlari, tashriflari haqida ko'plab manbalarda ma'lumotlar uchraydi [7]. Shuningdek manbalarda, "Fitrat hayoti va faoliyatida ham Istanbulning alohida roli bor, u o'z qarashlari va islohotlarida tez-tez Usmonli davlatida amalga oshirilayotgan islohotlarga murojaat qilgan hamda turk tilidagi gazetalarni o'qib yangiliklar bilan tanishishni, ma'rifat va madaniyat vositasi deb bilgan"ligi keltiriladi [8]. Fitratning Istanbul ziyolilari tomonidan chiqarilgan "Hikmat" "Sirati mustaqim" va "Tarif-i Muslimin" kabi jurnallarda maqolalari ham chop etilgan. Ushbu davrda Istanbulda Turkiston jadidlari hamda Qrim va Qozon tatarlari tomonidan tashkil etilgan jamiyatlar faoliyat ko'rsatgan[9]. Turkistondan kelgan talabalar ushbu jamiyatlar orqali ham o'z qarashlarini boyitib, Turkistondagi islohotchilik harakatlarida ulardan foydalanganliklarini ta'kidlash mumkin[10]. Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy 25 yoshida ya'ni 1899-yilda Istanbul, Qohira va Makkaga bo'lgan ziyorati davomida Usmonli davlati hamda Misrdagi ta'lim islohotlari bilan tanishdi. Shuningdek, u ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotchilik harakati vakillari bilan ko'rishishi, uning hayotida burilish yasagan voqealardan biri bo'ldi. Buxoroga qaytganida, Ismoil Gaspirali tomonidan chiqarilgan "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'ldi[11]. Jadidchilik Usmonlilar davlatida paydo bo'lgan harakat bo'lmas-da, Turkistonda ham islohotchilik harakatining shakllanishi hamda rivojlanishida Turkiston ziyolilari bilan usmonli islohotchilari o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS):

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda va Usmonli davlatida ham Yevropa davlatlarida bo'layotgan taraqqiyotdan ortda qolayotganliklari sababini, hamda uni yechimini izlayotgan ziyolilar mamlakatda ijtimoiy, ma'daniy islohotlar zarurligini tushunib yetib, buning uchun harakat qildilar. Turkistondagi ziyolilar dastlab harakatni ma'rifiy-madaniy sohadagi islohotlardan boshlashga harakat qilishgan bo'lsa, yosh turklar esa mamlakatda siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishni maqsad qildilar. Turkistondagi jadidchilik harakati keyinchalik, ma'rifiy harakatdan siyosiy harakatga aylandi. Jadidchilik harakati asoschisi Ismoil Gaspirali, qoloqlikni ta'lim bilan bartaraf etish mumkinligini tushungan holda maktablar va eski o'qitish uslublarini isloh qilish maqsadida "usuli jadid" (yangi uslub) maktablari g'oyasini ilgari surdi. Ushbu jarayonga o'zi boshchilik ham qildi. Ta'lim olish maqsadida Istanbul hamda Qohira kabi shaharlarga kelgan turkistonlik talabalar



ham ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangicha usullarni Turkiston maktablariga ham olib kirish yo'lida jonbozlik ko'rsatdilar. Maktablarga dastlab xolis shaklda yondashgan Rossiya imperiyasi ma'muriyati maktablarning muvaffaqiyatli faoliyati davom etayotgan bir davrda, ayniqsa, Turkiston jadidchilarini qattiq ta'qib ostiga oldilar. Jadidchilik harakati Qrimda vujudga kelgan bo'lsa-da, Turkiston ziyolilari Usmonli davlatidagi turli islohotchilik harakatlaridan ham ta'sirlanganligi ma'lum. Ta'lim olish uchun ham Istanbulga tashrif buyurishganligi e'tiborga loyiq. Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi, Turkistonda jadidchilik harakati ma'rifiy harakat sifatida vujudga kelib, keyinchalik siyosiy harakatga aylangan bo'lsa, yosh turklar harakati ham vaqt o'tishi bilan o'zgarishga uchragan. Yosh turklar hokimiyatni qo'lga kiritgandan so'ng o'zgarib, harbiy va siyosiy ma'noda etnik turk uyushmasi (Panturkizm) mafkurasini qisqa muddatda bo'lsa-da, "davlat siyosati"ga aylantirdilar. Ijobiy va salbiy tomonlari bilan ikkala harakat ham Chor Rossiyasining Turkistonga bostirib kirishidan so'ng ikki hududlar orasidagi uzilib qolgan, cheklangan siyosiy munosabatlarning ijtimoiy va madaniy jihatdan davomiyligini nafaqat ta'minlagan, balki bugungi munosabatlarimizning asosini tashkil etgan jihatlardan biri ham hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kosimov, B. (1993). Milli uyganish va o'zbek filologiyasi meseleleri, Gazi Turkiyat, Bahar 2010, Sayı 6 s. 336-361
2. Kaya H., (1997). Arabs and young turks: Ottomanism, arabism, and islamism in the ottoman empire 1908-1918. University of California Press.
3. Hanioglu Ş., (2001). Preparation for a revolution: The young turks, 1902-1908. Oxford University Press.
4. Kimmage, D., (Ağustos 9, 2005). Central asia: Jadidism- old tradition of renewal. <http://www.rferl.org/content/article/1060543.html>. Erişim Tarihi: Aralık 10, 2012
5. Gaspıralı, İ. Konferans, sırat-ı müstakim, (I. Kısım), 19 Recep 1327 / 1909, Sayı: 48, s. 345-346; (II. Kısım), ("Konferans: Tedrisat-ı Umumiye Hakkında" ismiyle) Giriş Tarihi: 12 Aralık, 2012
6. Gaspıralı, İ. Konferans, sırat-ı müstakim, (I. Kısım), 19 Recep 1327 / 1909, Sayı: 48, s. 345-346; (II. Kısım), ("Konferans: Tedrisat-ı Umumiye Hakkında" ismiyle) Giriş Tarihi: 12 Aralık, 2012
7. Khalid A., (2001). Representations of Russia in Central Asian Jadid Discourse. In Brower R. D. & Lazzerini J. E., , Russia's orient, imperial borderlands and peoples, 1700-1917 (pp.188-226). Bloomington, Indiana University Press
8. Erşahin S., (2008). Fıtrat'ın türkistan için 2. meşrutiyet mahrecli tecdid teklifi üzerine, Bilig, Güz / sayı 47: s.21-44.
9. Kırımli H., (1996). National movements and national identity among the crimean tatars: (1905-1916). Brill
10. Keller S. (2001). To moscow, not mecca: The soviet campaign against islam in central asia, 1917-1941. Greenwood Publishing Group.



11. Khalid A., (2001). Representations of Russia in Central Asian Jadid Discourse. In Brower R. D.& Lazzerini J. E., , Russia's orient, imperial borderlands and peoples, 1700-1917 (pp.188-226). Bloomington, Indiana University Press. Kırımlı H., (1996). National movements and national identity among the crimea

**URUG‘CHILIK TUZUMI TARIXINI O‘RGANISH NATIJALARI
TAXLILI: XORAZM VOHASI MISOLIDA.****РЕЗУЛЬТАТЫ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ РОДОВОПЛЕМЕННОГО
СТРОЯ: НА ПРИМЕРЕ ХОРАЗМСКОГО ОАЗИСА.****RESULTS OF STUDYING THE HISTORY OF THE TRIBAL
SYSTEM: ON THE EXAMPLE OF THE KHORAZM OASIS.**

Xamdani MATYAKUBOV,
Urganch davlat universiteti
hamdamtarix@gmail.com

Annotatsiya. Xorazm vohasini urug‘doshlik jamoalari tomonidan o‘zlashtirish jarayonlarini davriy jihatdan aniqlash, vohadagi tabiiy-geografik muhim va insonning o‘zaro ta‘sirini hamda madaniy landshaftining rivojlanishi bosqichlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada Xorazm vohasida urug‘chilik tuzumining paydo bo‘lishi va tarixini o‘rganish, qolaversa bu borada qo‘lga kiritilgan yangiliklar to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: urug‘chilik tuzumi, Jonbos-4, Kaltaminor madaniyati, Orolbo‘yi, Quyi Amudaryo.

Annotation. It is important to periodically determine the processes of mastering the Khorezm oasis by clan communities, to study the stages of development of natural-geographical and human interaction and cultural landscape in the oasis. In the article is discussed the emergence and history of the seed farming system in the Khorezm oasis, as well as the news obtained in this regard.

Key words: tribal production system, Jonbos-4, Kaltaminor culture, Arolboyi, Lower Amudarya.

Аннотация. Важно периодически определять процессы освоения родовыми общинами Хорезмского оазиса, изучать этапы развития природно-географического и человеческого взаимодействия и культурного ландшафта в оазисе. В статье рассматривается возникновение и история системы семеноводства в Хорезмском оазисе, а также новости, полученные в этой связи.

Ключевые слова: родовая система производства, Жонбос-4, культура Калтаминора, Граница нижняя Амударья.

Kirish. Xorazm vohasi Quyi Amudaryoning o‘ng va so‘l sohillari yerlarida, Qoraqum va Qizilqum oralig‘idagi Turon pasttekislikda joylashgan. Ushbu hududlar geografiya fanida “Janubiy Orolbo‘yi” deb ataladi va ularni Qoraqalpog‘iston, Shimoliy Turkmaniston va Xorazm viloyati yerlari tashkil etadi.

Quyi Amudaryo tarmoqlarining o‘zgaruvchanligi sababli turli davrlarda dar-yoning uchta qadimiy o‘zani – deltasi: Oqchadaryo, Sariqamishbo‘yi va Orolbo‘yi o‘zanlari paydo bo‘lgan. Ularning sohillari paleogeografiya va arxeologiya



jihatdan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan o'rganilib, tadqiqotlar natijalari maxsus monografiyada yoritilgan [8].

Tahlil va natijalar. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlar bo'yicha, Amudaryo 22 ming yil avval, so'nggi paleolit davri o'rtalarida qadimiy Oqchadaryo o'zani orqali Orol ko'liga quyila boshlagan [4, c. 19]. Mezolit davriga kelib Amudaryoning so'l sohilidan g'arbiy tomonga yo'nalgan. Davdon va Daryoliq o'zanlari, Sariqamish pasttekisligida katta ko'lni hosil qilib, uning suvlari to'lib oqadigan qadimiy Uzboy o'zanidan Qoraqumning sarhadlaridan o'tgan va Kaspiy dengiziga oqib kirgan [7].

Qadimgi davrlarda Amudaryoning migratsiyasi, ya'ni yo'nalishi o'zgarib turgani tufayli, daryo o'zanlarining atrofida ko'p sonli kichik ko'llar va suv havzalari hosil bo'lgan. Shu boisdan eng qadimgi davrlarda Orolbo'yi paleogeografiyasi va paleoekologiyasi zamonaviy geografik sharoitdan farq qilgan. Hozirda Orolbo'yi va Sariqamishbo'yi hamda qurib qolgan Uzboy o'zani atroflaridagi cho'l hududlari, tarixning eng qadimgi davrlarda ichimlik suvi bilan yetarlicha ta'minlangan edi [8, c. 21]. Bunday sharoit inson tomonidan bosqichma-boshqich turli hududlarni o'zlashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish va madaniy (antropogen) landshaftning taraqqiyotiga qulay imkon yaratgan.

Xorazm vohasida 1938 yilda izlanishlar boshlagan Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari (S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov, Ye.A. Polyakov), xususan, ushbu jihatlarga e'tibor berishgan. S.P.Tolstovning yozishicha Quyi Amudaryo o'zanlarining yo'nalishlari va havzalarini inson tomonidan o'zlashtirilishi tarixi murakkab muammo bo'lib, "Amudaryo tarixi buyuk xorazmlik qomusiy olim Abu Rayhon Al-Beruniy tomonidan dastlab to'g'ri yoritilgan" [11, c. 21]. Ushbu masala Ya.G'ulomovning maxsus maqolasida ochib berilgan [1, c. 85-92].

1939 yilda Amudaryoning Oqchadaryo o'zani havzasidagi qum pasttekisligida Jonbos 4 deb atalgan neolit davriga oid makon kashf etildi. Undan keyingi yillarda topib tekshirilgan shunday makonlar guruhi "Kaltaminor madaniyati" degan umumiy nom ostida birlashtirildi [10, c. 59]. Tadqiqotlar natijasida, eng avvalo Janubiy Orolbo'yidagi zamonaviy tabiiy qiyofasidan qadimda mutlaqo farq qilgan atrof-muhitning manzarasi aniqlandi. S.P.Tolstovning aytishicha, Oqchadaryo deltasi "qamish va chakalak o'rmonlar o'sib yotgan, juda ko'p daryo irmoqlari va ko'llari bo'lgan sernam bir o'lka edi, bu yerda neolit davridagi Xorazm baliqchilari va ovchilari o'zlarining turarjoylarini qurgan" [13, b. 73, 75]. Keyinroq S.P.Tolstov, A.S.Kes, Ya.G'.G'ulomov, A.V.Vinogradov, M.A.Itina va E.D.Mamedovlar tomonidan, qadimgi insonning cho'lda joylashishi, tabiiy resurslardan foydalanishi xususiyatlari, xo'jaligini rivojlantirishida tabiiy-geografik sharoitning ahamiyati, inson va atrof muhitning o'zaro ta'siri hamda paleoekologiya masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo miqyosida dastlab muhim ilmiy ma'lumotlar qo'lga kiritildi [14, c. 327-256.; 6, c. 170-175.; 16, c. 50-56.; 15, c. 290-295].

Jonbos 4 makonning taqir va qum qatlami ostidagi yaxshi saqlanib qolgan turarjoy qoldiqlari va arxeologik topilmalar, mil. avv. V-IV ming yillikka oid Xorazm vohasida neolit davrining urug'chilik jamoasi turmush tarzi va madaniyatini qayta tiklash imkonini berdi.



Markaziy Osiyo arxeologiyasi va ibtidoiy jamiyat tarixiga mansub neolit davri turarjoyi, usti qamish bilan berkitilgan va tomi yog‘och ustunlarga tayanib turgan sinchli katta kulba ko‘rinishida ilk bor tiklandi. Jonbos 4 turarjoyi markazida katta o‘choq va uning orqasida ovqat pishiriladigan qator mayda uchoqlarning izlari aniqlangan. Shu uchoqlar atrofidan sopol idishlar parchalari, tosh va suyakdan ishlangan mehnat qurollari, bug‘u, to‘ng‘iz, suvda suzib yuruvchi qushlarning suyaklari hamda laqqabaliq va cho‘rtan kabi ko‘p sonli baliq suyaklari topilgan [10, c. 60-61].

Mazkur ma‘lumotlarning birmuncha kengroq yoritilishi sababi shundaki, Jonbos 4 makonida aniqlangan arxeologiya ma‘lumotlari, Xorazm vohasining urug‘chilik tuzumi tarixini o‘rganishga yo‘l ochib berdi. S.P.Tolstovning fikriga ko‘ra, tadqiq etilgan makonda, ona urug‘i-matriaxat davrining so‘nggi bosqichlariga oid, katta ona tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha juft oilalar a‘zolari birlashib yashaganlar. Kaltaminorliklar kulbasida, “bolalarni ham qo‘shib hisoblaganda 100-120 kishidan iborat urug‘dosh jamoa istiqomat qilgan. Uchmay yonib turadigan katta muqaddas o‘choq ijtimoiy hayotning markazi hisoblanib, uning atrofida jamoa urf-odati bajarilgan [13, b. 78].

Quyi Zarafshon vohasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida neolit davri makonlari kashf etilgan [3, c. 61-68]. Ular orasida Darbozaqir makonida to‘g‘ri burchakli to‘rtburchak shaklidagi turarjoy izlari aniqlanib, u Jonbos 4 makonidagi kulbaga o‘xshash tomi qamish bilan yopilgan va tik yog‘och ustunlarga tayanib turgan sinchli chayla sifatida qayta tiklangan [2, c. 28]. Kaltaminor madaniyatiga doir bunday turarjoylarini kulba shaklda qayta tiklashda S.P.Tolstov etnografiya ma‘lumotlardan foydalandi. Qiyoslash uchun Okeaniya va Janubiy Osiyoda ibtidoiy turmush tarzi va madaniy an‘analarini saqlab kelgan qabilalar jamoalarida o‘ziga xos ko‘rinishga ega kulbalar haqida ma‘lumot berilgan [13, b. 77]. Natijada Darbozaqir makonida ham ona urug‘iga oid 30-35 kishidan iborat juft oilalar joylashgani to‘g‘risida xulosaga kelindi [2, c. 97].

Xorazm vohasida neolit davri urug‘chilik jamoasi madaniyatini o‘rganishning birinchi bosqichi XX asr 30-yillari oxiri – 40-yillarining ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotlar natijalari C.P.Tolstovning ishlarida, shu jumladan xorijda e‘lon qilingan maqolasida yoritilgan [10, c. 65-74.; 9, p. 92-99].

Xulosa. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning ikkinchi bosqichi o‘tgan asrning 50-60-yillarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda keng miqyosda arxeologik ishlar amalga oshirilib, ilmiy adabiyotlar va maqolalarning soni ko‘payib bordi. Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar Amudaryoning Uzboy o‘zani qirg‘oqlari bo‘ylab sarhadlarida, Ichki Qizilqum va Ustyurt hududlarida hamda Quyi Zarafshon vohasida topib tekshirildi.

Adabiyotlar:

1. Гулямов Я. Беруни об исторической гидрогеографии Амударьи // Беруни – великий ученый средневековья. – Ташкент, 1950. – С. 85-92.
2. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент: “Фан”, 1966. – С. 28, рис.8.



3. Исламов У. Открытие неолитической культуры на Махан-Дарье // ОНУз. – Тошкент, 1961. № 1. – С. 61-68.
4. Кесь А.С. Аральское море в голоцене // Этнография и археология Средней Азии. – М.: “Наука”, 1979. – С.19.
5. Кесь А.С., Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене . – М.,1974. – С.290-295.
6. Кесь А.С. Природные факторы, обуславливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии // КСИЭ. Вып. XXX. – М.,1958. – С.170-176.
7. Кесь А.С. Узбой и его генезис // Тр. Института географии АН СССР. Вып. XXX. – М., 1939.
8. Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. Вып.3. – М., 1965. – 348 с.
9. . 92-99.
10. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – С.59.
11. Толстов. С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ,1962. – С.21.
12. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М. – Л.:АН СССР, 1948. – С. 65-74.
13. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: “Фан”, 1964. – Б. 74-75.
14. Толстов С.П., Кесь А.С. История первобытных поселений на протоках дельт Амударьи и Сырдарьи // Сборник статей для XVIII международного географического конгресса. – М. – Л., 1956. – С.327-336.
15. Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. – М.,1974. – С.290-295.
16. Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: “Фан”,1959. – Б.50-56.



SAMARQAND VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATUVCHI MILLIY MADANIY MARKAZLAR

NATIONAL CULTURAL CENTERS OPERATING IN THE SAMARKAND REGION

ДЕЙСТВУЮЩИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕНТРЫ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

**Bobur MELIQULOV,
SamDCHTI**

Annotatsiya: Samarqand viloyati, O'zbekistonning madaniy va tarixiy markazlaridan biri sifatida, asrlar davomida turli millatlar va elatlar yashab kelgan o'lka bo'lib, ularning madaniyati, urf-odatlari va an'analari saqlanib kelmoqda. Bugungi kunda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan milliy madaniy markazlar nafaqat mahalliy madaniyatni rivojlantirish, balki millatlararo totuvlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Samarqand viloyatidagi milliy madaniy markazlar faoliyati, ularning ijtimoiy ahamiyati va jamiyatdagi o'rni keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: Millat, Milliy madaniy markazlar, Millatlararo totuvlik, Samarqand, urf-odat, marosim, Baynalminal, festival.

Abstract: Samarkand region, as one of the cultural and historical centers of Uzbekistan, is a land where different nationalities and ethnic groups have lived for centuries, preserving their culture, customs and traditions. Today, the national cultural centers operating in the region play an important role not only in developing local culture, but also in strengthening interethnic harmony and mutual respect. This article provides a comprehensive overview of the activities of national cultural centers in Samarkand region, their social significance and role in society.

Keywords: Nation, National cultural centers, Interethnic harmony, Samarkand, customs, ceremony, International, festival.

Аннотация: Самаркандская область, как один из культурно-исторических центров Узбекистана, является краем, где на протяжении веков проживали различные национальности и народности, сохраняя свою культуру, обычаи и традиции. Сегодня действующие в регионе национальные культурные центры играют важную роль не только в развитии местной культуры, но и в укреплении межнационального согласия и взаимоуважения. В статье подробно освещается деятельность национальных культурных центров Самаркандской области, их общественное значение и роль в обществе.

Ключевые слова: Нация, Национальные культурные центры, Межнациональное согласие, Самарканд, традиция, обряд, Интернационал, фестиваль.

Milliy madaniy markazlar O'zbekistonda yashovchi turli millat va elat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga, urf-odat, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish hamda keyingi avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda mavjud madaniy markazlar O'zbekiston Respublikasi amaldagi huquqiy-me'yoriy



hujjatlar hamda o'z nizomiga asoslangan holda qonuniy faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Milliy-madaniy markazlarning o'ziga xosligi shundaki, ular muayyan millatga xos bo'lgan milliy madaniyat, til, urf-odat, qadriyat, an'ana va marosimlarni o'rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfaatdordir. Milliy madaniy markazlar O'zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi.

O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari bu Milliy madaniy markazlar hisoblanadi. 1989-yilda O'zbekiston Madaniyat ishlari Vazirligi qoshida, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish maqsadida Respublika Millatlararo Madaniyat markazi tashkil qilingan edi. Dastlabki madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublikaning viloyatlarida tashkil qilingan edi. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Milliy madaniy markazlarning soni va faoliyat turlarining o'sib borayotganini ko'zda tutib, 1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10-son qarori bilan Respublika Millatlararo Madaniy Markazi Respublika Millatlararo Baynalminal Madaniy Markaziga aylantirildi.¹¹ 2003 esa ushbu qaror yangi tahrirda qabul qilindi¹². Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

-tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, shuningdek jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish;

-millatlararo totuvlik prinsiplari qaror topishiga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish;

-davlat organlarida madaniyat markazlarining manfaatlarini ifodalash, Nizomda qayd etilgan vazifalar amalga oshirilishi masalalari bo'yicha ular faoliyatini muvofiqlashtirish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish;

-turdosh xorijiy tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatilishida madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu masalada ularga har tomonlama ko'maklashish, millatlararo munosabatlarni tartibga solishga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlar ma'lumotlari bankini barpo etish;

-jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish;

-har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan teleradio ko'rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risolalar, ma'lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashish;

¹¹ Хоназаров Қ. Х. Мустақиллик ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. Т., 2001. 39-бет.

¹² <https://lex.uz/ru/docs/-244685?ONDATE=08.04.2003%2000#-476316>



Respublika Baynalminal Madaniy Markazi tashkil qilingandan so‘ng mamlakatimizning bir qator viloyatlarida ana shunday milliy madaniy markazlar tashkil qilina boshlandi. Shu jumladan Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan 11 ta milliy-madaniy markazlardan 8 tasi Samarqand viloyati adliya boshqarmasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Ushbu milliy-madaniy markazlar koreys, arman, tatar, boshqird, nemis, polyak, tojik va arab milliy-madaniy markazlaridir. Ushbu milliy-madaniy markazlar jamoat birlashmasi sifatida Samarqand viloyat «Luys» nomli armanlar madaniy markazi 23.04.2004 yil № 1-n, Samarqand viloyati «Polonez» polyaklar milliy-madaniy markazi 30.12.2010 № 188, Samarqand shahar yahudiylar milliy-madaniy markazi 25.08.2014 yil № 145-n, Samarqand viloyati nemislar milliy-madaniy markazi 31.07.2014 yil № 32-n, Samarqand viloyat «Umurzaya» tatar va boshqirdlar madaniy-markazi 22.08.2014 yil № 186-n, Samarqand viloyat tojik va tojikzabon milliy-madaniy markazi 01.08.2019 yil № 113-n 13 raqamlari bilan davlat ro‘yxatiga olingan va o‘z faoliyatlarini samarali olib bormoqda. Samarqand viloyatida respublika tashkilotining hududiy bo‘linmasi sifatida 3 ta milliy-madaniy markaz faoliyat yuritmoqda. Bular rus, turk, va ozarbayjon milliy-madaniy markazlaridir.

Bu milliy madaniy markazlar quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

T/r	Milliy madaniy markazlar	F.I.Sh.
1.	“Luys” arman milliy-madaniy markazi raisi	Der-Avanesyans Armen Bernardovich
2.	Nemislar milliy-madaniy markazi raisi	Kletser Natalya Vladimirovna
3.	Rus milliy-madaniy markazi raisi	Grebennik Natalya Valentinovna
4.	Yahudiylar milliy-madaniy markazi raisi	Olvovskiy Grigoriy Aleksandrovich
5.	“Umurzaya” tatar-boshqirdlar milliy-madaniy markazi raisi	Subxankulov Axmed Makarimovich
6.	Koreys milliy-madaniy markazi raisi	Ten Vyacheslav Valentinovich
7.	Turk milliy-madaniy markazi raisi	Rasulov Sabir Muxammadovich
8.	Tojik va tojikzabon milliy madaniy markazi raisi	Samatov Shuxrat Abdusalomovich
9.	“Polonez” polyaklar milliy madaniy markazi raisi	Tatarenko



		Tamara Pavlovna
10.	Arab milliy madaniy markazi raisi	Xudaykulov Xushbaxt Gadoykulovich
11.	Ozarbayjon milliy madaniy markazi raisi	Mirzoev Ramal Adilaga o'g'li

Milliy madaniy markazlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda erkin faoliyat ko'rsatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5430-son Farmoni 9-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimining 2019-yil 12-martdagi 34-F-sonli farmoyishiga asosan, Samarqand shahar hokimligi balansidagi Samarqand shahar, Spitamen shoh ko'chasi 159 "a" uyda barcha zamonaviy sharoitlarga ega "Do'stlik va nodavlat notijorat tashkilotlari uyi" tashkil yetildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, "Nodavlat notijorat tashkilotlari va Do'stlik uyi" binosida 58 ta ish yuritish xonasi, 4 ta faollar zali (260 o'rinli), 1 ta kovorking markazi, 2 ta muzey, 1 ta kutubxona, 3 ta boshqaruv xonasi, ushbu binoga viloyatda faoliyat yuritayotgan 11 ta milliy madaniy markazlar va 38 ta nodavlat notijorat tashkilotlari joylashtirilgan¹⁴. Qolaversa, 2021 yil Davlatimiz rahbari topshiriqlariga asosan Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan davlat subsidiyalarini ajratish yo'lga qo'yilgan.

Davlatimiz tomonidan viloyatimizdagi 11 ta markazlarni davlat subsidiyasi ko'rishida qo'llab-quvvatlash **jadvali**.

T/r	Tashkilot nomi	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
1	11 ta milliy madaniy markazlar	-	440 mln. so'm	464,2 mln. so'm	495 mln. so'm

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Respublikada mavjud milliy-madaniy markazlari qatorida Samarqand viloyati milliy-madaniy markazlarida ham turli xil bayram tadbirlari, festivallar, forumlar o'tkazib kelinmoqda. Samarqand milliy-madaniy markazlari vakillari «O'zbekiston – umumiy uyimiz», «Vatan bitta – Vatan yagona», «Bizning kuchimiz birlik va hamjihatlikda» kabi festivallarda faol ishtirok etib kelmoqda. 2021 yilda bo'lib o'tgan «Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik» festivalida ham milliy-madaniy markazlar vakillari ishtirok etishdi. 2021 yilning 25 iyun kuni Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Imom Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazida «Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni

¹⁴ zarnevs.uz/uz/post/samarqand-shahridagi-do'stlik-va-nodavlat-notijorattashkilotlariuyi-binosi-foydalanishga-topshirildi. 19.03.2021



ta'minlashda parlamentning roli» mavzusidagi parlament forumi bo'lib o'tdi. Ushbu forumda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari Akmal Saidov, Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi Martin Chunchang, Samarqand Davlat Universiteti rektori Rustam Xolmuradov, Samarqand «Xram v chest. Pokrova Bojiej Materi» cherkovi rohibi va milliy-madaniy markazlar rahbarlari qatnashishdi. Samarqand tumanida "Vatan bayrog'i" shiori ostida sport madaniy musobaqa va musiqali tadbir, "Xalqaro bag'rikenglik haftaligi" shiori ostida "Ma'rifat va millatlararo bag'rikenglik" shiori ostida "Yangi O'zbekiston – millatlararo totuvlik" shiorlari ostida amalga oshirilgan tadbirlar diqqatga sazovordir. Samarqand viloyatida milliy-madaniy markazlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashda har yili an'anaviy ravishda o'tkazilib kelinadigan "O'zbekiston – umumiy uyimiz" shiori ostidagi an'anaviy do'stlik va madaniyat festivali muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublika rus madaniyat markazi Samarqand bo'limi Roszarubejsentrom, Rossotrudnichestvo kabi tashkilotlar hamda Rossiya elchixonasi bilan yaqin aloqada bo'lib, ular orqali madaniy dasturlar va uchrashuvlar tashkil etiladi. Markazning barcha tadbirlari ochiq o'tkazilib, televideniya namoyish etilib, ommaviy axborot vositalarida yoritilmoqda¹⁵. Markaz faoliyati davomida 100 dan ortiq turli tadbirlar tashkil etilgan¹⁶. O'zbekiston koreys madaniy markazlari uyushmasi Samarqand viloyati bo'limi qoshida folklor raqs va qo'shiq jamoalari, ona tili to'garaklari, shaxmat va sportning milliy turlari bo'yicha seksiyalar faoliyat ko'rsatadi. Oqsoqollar kengashi va diniy marosimlarni tashkil qilish bo'yicha faollar ish olib boradi. Samarqand viloyati nemis milliy madaniy markazi raisi Kayzer Natalya Filippovna Mamlakatimizda millatlararo do'stlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatimizda turli millat va elat vakillari o'rtasida hukm surayotgan o'zaro hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini asrash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda milliy madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari uchun Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi¹⁷. Shuningdek Samarqand viloyati nemis milliy madaniy markazi turli ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, jumladan, madaniy-ma'rifiy dasturlar, targ'ibot-tashviqotlar, xalq bayramlarini jonlantirish kabi tadbirlar tashkil etadi. Bayramlar nafaqat etnik nemislar, balki ko'p millatli Samarqandning barcha aholisi uchun ham qiziqarli. Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyatidagi milliy madaniy markazlar nafaqat etnik guruhlarning o'ziga xosligini saqlashga, balki ularning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bu esa hududda millatlararo totuvlik va barqarorlikni mustahkamlashga katta hissa qo'shadi.

15 Sharipov SH.Z. O'zbekistonda Milliy-Madaniy Markazlar Faoliyati Tarixi (Zarafshon Vohasi Viloyatlari Misolida 1990-2020-Yillar) t.f.f.d olish uchun avtoreferat. – S., 2023. – B.19.

16 <https://www.samcity.uz/catalog/item/russkij-kulturnyj-tsentr-samarkandskoj-oblasti> (24.12.2020).

17 <https://president.uz/oz/lists/view/197>



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Хоназаров Қ. Х. Мустақиллик ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. Т., 2001. 39-бет.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-244685?ONDATE=08.04.2003%2000#-476316>
3. <https://w.w.w.minjust.uz/uz/interaktive/reestr-nokommerce>. 03.03.2021
4. <https://www.samcity.uz/catalog/item/russkij-kulturnyj-tsentr-samarkandskoj-oblasti> (24.12.2020).
5. Sharipov SH.Z. Samarqand Viloyatidagi Milliy-Madaniy Markazlar Faoliyati Tarixi. Maqola B.6.
6. Sharipov SH.Z. O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixi (Zarafshon viloyatlari misolida 1990-2020-yillar) t.f.f.d olish uchun avtoreferat. – S., 2023. – B.19.



“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONINING ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

Sayyora NAMOZOVA,

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada «Go‘ro‘g‘li» dostoni shakllanishining tarixiy-etnografik asoslari, uning tayanch versiyalari o‘zaro qiyoslanib, ularni ijro etuvchi baxshi-shoirlar mansub dostonchilik maktablari, shuningdek, doston variantida aks etgan etnografik ma‘lumotlar ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Tayanch so‘zlar: folklor, doston, dostonchilik maktablari, etnik tarkib, etnik komponent, turkman, ozarbayjon, versiya, variant.

Аннотация: В данной статье сравниваются между собой историко-этнографические основы формирования эпоса «Гороглы», его основные варианты, научно изучаются школы эпического письма исполнявших их поэтов-бахшлов, а также этнографические сведения, отраженные в варианте эпоса.

Ключевые слова: фольклор, эпос, эпические школы, этнический состав, этнический компонент, туркменский, азербайджанский, вариант, вариант.

Abstract: In this article, the historical-ethnographic foundations of the formation of the "Goroghli" epic, its basic versions are compared with each other, the schools of epic writing of the Bakhsh-poets who performed them, as well as the ethnographic information reflected in the version of the epic, are scientifically studied.

Key words: folklore, epic, epic schools, ethnic composition, ethnic component, Turkmen, Azerbaijani, version, variant.

O‘zbekistonning janubiy hududlari dostonchilik an‘analari, asosan qir-adir va yaylovlarda dehqonchilik hamda chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan Chiroqchi, Qamashi, Koson, Mirishkor, Kasbi, Dehqonobod, G‘uzor, Sherobod, Boysun, Angor va Jarqo‘rg‘on tumanlari hududlaridagi aholi orasida saqlanib qolgan[1]. Xususan, Qashqadaryo vohasida Chiroqchi va Qamay, Surxondaryoda Sherobod, Beshqo‘ton va Kofrun (Boysun) dostonchilik maktablari mavjud bo‘lib, ular faoliyatida “Alpomish”, “Yozi bilan Zebo” va “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari muhim o‘rin tutadi[2].

"Go‘ro‘g‘li" ("Ko‘ro‘g‘li") dostonlarini dastlabki yozib olish, nashr etish va o‘rganish ishlari XVIII asrning birinchi choragi va XIX asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, eronlik arman savdogari Elias Mushegyan Eron hukumatining siyosiy ayg‘oqchisi sifatida Astraxanda qo‘lga olinganda, uning yonidan bir "Qo‘shiqlar" to‘plami topiladi. Ushbu to‘plamda Nizomiy, Fuzuliy asarlaridan namunalar, maqol va matallar bilan bir qatorda Janubiy Ozarbayjon oshiqalaridan 1721 yilda arman harflari bilan ozarbayjon tilida yozib olingan "Ko‘ro‘g‘li" dostonidan o‘n uchta mustaqil qo‘shma (terma, qo‘shiq ham mavjudligi



aniqlangan[3]. To'plamdagi "Ko'ro'g'li" termalari tadqiqotchilarga ancha ilgari ma'lum bo'lgan bo'lsa-da, uning matni arman olimlari A.Abramyan va D.Gabrielyanlar tomonidan 1954 yildagina nashr etildi[4]. Shuningdek, o'tgan asrning 60-yillarida gruzin Sharqshunosi L.G.Chalaidze Gruziya Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar institutining musulmon fondidan 1856 yilda arman harflari bilan ozarbayjon tilida ko'chirilgan yigirma sakkiz majlisdan (qismdan, bo'limdan) iborat yana bir qo'lyozmani topgan edi[5]. Bu misollar "Ko'ro'g'li" dostonlari ozarbayjon versiyasini to'plash ishlari dastlab ularni arman imlosida yozib olish bilan boshlanganligini ko'rsatadi. O'zbek va turkman Go'ro'g'li" sining ayrim namunalari qalamga olish ishlari esa, XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. 1853 yilda **nastalikda** ko'chirilgan, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutning Peterburg bo'limi qo'lyozmalar fondining K.P.Kaufman kolleksiyasida 321-inventar raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma, shuningdek, 1936 yilda Xodi Zarif topgan yana bir boshqa qo'lyozma[6] bunga dalil bo'la oladi. Bu o'rinda 1870 yilda general-mayor A.K.Abramov tashkil etgan Iskandarko'l ekspeditsiyasi kundaligidagi tarjimon Abdurahmon Mustajirov tomonidan o'zbek tilida yozib olingan "Go'ro'g'li" dostoni bir parchasi matnini ham alohida ko'rsatib o'tish zarur[7]. Go'ro'g'li" ("Ko'ro'g'li") turkumi dostonlarini nashr etish ishlari XIX asrning 40-yillaridan boshlangan. Jumladan, I.S.Hopen 1840 yilda Peterburgda nashr etiladigan "Mayak sovremyonnogo prosvещeniya i obrazovaniya" jurnalida "Ko'ro'g'li" dostoni o'n uch majlisi (bo'limi) bayonini nashr etgan edi. 1842 yilda diplomat A.Xodzko dostonning Janubiy Ozarbayjon versiyasini Londonda alohida kitob sifatida ingliz tilida nashr etdi. Shu kitob 1856 yilda S.S.Penn tarjimasida Tiflisdan rus tilida bosildi. V.V.Radlovning "Turkiy xalqlar og'zaki adabiyotidan namunalari" nomli mashhur o'n jildligining to'rtinchi jildida to'bol tatarlari versiyasi (1872), sakkizinchi jildida turk versiyasi (1899) chop etildi. 1880-1881 yillarda o'zbek va turk versiyalarining litografik nashrlari amalga oshirildi. «Go'ro'g'li» ("Ko'ro'g'li") dostonlarini to'plash, nashr etish va o'rganish borasida XX va XXI asrning boshlarida ham salmoqli ishlar bajarildi[8].

O'zbek "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarini etakchi xalq baxshilari og'zidan bevosita yozib olish ishlari 1926 yildan boshlandi[9]. Ularning umumiy adadi variantlari bilan birga hisoblanganda, ikki yuzga yaqindir. O'nlab baxshilardan yozib olingan bu dostonlarning asl nusxalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining folklor arxivida saqlanmoqda. Ularni alohida-alohida kitoblar tarzida nashr etish ishlari 1941 yildan boshlangan va shu kungacha uzluksiz davom etib kelmoqda. Ayrimlari (masalan, "Dalli", "Ravshan", "Kunduz bilan Yulduz" "Xushkeldi" "Intizor" "Malika ayyor" "Zulfizar" va boshqalar) qayta-qayta nashr etilgan. Hisob-kitoblarga qaraganda, 1941-2016 yillarda alohida-alohida kitoblar tarzida, shuningdek, maxsus "Go'ro'g'li" to'plamida, "O'zbek xalq dostonlari" ikki jildligi, "Bulbul taronalari" besh jildligi, "O'zbek xalq ijodi" ko'p jildligi (shu seriyada 37 kitob bosilib chiqdi) kabi nashrlarda 74 ta "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari chop



etilgan. Ulardan 16 tasi variantlardir. Bular 24 nafar xalq baxshisidan yozib olingan namunalar hisoblanadi[10].

O‘zbek «Go‘ro‘g‘li» dostonining tayanch versiyalari o‘zaro qiyoslanib, ularni ijro etuvchi baxshi-shoirlar mansub dostonchilik maktablari va bu markazlarning yadrosini tashkil etuvchi ijrochilarning etnik tarixiga nazar tashlansa, masalaning mohiyati oydinlashadi. Biz ilmiy ishimizda qahramonning tug‘ilishi kuylangan dostonlarni ikki guruhga ajratgan edik: 1. Homila tabiiy, qahramonning tug‘ilishi g‘ayritabiiy versiyalar. 2. Homila ham qahramonning tug‘ilishi ham g‘ayritabiiy versiyalar. Ushbu dostonlardan Qo‘rg‘on va Xorazm versiyalari Kaspiy bo‘yi versiyalariga birmuncha yaqin kelishi bilan xarakterli. Bu yaqinlik esa, birinchi galda Qo‘rg‘on va Xorazm dostonchilarining asosini tashkil etuvchi baxshi-shoirlarning o‘zbek xalqi etnik tarkibidagi o‘g‘iz guruhiga mansubligi muhim rol o‘ynaydi. Qo‘rg‘on va Xorazm dostonchilari ijro etgan «Go‘ro‘g‘li» dostonining boshqa o‘zbek versiyalariga nisbatan Kaspiy bo‘yi versiyalariga yaqinligi va serqatlamligi, Nurota va Xorazm baxshilarining Kaspiy bo‘yi o‘g‘iz va turkman urug‘lari o‘rtasidagi adabiy madaniy aloqalarining mevasidir. Qozayoqli urug‘i (Qo‘rg‘on dostonchilarinig asosiy urug‘i shu uruqqa mansub)ning katta bir bo‘linmasiga o‘z nomini bergan Xalqomon haqidagi tarixiy afsonalarni «Go‘ro‘g‘li» dostoniga qiyoslasak, ular o‘rtasidagi yaqinlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xalqomon tarixiy afsonasidagi bir qator motivlar, xususan, qahramon ota-onasining dushman yurtiga asir tushishi, uning dushman yurtida tug‘ilib, etimlikda ulg‘ayib, tahqir sabab ota yurtiga kelishi, «homiylar» nazariga tushib, yurt darg‘asiga aylanishi.

Ushbu motivlar «Go‘ro‘g‘li» dostonining «Qo‘rg‘on» versiyasida o‘zak motivlarni tashkil etadi. Qiyos esa «Go‘ro‘g‘li» dostonining ushbu dostonchilar mansub bo‘lgan urug‘-qabila tarixi, taqdirini ham o‘zida aks ettirganligidan dalolat beradi.

Doston tadrijining so‘nggi bosqichida islom dinining xalq dunyoqarashida etakchi mavqe egallashi barobarida bir qator obraz va motivlar Yangicha talqin oldi. Xususan, mifologik raqib Arab Rayhon obraziga aylandi, qahramon homiylari islomiy dunyoqarash qamrovida avliyo va payg‘ambarlar sifatiga kirdi. Bu o‘rinda Xizr va chiltan obrazlarining bu kungi badiiy ko‘rinishi va epik ot – Firko‘k obrazi talqiniga real ot sifatlarining qo‘shilishi ko‘rinishida to‘liq yakunlandi[11]. «Go‘ro‘g‘li» dostonining so‘nggi tadrijiy bosqichida doston syujeti va u bilan bog‘liq bosh qahramonlar hayoti zamonasi talablariga mos ravishda tahrir qilindi, Yangi talqinlar oldi.

Mifologik asosda paydo bo‘lgan qahramonning epos talqinida to‘liq xalq yo‘lboshchisi va hukmdori (sohibqiron)ga aylanganligi, qahramon hayoti va taqdiri, xalqning hayoti va taqdirini badiiy aks ettirishi, bobning ushbu qismida atroflicha tadqiq etildi.

Eposda qahramonning o‘z xalqi taqdirining qanday halqasida, qanday sharoitda dunyoga kelishi uning zimmasidagi tarixiy missiyasi nimadan iborat ekanligini aniqlashtiradi. Epos boshlanmasida qahramonning ota-onasi, naslu nasabi haqida tinglovchiga to‘liq axborot berish orqali bu holat anglatiladi[12].



Qahramon tugʻilishi arafasida epik Taka-YOvmit eli oʻz birligini, kuch-qudratini ichki urushlarda yoʻqotgan edi. Bunday elning kattayu kichigida – podshosidan podachisigacha oriyat, nomus, qadriyat qolmaydi. Ulus tariqday tarqoq yashaydi. Qorin gʻamida yolgʻon gapirishadi, oʻz yolgʻonlariga oʻzlarini ishontirib, koʻnikib qolishadi. Bu holat dostonning ikki oʻrnida juda aniq ifoda etilgan.

Birinchisi – Gajdumbek, Bibi Hilol, Ravshan asir tushib, bedarak ketganda hech kimning xayoli qalqimagan boʻlsa, **ikkinchisi** – Rayhon arab Yovmit elining sardori Ahmadbekning xotinini olib qochib ketganda, elda or oluvchi mard topilmaydi. Boʻlajak qahramon xalqining ikki katta guruhi – epik Yovmit va Taka elini qon jihatidan birikuvi natijasida olamga keladi. Yaʼni, Goʻroʻgʻli ota tomondan epik Yovmitlarga, ona tomondan epik Taka eliga bogʻlanadi. Goʻroʻgʻli ana shu parokanda, qadrini anglamagan avlodga qarama-qarshi tugʻilgan Yangi avlod vakili. U yurtni qon jihatidan, hududiy hamda or-nomus jihatidan ham biriktiruvchi, mamlakatni ichki va tashqi dushmanlardan xalos etuvchi bunyodkor avlod dargʻasi boʻlib tugʻiladi. L.N. Gumilov bu xil odamlarni passionar shaxs sifatida tadqiq etgan[13].

Qiyos etib qaralsa, tabiat va jamiyat qonunlari oʻrtasida koʻz ilgʻamas, hayratlanarli darajada uygʻunlik mavjud. Xuddi qish batnida bahor etilib, bahor qoʻynidan qish tugʻilib kelishidek, dushman orasida xalq xaloskori etiladi hamda ulugʻ davlatlar tanazzuli ham uning ichida paydo boʻladi. «Goʻroʻgʻli» dostoni magʻzidagi mifologik asos, yaʼni oʻlik olamdan tirik olamning yaralishi haqidagi tabiat hodisasini izohlovchi mif mohiyatan oʻzgarishsiz jamiyatning yashash va rivojlanish tarziga – etnoslarning paydo boʻlishi, tanazzuli va qayta kuchga kirishi hodisasini izohlashga koʻchdi. «Oʻlib-tirilish» keng maʼno qamrovini oldi. Yangi talqinlar paydo boʻldi. «Goʻroʻgʻli» dostonining asos magʻzida ushbu hodisa aks etgan.

Goʻroʻgʻlining dushman yurtida tugʻilib ulgʻayishi, uning va ota-onasining vatanga boʻlgan muhabbatlari, intilishlari magʻzida yurt boshiga tushgan kulfat, fojia aks etgan. Ravshanning shahzoda boʻlaturib qul sifatida sotilishi, Gajdumbekning SHoxdorxon saroyida mulozimlik qilishi zamirida bu fojia yanada boʻrtibroq koʻrinadi. Turk xalqlari tarixida ushbu holat bot-bot takrorlanib turgan. Ayni holatning umumlashma, barcha davrlarga mos keluvchi kartinasi «Kul tigin bitigi»da juda aniq bayon etilgan: «... Xoqonlik qilib turgan xoqonni yoʻqotib yuborgan. Tabgʻach xalqiga bek boʻladigan oʻgʻil bolasi bilan qul boʻldi, suluv qiz bolasi bilan choʻri boʻldi. Turk beklari turkcha otlarini tashladi. Tabgʻach beklarining tabgʻachcha otini qabul qilib... Tabgʻach xoqoniga turklarning davlatini, hukumatini olib beribdi... Tabgʻach xoqoni Turk xalqini oʻldirayin, urugʻin qirayin», – der ekan va uni yoʻqotib borayotgan ekan. Ammo yuqorida turk osmoni, turkning muqaddas eri, suvi shunday debdi: «Turk xalqi yoʻq boʻlmasin!» deb «xalq boʻlsin!» deb, otam Eltarish xoqoni, onam Elbilga xotunni tangri oʻz martabasida tutib, yuqori koʻtargan ekan»[14]. Ayni soʻzni Doro va Kir bosqinlari, Iskandar va arab istilosi, moʻgʻullar va soʻnggi rus mustamlakachilariga nisbatan ham aytish mumkin. Kul tegin soʻzlari ayni paytda, Goʻroʻgʻli oʻy-



kechinmalari, dardlari, armonlariga ham uyg'un. Kultegin ham Go'ro'g'li ham to'liq passionar shaxslardir.

Go'ro'g'li parokanda xalqni birlashtirdi. Uning orini olib, qadr-qimmatini tikladi. Bu paytga kelib uning yonida o'ziga hamfikir yigitlar to'plandi. Epik Taka-Yovmit zaminida Chambil bunyod bo'lib, Yangi saltanat tiklandi. Xalqning eski befarqligi yo'qoldi. Bu holning yorqin misoli «G'iro't ta'rifida» keluvchi ushbu voqeadir:

Bektosh arab qirq ming tilla tilagan,
 Bermoqchi bo'lganda otam Go'ro'g'li,
 Nomi turkman uvvos tortib jilagan.
 Elatning orini olgan bedovsan[15].

Bu o'rinda ot nafaqat G'irko'k, balki vatan timsoli. Agar diqqat etilsa, Shohdorxon yurtida tutqunlikda yurgan Ravshan va Gajdumbek o'lgan tulpor suyagini ko'rib, vatanlarini eslashgan, yurti ishqiy yuraklarini o'rtagan edi. Mohiyatan, bu o'lgan tulpor tanazzulga uchragan epik Taka-Yovmit yurtining ramziy obrazi edi. Ravshan va Gajdumbek davrida tulpor o'lib, uning suyagi xor bo'lib, xalq unga bee'tibor, befarq qarashgan bo'lsa, Go'ro'g'li davrida Yangidan tug'ilib, kuchga kirgan tulporning o'zi mavjud. Go'ro'g'li uni sotmoqchi bo'lsa, xalq sotishga qo'ymaydi. Eposda kuylangan bosh g'oya ham ana shunda; tanazzulga uchragan saltanat o'rnidagi Yangi saltanatning oriyatli, vatanparvar avlodlar tomonidan bunyod etilishi, uning gurkirab yashnashi va keyingi taqdirini ko'rsatishdadir. Dostonda Go'ro'g'li Yoshining bir yuz yigirma besh deb aytilishi ham bejiz emas. Bizningcha, bu Yosh nafaqat qahramonning, balki u tuzgan saltanatning Yoshini, ayni paytda, doston kuylovchilari mansub xalq – turkiylardagi saltanatlar, podshohlik sulolalari almashinuvining davriy o'lchamini ham bildiradi. Umuman, Turon va Turkiston tarixida sulolalar almashinuvining yil hisoblari o'rganib chiqilsa, ular o'rta hisobda har 120-130 yil oralig'ida Yangilanib kelayotganligini kuzatish mumkin. Bu holat esa beixtiyor Go'ro'g'li Yoshini esga soladi.

Xullas, biz yuqorida ko'rib chiqqan barcha fakt va kelingan xulosalar, «Go'ro'g'li» dostoni xalqimiz «taqdirnomasi» ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Aslida, har bir xalq hayotining mag'zi uning eposida aks etadi. Xalq o'z hayot tajribalarini badiiy mushohada qilib, eposlarida muhrlaydi. Buning jonli guvohi «Go'ro'g'li» dostonlaridir. «Go'ro'g'li» dostonining Qo'rg'on va Xorazm versiyalari Kaspiy bo'yi versiyalariga birmuncha yaqin kelishi bilan xarakterli. Bu yaqinlik esa, birinchi galda Qo'rg'on va Xorazm dostonchilarining asosini tashkil etuvchi baxshi-shoirlarning o'zbek xalqi etnik tarkibidagi o'g'iz guruhiga mansubligi muhim rol o'ynaydi. Qo'rg'on va Xorazm dostonchilari ijro etgan «Go'ro'g'li» dostonining boshqa o'zbek versiyalariga nisbatan Kaspiy bo'yi versiyalariga yaqinligi va serqatlamligi, Nurota va Xorazm baxshilarining Kaspiy bo'yi o'g'iz va turkman urug'lari o'rtasidagi adabiy madaniy aloqalarining mevasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қаҳҳоров А. Янги дostonлар. (Қашқадарё ва Сурхондарё халқ бахшилари репертуарлари асосида). – Т.: Фан, 1985. – Б. 5.



2. Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома. I-китоб. – Т.: “Мехнат”, 1999. – Б. 114.

3. Тахмасиб М. Проблема народности азербайджанских дастанов и современное состояние исследования и х // Вопросы изучения эпоса народов СССР. Москва: Наука, 1958. -С . 180.

4. Абрамян А., Габриелян Д. Неизданные песни “Кёр-оглы” // Известия АН Арм ССР. Общественные науки. — Ереван, 1954, №9. -С . 71-93.

5. Короглы Х. Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. -М .: Наука, 1983. -С . 169-247. 86.

6. Зарифов Х.Т. К изучению узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов СССР. -М .: Наука, 1958. -С . 122.

7. Брагинский И.С. О таджикском эпосе “Гургули”. — Указ. сб. — С . 134-135.

8. Жирмунский В.М.. Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. — Москва: ГИХЛ, 1947. -С. 165-279; Каррыев Б. А. Эпические сказания о Кёроглыг у тюркоязычных народов. — Москва: Наука, 1968; Короғлу. Озарбайжон достони. -Бакы: Элм, 1956; Гёроглы. Туркменский героический эпос. — Москва: Наука, 1983 (Туркман ва рус тилларида); Гуругли. Таджикский народный эпос. — Москва: Наука. 1987 (Тожик ва рус тилларида); Батыр-лар жыры, IV том. Кёруглы. -Алматы: Жазуши, 1989; Каракалпак фольклори, XV том, Горуглы. -Нукус: Каракалпакстан, 1986; FuzuliBayat. KorogluDestani. Istanbul: Otüken, 2009; Gorogli. Turkmenxalkdestani. 1-VIII jildlar. — Анқара, 1996 (Туркман ва турк тилларида); Кёр огълу // Дестанлар. -Тошкент, 1980. 49-63-бетлар. (Қрим Татар версияси); Мамадязов Б. Поэтика и современное бытование туркменского героического эпоса “Гёроглы”. Автореферат докт. дис. — Ташкент, 1990; Go‘ro‘g ‘li. Ўзбек халқ достонлари. — Тошкент: Шарқ, 2006.

9. Мирзаев Т. «Гўрўғли» туркуми достонларининг ўрганилиши, яратилиш даври ва дастлабки наشري ҳақида (Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Т. VII – Т.: “Фан”, 2018. (- 200 б) – Б. 88-89)

10. Ўша жойда. – Б. 88-89

11. Зарифов Х. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар / Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.65 – 89.

12. Гўрўғлининг туғилиши / Айтувчи Муҳаммад Жомрод ўғли Пўлкан. – Б.7.

13. Гумилев Л.Н. Монголы и меркеты в XII в. Ученые записки Тартуского гос. ун-та.– Тарту, 1977. – С.81 – 97.

14. Қадимий ҳикматлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.25.

15. Пўлкан шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.71.

**“ALPOMISH” DOSTONI ETNOGRAFIK MANBA SIFATIDA****Parda NORBUTAYEV,****Qarshi davlat texnika universiteti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alpomish dostonida tasvirlangan o‘zbek xalqining etnos sifatida shakllanishi, ularning ilk o‘rta asarlarda yashagan muhit va davri, tabiiy-geografik va ijtimoiy-siyosiy vaziyati, ayrim voqealar va obrazlar, etnonimlar va etnotoponimlarga doir tarixiy-etnografik ma’lumotlar ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Tayanch so‘zlar: etnos, folklor, epos, baxshi, etnik komponent, qo‘ng‘irot, qalmoq.

Аннотация: В данной статье научно анализируются формирование узбекского народа как этноса, описанного в эпосе «Алпомиш», среда и период, в котором они жили в раннесредневековых произведениях, их естественно-географическое и социально-политическое положение, историко-этнографические данные о некоторых событиях и образах, этнонимы и этнотопонимы.

Ключевые слова: этнос, фольклор, эпос, башши, этнический компонент, кунграт, калмык.

Abstract: In this article, the formation of the Uzbek people as an ethnos described in the epic of Alpomish, the environment and period in which they lived in the early medieval works, their natural-geographical and socio-political situation, historical-ethnographic data on some events and images, ethnonyms and ethnotoponyms are scientifically analyzed.

Key words: ethnos, folklore, the epos, bakhshi, an ethnic component, a Kungrat, a Kalmyk.

«Alpomish» dostoni [1] da tasvirlangan o‘zbek xalqining etnos sifatida shakllanishi, ularning ilk o‘rta asarlarda yashagan muhit va davri, tabiiy-geografik va ijtimoiy-siyosiy vaziyati, ayrim voqealar va obrazlar, etnonimlar va etnotoponimlar tarixiy-etnografik jihatdan ancha aniq, haqqoniy bo‘lib, muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, baxshi va shoirlar dostonni o‘z zamonasiga qarab turli davrda har xil tahlil va talqin qilib an’anaviy dostonchilik mohiyatini saqlab kelganlar. Shuning uchun ham unga tarixiy-qiyosiy uslub asosida bir oz tanqidiy yondashish zarur. Chunki har bir epik asarda xalqning o‘tmishi o‘ziga xos badiiy shaklda real tasvirlansa-da, unda muayyan ravishda ideallashtirish an’anasi seziladi[2].

Alpomish[3] da tasvirlangan voqealar dastavval O‘zbekiston hududiga eng oxirgi yirik qavmlar – Shayboniy o‘zbeklarining ko‘chib kelishi bilan bog‘liqligi aniq seziladi. Dostonda dasht qavmlarining ommaviy ko‘chishlari va ularning mahalliy o‘troq aholi bilan to‘qnashuvlari jonli kuylangan. Kelgindilar obrazi qo‘ng‘irot nomli chorvador qavmlaridan iborat tub o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi qalmiqlar deb atalgan. Ma’lumki, qo‘ng‘irotlar o‘zbek, qozoq



va boshqa turkiy xalqlar etnik tarkibida muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Dostondagi «o‘zbeklar» deb nomlangan qalmoq eli asli o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qavm turkumi, hozirgacha o‘zbeklarning etnik tarkibida «qalmoq» urug‘i saqlangan. Vaholanki, ular Oltoydagi chorvador qalmaq-oyratlarga hech qanday aloqasi yo‘q. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, Alpomishdagi kelgindi qalmoqlar ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda paydo bo‘lib juda katta qirg‘in va vayronagarchiliklar keltirgan jungar yoki mo‘g‘ul istilochilarining poetik tarzidagi ifodasi bo‘lishi mumkin[4].

Manbalarda qayd etilishicha, XVI asrda Movarounnahrda Dashti qipchoqdan kelgan qavmlar orasida qo‘ng‘irotlar borligi aniq. Ammo, «Shayboniyнома» muallifi ta’rificha, Muhammad Shayboniyxonga qarshi chiqqan Buxoro noibi Boqitarxonga qo‘shilgan mahalliy qalmoqlar tilga olinadi[5]. Bu erga o‘zbek qavmlari kelgunga qadar qalmoqlar mo‘g‘ullar bilan kelib joylashgan qavmlardan biri bo‘lishi mumkin. 1924 yilgi aholi ro‘yxatiga binoan sobiq Buxoro Xalq Respublikasida qo‘ng‘irotlardan keyin ikkinchi o‘rinda turgan (85.760 kishi), Xorazmda esa eng katta qavmiy turkum bo‘lgan (16.750). Boysundaryo vodiysi-da o‘sha vaqtda qo‘ng‘irotlar 3.5 mingdan ko‘proq kishidan iborat, o‘zbeklar tarkibida Buxoro vohasida o‘tgan asr o‘rtalarida qalmoqlarning soni 9 mingga yaqin bo‘lgan.

Ayrim mualliflarning ta’kidlashicha, Buxoro vohasi qo‘ng‘irotlarini rivoyatlarida ham ular bu erga taxminan 400 yil muqaddam, ya’ni Shayboniylar bilan bir vaqtda kelib joylashganlar. Mazkur fikrlarni, Alpomishdagi qo‘ng‘irot urug‘larining nomlari bilan Buxoro va Xorazm qo‘ng‘irotlari etnonimlarining o‘xshashligi tasdiqlaydi. Abulg‘ozining xabar berishicha, qo‘ng‘irotlar Xorazm vohasida XIV asrlardayoq ko‘chib yurganlar, «Alpomish» ning bosh qahramoni ham o‘z qavmining yaylovlari Amudaryo sohilida bo‘lganligini qayd qiladi, keyinchalik ular Shayboniy o‘zbeklari tomonidan siqib chiqarilib, Movarounnahrda ko‘chib ketganlar.

Qo‘ng‘irotlar chorvador o‘zbeklar orasida ancha katta subetnik guruhni tashkil qilgan. Asosan, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida joylashgan qo‘ng‘irotlarning ko‘pchiligi Qashqadaryoning hozirgi Qamashi, G‘uzor, Dehqonobod tumanlarida, Surxondaryoning Sherobodaryo va Qoratog‘daryo vodiylarida yashashadi. Bu erlarda qo‘ng‘irotlar juda katta guruhlariga uyushib, keng hududni egallagan[6]. Qo‘ng‘irot subetnoslarining ba’zi guruhlari Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand, Buxoro va Qorako‘l tumanlarida ham uchraydi.

Dostonda ko‘rsatilganidek, qo‘ng‘irotlar faqat chorvachilik bilan shug‘ullanganlar, dehqonchilikni bilmaganlar. Unda hikoya qilinganidek, ular o‘n minglab qo‘y, yilqi va tuyalarga ega bo‘lganlar. Tarixiy manbalarda ham Movarounnahrda kelgan Shayboniy o‘zbeklari nihoyatda ko‘p sonli chorvaga ega bo‘lganligini xabar qiladi. Ular o‘tovlarda yashab, yuklarini tuyalarga ortib, ko‘chmanchilikda hayot kechirganlar. Abulg‘ozining ko‘rsatishicha, XVI-XVII asrlarda Xorazmga Dashti Qipchoqdan kelgan Shayboniy o‘zbeklar chorvachilik bilan shug‘ullanib na hovli, na shaharga ega bo‘lmay, bir joyda istiqomat qilmaganlar[7]. Chorvadorlar ekinlarni otlari bilan bosib payhon qilganlar. Bunday holat tarixda ham uchraydi.



Masalan, Shayboniyxon qo‘shinlari O‘ratepani bosib olganda, uning farmoni bilan aholini butunlay talon-taroj qilibgina qolmay yashil ekinlarni poymol qilib, otlarga em qilib berishni buyurgan[8]. Shubhasiz, «Alpomish» dagi mazkur voqealarda uzoq tarixiy davr ichida o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan shahar madaniyati yaratgan etnoslar bilan dashti qipchoqlik va boshqa kelgindi chorvador qavmlar orasidagi to‘xtovsiz to‘qnashuvlar o‘z ifodasini topgan.

Dostondagi muhim etnografik ma‘lumotlar ichida urug‘-qavmchilik munosabatlari o‘rtasidagi hikoyalar diqqatga sazovor. O‘zbeklarning urug‘ qavmlari haqidagi ma‘lumotlar G. Vamberi, N.A. Aristov, A.B. Xoroshxin, N.V. Xanikov, A.D. Grebenkin, I.P. Magidovich va boshqa mualliflarning asarlarida tahlil qilingan. Masalan, N.V. Xanikov o‘zining Buxoroga bag‘ishlangan risolasida xonlikda o‘zbeklarning 97 urug‘i borligini yozadi. 1924 yilda Buxoro Xalq Respublikasi hududida 150 dan ortiq urug‘-qavm nomlari borligi ko‘rsatilgan[9]. Alpomishda tasvirlangan ijtimoiy tuzum tabaqalangan o‘ziga xos Osiyo tipidagi ilk feodalchilik jamiyatini eslatadi. Unda katta chorvaga ega yirik mulkdor zodagonlar va qashshoqlashgan mehnat ahli tilga olinadi, feodallar solig‘i (zakot va sursot) to‘g‘risida gapiriladi. Ammo Yangi kurtak otayotgan tuzum chorvador aholiga xos davr saqlanib kelgan patriarxal urug‘chilik an‘analariga tayanadi. Dostonda ko‘rsatilgan qo‘ng‘irot subetnosining 16 qismga bo‘linganligi, undagi juft guruh urug‘lar (Tortuvli-Qo‘ng‘irot, Qo‘sh tamg‘ali-Qo‘ng‘irotning) mavjudligi dual urug‘chilik jamiyati tartibi saqlanganligidan darak beradi. Bu fikrni eposda tasvirlangan aka-uka Boybo‘ri va Boysari orasidagi raqobat ham bilvosita tasdiqlaydi. Bunday holat deyarlik barcha folklor asarlarda uchraydi va uni ibtidoiy jamiyatga xos fraternal dualizm tuzum qoldiqlari hisoblashadi. Atoqli o‘zbek folklorchi olimi H.T. Zarifovning aytishicha, dostonning Berdi baxshi variantida dualizm ancha aniq ko‘rsatilgan. Eposdagi qavm aniq ikki qismga bo‘linib, undagi er mulki va boyliklar ham ikkiga ajralgan.

Urug‘-qavmchilik an‘analarining dostonda kuylangan elementlaridan xun olish qoidasi (Surxayil kampir qalmoq xondan qurbon bo‘lgan o‘g‘illari uchun xun o‘rniga boylik taklif etadi), urug‘ maslahatida muhim masalalar (bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish yoki nikohlashtirish) ni hal qilish kabilar muhim o‘rin olgan.

Qo‘ng‘irotlarning geneologiyasi muammosini ko‘plab tadqiqotchilar yechishga harakat qilishgan[10]. SHunga qaramay, mazkur muammo hozirgi kunda o‘zining to‘liq yechimini topgan deb bo‘lmaydi. CHunonchi, bu borada ayrim olimlar ularni Dashti Qipchoqda turklashib ketgan mo‘g‘ul qavmlaridan biri deb hisoblashadi. Qozoq dialektologi S. Omonjo‘lov qo‘ng‘irotlarni tub turkiy urug‘lardan deb hisoblaydi[11].

Qo‘ng‘irotlarning kelib chiqishi masalasi o‘rganilayotganda Mo‘g‘uliston hududida yashagan qo‘ng‘irotlarning dastlabki etnik tarkibini XIV asr va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoning ikki daryo oralig‘ida yashagan qo‘ng‘irotlardan ajrata (farqlay) bilish zarur[12].

Bu borada chalkashliklarga duch kelmaslik uchun dastlabki qo‘ng‘irotlar mo‘g‘ullar yilnomasida ung‘iratlar deb atalganini ta‘kidlab o‘tish joiz[13].



Taxminlarga ko'ra, ung'iratlarining kelib chiqishi milodgacha bo'lgan IV asrga oid Xitoy yilnomasida tilga olingan dunxu qavmi bilan bog'liq[14].

Tarixdan ma'lumki, milodgacha bo'lgan 209 yilda dunxu qavmi Xunn hukmdori Maodunga bo'ysungan. Milodning I–II asrlarida dunxu qavmining etnik madaniy an'alarini syanbi va uxuan qavmlari vakillari davom ettirishgan. Syanbilarning avlodlaridan biri shiveylar bo'lgan. Ularni qadimgi turkiy manbalarda to'quz tatarlar, deb atashgan. Ung'iratlar ajdodi janubiy shiveylar – To'quz tatarlar tarkibiga kirgan bo'lishi ham mumkin. IX asr oxiri – X asr boshlarida ular Kidan qavmi tarkibida bo'lgan[15]. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ung'iratlarining avlodlari – olkunlar VII asrda qadimgi uyg'urlarning elteber unvoni sohiblari bilan qiz berib, qiz olgan[16]. Ung'iratlar haqida dastlabki ma'lumotlar biri X asr yozma manbalarida tilga olingan. 1125 yildan keyin ung'iratlar chjur-jenlarning Sin davlati vassaliga aylanishgan. X asrda Xo'tancak hujjati bilan Gan-chjou uyg'urlari davlatida qo'ng'ir etnonimi qayd etilgan[17].

Tadqiqotchilar fikricha, “qo'ng'iro't” so'zi “malla” (sariq) va “qizg'ishtob” degan ma'nolarni anglatib, O'rta Osiyo xalqlarida “qo'ng'iro't” so'zi “jigarrang ot” ma'nosida qo'llanilgan[18]. Xalq orasidagi rivoyatlarda esa qo'ng'iro'tlarning “qo'ng'ir ot egasidan tarqalgan” degan fikr keng tarqalgan. Chunonchi, Surxondaryo viloyati qo'ng'iro'tlari orasidagi rivoyatga ko'ra, Buxoro amiri kunlardan birida ko'pkari o'tkazadi. Ko'pkarida qo'ng'ir ot egasi bo'lgan Gudraybiy g'olib chiqadi. Shunda amir ko'pkarida g'olib chiqqan o'tning egasini toptirib, unga “xohlagan tilagingni tila” deydi. Shunda Gudraybiy undan o'z eli uchun katta bir dashtni berishni so'ragan ekan. Amir uning shartiga rozi bo'lib, G'uzor dashtini bergan ekan. Boshqa bir rivoyatga ko'ra, qo'ng'iro'tlarning bosh bobosi Mamatqul Gudraybiy bo'lib, undan besh o'g'il qoladi. Katta o'g'li Alijonbekdan qo'shtamg'ali, Jonuqulbekdan oqtamg'ali, Mullajondan oyinni, Haydarqulbekdan qanjig'ali, Holuqulbekdan tortuvli urug'lari tarqalgan ekan[19].

Shunga o'xshash afsonani 1928 yil taniqli o'zbek folklorshunosi H. Zarifov G'uzor-Boysun dashtlarida yashovchi qo'ng'iro'tlardan yozib olgan va keyinchalik bu ma'lumotlar rus etnografi L. P. Potapovning maqolasida hamda B. X. Karmishevaning kitobida ham keltirilgan. Ushbu rivoyatga ko'ra, Chingizxon o'z qo'shini bilan qo'shni yurtga hujum qiladi. Bu jangda u yengilib chekinishga majbur bo'ladi. U dashtda horib chekinishi natijasida oti holdan toyadi. Dushman uni siquvga ola boshlaydi. Xuddi shu lahzada uning oldidan qo'ng'ir otli chol (ba'zi axborotchilar uning ismi (Qo'ng'irbiy deyishadi) chiqib qoladi. Chol unga o'z otini taklif qilib; “Men oddiy bir cholman. Vafot qilsam, hech narsa o'zgarmaydi. Lekin, sen halok bo'lsang, davlating halokatga uchraydi”, – deydi. Chingizxon otni olib, cholni o'z saroyiga tashrif buyurishini, saroyga kelishi bilan boshidagi bo'rkni tepaga irg'itib qichqirishini, aks holda saroy qo'riqchilari uni saroyga kiritmasliklarini aytadi. Shu tariqa Chingizxon hayoti saqlab qolinadi. Chol uning aytganlarini bajarib, saroyga kelganida Chingizxon uni tanib saroyda raqqosalar ishtirokida mehmon qiladi. Shundan so'ng choldan qanday istagi borligini so'raydi. Chol undan bir otar qo'y va ularni boqish uchun keng dasht hamda uni mehmon qilgan raqqosalardan birini unga berishini so'raydi. So'ngra



Chingizxon cholning barcha aytganlarini bajo keltiradi. Aynan shu choldan qo'ng'irotlar tarqalgan. U tuhfa qilgan dasht G'uzor – Boysun dashti bo'lgan ekan[20].

Qo'ng'irotlar ko'p sonli o'zbek urug'idan biri bo'lib, son jihatdan Sharqiy Buxoro (Janubiy O'zbekiston) hududlarida mang'itlardan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Ular asosan XX asrning boshlarida G'uzordan Termizgacha bo'lgan hududda va Bobotog'ning g'arbiy qismlari atroflarida yashagan. 1924 yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga qaraganda, mana shu hududlarda yashovchi qo'ng'irotlar 37148 kishini tashkil etgan[21]. Ulardan Boysundaryo vohasida 3955 kishi, Sherobod hududlarida 16621 kishi, Termiz atroflarida 3225 kishi va Surxonda 9453 kishidan iborat bo'lgan[22].

I.P.Magidovichning fikricha, Janubiy O'zbekiston hududiga qo'ng'irot urug'ining Xorazm va unga tutash mintaqalardan kelib joylashgan bo'lib, Xorazm hududidagi o'zbeklarning asosiy qismini Shayboniyxon bosqinigacha mana shu hududlarda yashovchi qo'ng'irotlar tashkil etgan. SHu bois, XVI asrda Shayboniylar qo'shini tarkibida bo'lgan qo'ng'irotlar qozoq xalqi tarkibidagi qo'ng'irotlar emas, balki, Xorazm qo'ng'irotlari ekanligiga e'tibor qaratish lozim bo'lgan[23]. Binobarin, qozoq va o'zbek xalq tarkibidagi qo'ng'irot subetnik guruhiga mansub urug' nomlarining bir-biriga to'g'ri kelmasligi ham shu fikrni tasdiqlaydi[24]. XX asr boshlarida N.F.Sitnyakovskiy tomonidan Janubiy O'zbekiston qo'ng'irotlaridan yozib olingan dala yozuvlariga ko'ra ular o'zlarini Xiva qo'ng'irotlarining avlodlari deb bilishgan va Sharqiy Buxoro (ya'ni Janubiy O'zbekiston) hududlariga bundan 400 yil oldin ko'chib kelishganligini aytishgan. Tadqiqotimiz davomida Sharqiy Buxoro (Janubiy O'zbekiston) qo'ng'irotlari Xorazm vohasida yashagan qo'ng'irot urug'larining avlod-ajdodi ekanligini aniqladik.

A.T.Jdanko tomonidan Xorazmdagi o'zbek qo'ng'irotlari tarkibi bilan qoraqalpoq qo'ng'irot urug'ining etnik shajarasi taqqoslanganda ko'pchilik urug' nomlari bir-biriga to'g'ri kelishi aniqlangan. Bundan tashqari, ularning urug' boshliklari nomlari, marosim, e'tiqod va bir qancha moddiy madaniyati namunalari o'xshashligi ko'rsatib o'tilgan[25]. V.G.Moshkovaning fikricha, o'zbek va qoraqalpoq qo'ng'irotlari Xorazm va unga tegishli Sirdaryo havzasi atroflarida qachonlardir bir etnik asosdan kelib chiqqan[26]. Janubiy O'zbekiston hududida yashovchi qo'ng'irot subetnik guruhining urug' nomlari bilan Xorazm va Qoraqalpog'istondagi qavmdoshlarining etnik atamallari, ya'ni: achamayli, bolg'ali, bog'ajili, qanjig'ali, qorqursak, qo'shtamg'ali, tortuvli tog'uzlar kabi etnonimlar bir-biriga to'g'ri keladi. Janubiy O'zbekistondagi qo'ng'irot urug'i nomlarining beshtasi xorazm o'zbek qo'ng'irotlari tarkibidagi «barak», «borboy», «jilontamg'ali», «qorbura», «nog'ay» etnonimlari bilan aynandir. Qoraqalpoq qo'ng'irotlarining «aynnli», «oqpichoq», «boymoqli», «qozoqli», «qo'yin», «qurama», «tarakli», «urus», «kandekli», «gaujayli gollik», «cho'michli», «irgakli», «turkman» kabi urug' nomlari Janubiy O'zbekiston qo'ng'irot urug'i tarkibida mavjudligi aniqlangan[27].

Janubiy O'zbekiston hududida yashovchi qo'ng'irot urug'i nomlarining 13 tasi Xorazm qo'ng'irotlari urug' nomlari bilan 32 tasi qoraqalpoq qo'ng'irotlari



urug' nomlari bilan mos keladi. Surxondaryo vohasi aholisining antropologiyasi va etnik xususiyatlari masalalari bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan K.Najimov vohada yashovchi qo'ng'irotlarning asosiy qismi bundan 400 yillar oldin Xorazmdan ko'chib kelganliklarini ta'kidlaydi[28]. Janubiy O'zbekiston qo'ng'irot urug'i «Alpomish» dostonidagi epik talqin asosida G'uzor va Boysun tumanlari atroflarida joylashgan Jiydali Boysunni o'zlarining vatani deb bilishadi.

Bir qancha tadqiqotchilarning fikricha, qo'ng'irotlarning Qashqadaryo va Surxondaryo hududlariga kelib joylashishi XVI asrdan avval ro'y bergan. O'rta asrlarning tarixchilaridan biri Rashididdinning fikricha, Chingizxon o'z o'g'li Chig'atoyga bo'lib bergan 4000 ta mo'g'ul harbiysidan 1000 tasi qo'ng'irot urug'iga mansub bo'lgan[29]. Bundan ma'lum bo'ladiki, qo'ng'irotlarning Qashqadaryo va Surxondaryo hududlariga kelib joylashishi XIII asrning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Xulosa shuki, XIII-XVI asrlardagi etnosiyosiy jarayonlar natijasida Surxondaryo vohasi hududlariga kelib joylashgan qo'ng'irot urug'ining ma'lum bir qismi XVIII asrning boshlarida tabiiy sharoitlardan kelib chiqqan holda Qashqadaryo vohasi hududlariga o'rtnashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алпомиш (Берди бахши вариантынинг матни, сўзбоши ва луғат). –Т.: Фан, 1969; Алпомиш (Фозил Йўлдош ўғли вариантыни нашрга тайёрловчи: Х.Олимжон, Д.Зарифов, Т.Мирзаев). — Т: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979; Алпомиш. Рустамхон. Ўзбек халқ дostonлари (“Алпомиш” дostonининг Фозил Йўлдош ўғли вариантыни нашрга тайёрловчи: Д.Олимжон, Х.Зарифов, Т.Мирзаев). — Т: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985; Алпомиш (нашрга тайёрловчи Т.Мирзаев). — Т: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987; Алпомиш (дostonдан парчани нашрга тайёрловчи: Т.Мирзаев) // Эпос. -Т: Ёш гвардия, 1987; Алпомиш. 1-жилд. Нашрга тайёрловчи: Х. Зарифов, Т. Мирзаев. — Т: Ўзбекистон, 1992; Алпомиш. 2-жилд. Нашрга тайёрловчи: Д. Зарифов, Т. Мирзаев. — Т: Ўзбекистон, 1992; Алпомиш. Сўзбоши, матн, луғат муаллифи: Т.Мирзаев. -Т: Шарк, 1998; Алпомиш. Бекмурод бахши варианты. Сўзбоши муаллифи ва матнни нашрга тайёрловчи: Т.Мирзаев. — Т: Ёзувчи, 1999; Алпомиш. Берди бахши варианты. Сўзбоши муаллифи ва матнни нашр-га тайёрловчи: Т.Мирзаев. — Т: Фан, 1999; Алпомиш. Пулкан шоир варианты. Матнни нашрга тайёрловчи: Т.Мирзаев. -Т: Ёзувчи, 1999; Алпомиш. Ёдгор. Саидмурод Паноҳ, ўғли ва Фозил шоир вариантлари. Сўзбоши муаллифи ва матнни нашрга тайёрловчи: Т. Мирзаев. — Т: Ёзувчи, 2000;

2. Соколова В. К. Фольклор как историко-этнографический источник // С.Э. 1960. № 4.

3. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 1-жилд. “Алпомиш” дostonи (Фозил Йўлдош ўғли варианта). -Т: Фафур Фулом, 2015. — 512 б.; Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 4-жилд. “Алпомиш” дostonи (Муҳаммадкул Жонмурод ўғли Пулкан ва Эргаш Жуманбулбул ўғли, Бердиёр Пиримкул ўғли, Саидмурод Паноҳ ўғли вариантлари). —Т: Фафур Фулом, 2015. — 444 б.; Ўзбек халқ



ижоди ёдгорликлари. 10-жилд. “Алпомиш”. Бекмурод Жўрабой ўғли ва Эгамберди Олломурод ўғли вариантлари. Масъул муҳаррир: М.Жўраев. – Т.: Фафур Фулом, 2016. — 512 б.

4. Вопросы изучения эпоса народов... М., 1958. – С. 38, 114-117.

5. Мукминова Р.Г. К вопросу о переселении кочевых узбеков в начале 14 в. // Изв. АН Узбекистана, 1954. Кн. 1. Территория и население Бухары и Хорезма. Ч. 1, Бухара. Ташкент, 1926. – С. 187, 211.

6. Дала ёзувлари. Дехқонобод тумани Хўжамахмуд кишлоғи ва Бойсун тумани Хўжабулғон, Чилонзор, Мунчок, Газак, Панжоб, Сайроб, Тиллакамар кишлоқлари. 2019 йил.

7. Абулгази Бахадирхан. Родословное древо тюрков // Изв. Об-ва археологии, истории и этнографии при Казанском ун-те. Т. XXI. Вып. 5-6. Казань, 1905. – С. 175.

8. Мукминова Р.Г. Кўрсатилган асар. – Б. 73.

9. Материалы по районированию Средней Азии. – С. 174.

10. Ситняковский Н. Ф. К генеалогической таблице узбеков рода Кунград // ИТОРГО. 1907. Т. 7; Потапов Л. П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков «Кунград» // Научная мысль. – Ташкент–Самарканд, 1930. – №1. – С. 37–57; Potapovs L. P. Materialien zur Kulturgeschichte der Uzbeken aus den Jahren 1928–1930. Mit begleitenden Worten des Sammlers herausgegeben und eingeleitet von Jakob Taube Harrassowitzs Verlag. – Wiesbaden, 1995. – 244р. Маликов А. М. Узбеки группы кунград долины Зерафшана в XIX – начала XX в. – Самарканд, 2007.

11. Омонжолов А. С. Вопросы диалектологии и истории казахского языка. – Алма-Ата, 1959. – С. 9,14, 16.

12. Маликов А. М. Узбеки группы кунград долины Зерафшана... – С. 27.

13. Козин С. А. Сокровенное сказание. Монгольская хроника 1240 года. Т.1. – М.–Л., 1941. – С. 116, 133.

14. Маликов А. М. Узбеки группы кунград долины Зерафшана... — С. 27.

15. Викторова Л. Л. Монголы. Происхождение народа и истоки культуры. – М., 1980. – С. 165.

16. Зуев Ю. А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. – Алма-Ата. 2002. – С. 138, 140.

17. Ўша жойда. – С. 138, 140.

18. Кубаков Қ. XIX аср охири – XX аср бошларида Юқори Қашқадарё кишлоқ аҳолиси этник таркиби: Тарих фан.ном. ... дис. қўлёзмаси. – Тошкент, 1973. – Б. 94.

19. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Дехқонобод тумани Оқиртма ва Қизилча кишлоқлари. 2010 йил.

20. Потапов Л. П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков “Кунград” // Научная мысль. – Ташкент–Самарканд, 1930. – №1. – С. 38–39; Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976.– С. 220 – 221.



21. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана... — С. 86.
22. Жабборов И. Этнический состав населения долины Сурхана // Замонавий бадиий маданиятда фольклор ва халқ ижодиёти. Бойсун баҳори очик фольклор фестивали материаллари. – Бойсун. 2002. – Б. 74.
23. Магидович И. Материалы по районированию Средней Азии» кн. 1. «Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 1. Бухара. ч. II Хорезм, — Т.; 1926. — С. 189.
24. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана... — С. 212.
25. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. — М.-Л., «Изд АН СССР», 1950. — С.121.
26. Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен // Труды Института истории и археологии. Т. II. – Т.; 1950. — С. 156.
27. Ўша жойда. – Б. 157.
28. Наджимов К. Антропологический состав населения Сурхандарьинской области. — Т.: «САГУ», 1958. — С. 77.
29. Рашиддин. «Сборник летописей». Т.1. Книга первая. — М.-Л., Изд-во АН ССР, 1952.



ZIYOLI KADRLARNI TAYYORLASH JARAYONLARINING HUQUQIY ASOSLARI

**Shaxnoza TASHEVA,
Qarshi davlat universiteti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ziyoli qatlamni shakllantirish uchun O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrlaridan boshlab bugungi kunga qadar amalga oshirilgan huquqiy islohotlar, davlat boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ular doirasida amalga oshirilgan yangiliklar haqida fikr yuritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые реформы, реализованные в Узбекистане с момента обретения независимости и до сегодняшнего дня, а также нормативно-правовые акты, принятые органами государственного управления, и нововведения, осуществленные в их рамках, направленные на формирование интеллигенции – слоя, имеющего важнейшее значение для жизни общества.

Abstract: This article explores the legal reforms undertaken in Uzbekistan from its independence to the present day, along with the regulatory legal acts adopted by state governing bodies and the innovations implemented within their scope, all aimed at fostering the intellectual class – a stratum of paramount importance to societal life.

Kalit so'zlar: ziyoli, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Konstitutsiya, normativ-huquqiy aktlar, Qonun, BMT Bosh Assambleyasi, Oliy Kengash, Oliy Majlis, siyosat, vazirlik, islohot.

Ключевые слова: интеллигенция, Всеобщая декларация прав человека, Конституция, нормативно-правовые акты, Закон, Генеральная Ассамблея ООН, Верховный Совет, Олий Мажлис, политика, министерство, реформа.

Keywords: intelligentsia, Universal Declaration of Human Rights, Constitution, regulatory legal acts, Law, UN General Assembly, Supreme Council, Oliy Majlis (Supreme Assembly), politics, ministry, reform.

Ziyoli kadrlarni shakllantirishda eng muhim omil bu-ta'lim jarayonidir. Jamiyatning har bir a'zosi bilim olish huquqiga egadir. Bilimlarimiz bizni tabiatning eng mukarram va takrorlanmas vakili sifatida namoyon qiladi.

Insoniyatning huquq va erkinliklar doirasida asriy orzusining ro'yobga chiqishi bu Inson huquqlarim Umumjahon Deklaratsiyasining qabul qilinishi bilan bog'liqdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan va tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan so'zsiz ratifikatsiya qilinadigan mazkur hujjat 1948-yilning 10-dekabrida qabul qilingan.

Inson huquqlarim Umumjahon Deklaratsiyasi insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlarini tartibga soluvchi hujjatdir. Deklaratsiyaning 26-moddasida quyidagi fikrlar keltirilgan:

Jamiyat barqaror rivojlanishi uchun ta'lim kam deganda boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi kerak. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi lozim.



Texnikaviy va hunar ta'limi barchaga muhayyo etilishi, oliy ta'lim esa har bir odamning qobiliyati asosida barcha uchun bir xil muhayyo etilishi kerak.

Ta'lim inson shaxsining barkamolligiga hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatning ortib boraverishiga qaratilishi lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasidagi hamjihatlikka, sabr-bardoshga va do'stlikka ko'maklashishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotning tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordamlashishi kerak. Ota-onalar yosh bolalari uchun ta'lim turini tanlab olishda nufuzli huquqqa egadilar.

Mazkur qoidalar O'zbekiston Respublikasining Milliy huquqiy tizimida ham aks etgan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida aks ettirilgan: Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan boshlab davlat siyosatining asosini milliy tiklanishdan milliy yuksalishga erishish g'oyasi asosida olib bordi. Mustaqillikning ilk yillarida amalga oshirilgan islohotlar zamirida milliy tiklanish jarayonlarini boshdan kechirdik. Ta'lim tizimi islohotlari bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi. Bu jarayonni "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun misolida ko'rishimiz mumkin.

Jamiyatda milliy ruhdagi ziyoli kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ilk "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 1992-yil 2-iyulda qabul qilindi. Mazkur Qonun 44 ta moddadan iborat bo'lib, o'z davriga xos bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ustuvorligini tan olgan holda qabul qilingan edi. Mazkur qonunning II bo'limida Ta'lim tizimi yoritilgan bo'lib, unda maktabgacha tarbiya; umumiy ta'lim; maktabdan tashqari ta'lim; hunar-texnika ta'limi; o'rta maxsus ta'lim; oliy ta'lim; ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash; kadrlarning kasbkor malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; oiladagi ta'lim; mustaqil ta'lim kabi ta'lim olish turlari ko'rsatilgan edi.

O'zbekiston Respublikasida 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonun ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining IV sessiyasi topshirig'iga binoan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun loyihasiga doir taklif va mulohazalar keltirish masalasi uchun Madaniy merosni asrash qo'mitasiga yuklatildi. Ushbu qonun o'z vaqtida muhim bo'lgan bo'lsa-da, ammo ta'lim tizimini isloh qilishning amaliy chora-tadbirlari, ta'lim tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksizlikni ta'minlash muammolarini yecha olmadi. Ta'lim tizimidagi yig'ilib qolgan muammolar 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonunni va kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishiga sabab bo'ldi.



Shu xususda O‘zbekiston mustaqilligining ilk davrlaridanoq ziyoli kadrlarni shakllantirishga befarq qololmasdi. Bunga misol qilib “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishini olishimiz mumkin. Mazkur qonunni qabul qilishdan maqsad davlatning jamiyat va davlat manfaatlarini uchun xizmat qiladigan barkamol shaxslarni voyaga yetkazishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Mazkur Qonun orqali Respublikaning 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarga taalluqli yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy negizini belgilab berdi va uni tegishli qonunlarni rivojlantirish hamda tizimga solish uchun asos deb e‘tirof etildi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va davlatimizda barcha sohalarda ish yuritishning “O‘zbek” tilida yuritilishi milliy o‘zlikni anglashning ilk qadamlaridan sanaladi. Xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida hattoki to‘garaklargacha 1991-1992 yillarda ish yuritish o‘zbek tiliga o‘tkazilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shundan kelib chiqib “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining qabul qilinishi”ni olsak. Mazkur Qonun 1993-yilning 2-sentyabr sanasida qabul qilingan bo‘lib, bunda O‘zbek alifbosining 1929-1940 yillardagi tajribasi asos qilib olinganligi qayd etiladi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyin amalga oshiriladigan islohotlar zamiridan ko‘zlangan maqsad har tomonlama yetuk, jahon standartlariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni taqozo etardi. Kadrlar tayyorlashning yagona tizimini yaratishga alohida e‘tibor qaratgan holda, “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” qabul qilindi.

2020 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirdagisiga imzo chekildi va bu bilan eski tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” o‘z kuchini yo‘qotdi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni nisbatan mukammal qilib ishlab chiqilgan bo‘lib uning har bir moddasida ta’lim sohasidagi islohotlar yanada taraqqiy ettirilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Maktabgacha ta’lim, tizimini takomillashtirishga qaratilgan siyosat olib borilishi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom asosida tartibga solindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Prezidentning qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror asosida Respublika hududida davlat va davlat xususiy - sherikchiligi asosidagi bog‘chalarni rivojlantirishga va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi kengashining Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarining birinchi bosqichi doirasida 2023-yil 1-yanvardan boshlab ixcham, professional boshqaruv tamoyillariga asoslangan va samaradorlikka yo‘naltirilgan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazirliklar, qo‘mitalar, agentliklar va inspeksiyalarni o‘z ichiga oladigan yaxlit tizimini shakllantirish to‘g‘risidagi taklifi asosida O‘zbekiston



Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining saytida e'lon qilingan ma'lumotga ko'ra Respublikamizda 2024-yil dekabr holatiga ko'ra 219 ta „Barkamol avlod maktablari“, 10163 ta maktab, 3ta mehribonlik uyi faoliyat yuritib, ularda umumiy 6.4 mln. o'quvchi ta'lim olayotganligi qayd etiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) o'quvchilarning ta'limdagi ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur — PISA'ning 2022-yilgi natijalarini e'lon qilindi. Tadqiqotda 81 mamlakat va hududdan 690 mingdan ortiq 15 yoshli maktab o'quvchilari ishtirok etdi. Unda O'zbekiston, Kambodja, Salvador, Yamayka, Mongoliya va Falastin kabi ba'zi davlatlar birinchi marta ishtirok etdi.

O'zbekistonning PISA dasturlarida ishtirok etishi uning kelajagi bunyodkori bo'lmish yosh avlodning sog'lom va mustaqil, kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan harakatlar majmuining bir bo'lagi hisoblanadi.

Maktab ta'limini shakllantirish O'zbekiston Respublikasining ziyoli qatlamini shakllantirishda ma'naviy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab ishlarining davlat nazoratida ekanligi, maktabda ish yuritishda xodimlar mehnatini qardlash va ularni rag'batlantirib borish ayniqsa ahamiyatlidir. Buning natijasi o'laroq milliy tiklanish davri ta'lim sohasida olib borilgan siyosat natijasini bugungi kunda ko'rib turibmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 1948 yil, 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 á(Sh) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .2023-Yil 30-Aprel. 50-Modda

3. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida qonuni .1992-yil 2-iyul.

4. O'zMA M-137 fond Ro'yxat №1. 137-b.

5. X. G. Rustamjonovna "O'zbekiston respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar". Journal of new century innovations.39-b

6. O'ZMA M-97, ro'yhat N-1; 3-yig'ma jild. 30-bet.

7. Lotin Yozuviga Asoslangan O'zbek Alifbosini Joriy Etish To'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 02.09.1993 Yildagi 931-Xii-Son.1-Modda.

8. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2007 yil, 43-son O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida NIZOM.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 21.12.2022 y.PF-269 son 9-xat boshi.

10. A.Shlyayxer "Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak". "Zamin nashr ".2022y.



БУХОРО ХУНАРМАНДЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ҲАЁТИ ВА УРФ-ОДАТЛАРИ

Анвар ТЎРАЕВ,

Бухоро давлат университети

a.i.turaev@buxdu.uz

Таянч сўзлар: Бухоро хунармандлари, жун тўқималар, гиламдўзлик, арқондўзлик, дехқончилик, “бел боғлаш”, “гулт сурх”, “арвоҳи пир”, оқсоқол, Моҳи-хоса, халфа, шогирд, қудуксозлик, ўймакорлик, совунгарлик, сартарошлик.

Ключевые слова: Бухарские ремесленники, шерстяные ткани, ковроткачество, веревочное производство, земледелие, “поясание”, “гули сурх”, “дух наставника”, старости, Моҳи-хосса, халфа, ученик, колодезное дело, резьба по дереву, мыловарение, парикмахерское дело.

Key words: Bukhara craftsmen, woolen textiles, carpet weaving, rope making, “is”, agriculture, “belt-tying”, “gul surkh”, “spirit of the mentor”, elder, Mohi-Hosa, khalifa, apprentice, well-making, wood carving, soap making, barbering.

Резюме: Ушбу мақолада Бухоро воҳасидаги анъанавий хунармандчилик машғулотларини ривожланиб бориш тарихи, улар томонидан ўтказилиб келинган урф-одат ва маросимлар ҳақида ёритилиб ўтилган. Хунармандлар ҳар куни эрталаб иш бошлашларидан олдин, ўз пирларидан мадад сўраб, фотиҳа ўқиган. Шунингдек, мақолада шогирд уста хунармандлардан қўл олиб, хунарни мукамал равишда ўзлаштириб олганидан сўнг, шогирдни уста бўлганлиги муносабати билан “бел боғлаш” маросимини кенг жамоа билан ўтказиш одатлари ҳам баён қилинган. Хунармандчиликнинг ижтимоий фаолияти яъни дўконларни тозалаш, ўчоқ ва ёғочларни қайта созлаш билан боғлиқ удумлар келтириб ўтилган.

Резюме: Резюме: В данной статье подробно освещена история развития традиционных ремесел в Бухарском оазисе, а также обычаи и обряды, соблюдаемые ремесленниками. Перед началом работы ремесленники ежедневно читали молитвы и искали благословения у своих духовных наставников. Кроме того, в статье описан обряд “поясания”, проводимый в широком кругу после того, как ученик полностью осваивал ремесло под руководством мастера. Также упоминаются социальные аспекты ремесленной деятельности, такие как уборка мастерских, восстановление очагов и деревообработки.

Summary: This article provides a detailed account of the history of traditional craftsmanship in the Bukhara oasis, as well as the customs and rituals observed by craftsmen. Before starting their daily work, craftsmen would recite prayers and seek blessings from their spiritual mentors. Additionally, the article describes the “belt-tying” ceremony, a tradition held in a large gathering to celebrate when an apprentice had fully mastered the craft under the guidance of a master. The article also mentions the social aspects of craftsmanship, such as cleaning workshops, restoring hearths, and working with wood.



Кўп асрлик ривожланиш йўлини ўзбек халқининг турли-туман ҳунарлари ўзига хос қадимий анъаналарга эга бўлиб, Ўрта Осиёнинг иқтисодий, сиёсий ҳамда маданий ҳаётида салмоқли ўрин эгаллаган Бухоро ҳунармандлари аждоддан-авлодга, устоздан-шогирдга мерос тарзида ўтиб, XIX аср охири - XX аср бошларида қадар ҳам мавжуд эди.

Тўпланган этнографик манбаларга асосланиб, воҳада XX аср бошларига қадар 40 га яқин хонаки касб ҳунарлар мавжуд эканлигини қайд этиш мумкин[11,28]. Булар асосан, жун тўқималар, гиламдўзлик, арқондўзлик, ип-газлама, тўқимачилик, каштадўзлик, дўппидўзлик, ковушдўзлик, тикувчилик, темирчилик, чўянчилик, мисгарлик, қулфсозлик, тунукасозлик, ёғочсозлик, ёғоч ўймакорлик, аравасозлик, қамишсозлик, косибчилик, нонвой-ошпазлик, қудуксозлик, ўймакорлик, совунгарлик, сартарошлик, овчилик ва бошқа ҳунарлар бўлиб, улар маҳаллий аҳолининг амалий ва ҳаётий машғулотиغا айланган. Бу ҳунарлар қаторида ип-газлама, жун тўқималар, темирчилик, сартарошлик билан машғул бўлган тўқимачи, шунингдек, каштадўзларнинг пирлари эса олиниб, уларни ғазабга келтирмаслик учун асбоб-ускуналарни ҳамда дўконларни озода сақлаганлар. Тўқимачи ва чеварлар иш фаолиятида доимо таҳоратли бўлиб, озода юриш шарт бўлган. Улар ҳар куни эрталаб иш бошланишидан олдин, ўз пирларидан мадад сўраб, фотиҳа ўқиган. Тўқимачилар дўкон ёки ўрмак дастгоҳида ишни тизиб, чиққандан сўнг уни тўқиш олдидан товук сўйиб, қон чиқарган, яъни, пиримиз руҳлари шод бўлсин, тўқиш жараёнида иплар тугун бўлиб қолмасин, деган истакни билдирган[12,131].

Шунингдек, чевар ҳамда кашта тикувчи чеварлар каштадўзлик санъатини тажрибали чизмакашдан ўрганишиб, улардан қўл олган. Ҳозир ҳам қўл олиш каштачиликни ўзига хос анъанаси бўлиб, ҳозирга қадар ҳам қишлоқ чеварлари орасида сақланиб келинмоқда[5]. Чевар дастлаб, “ис” чиқарган, бунинг учун нон шаклида икки-уч дона хамир тайёрланган ва у ёққа ташлаб олиниб, уни қатлама патир қилиниб, дастурхонга ўраб қўйишган. Шу билан бирга унга чизмакаш учун тикилган янги кўйлак ёки чопонлик либослари ҳам солиниб, ўз устози чизмакаш хузурига борган. Чизмакаш чеварни илиқ кутиб олиб, уй ичига таклиф этган. У яна бир-икки каштадўзни ҳам дастурхон атрофига таклиф қилиб, чеварга оқ йўл тилаб, Қуръондан фотиҳа ўқиб, пирлари қўллаши учун улардан мадад сўрашган. Бу жараёндан кейин чизмакаш дастурхонни очиб қатлама ва патирни синдиришган ҳамда биргаликда истеъмол қилган. Чевар дастурхондаги либосни чизмакаш уста олдига қўйиб, яна бир бор юзларига қўл суртишган[13,131]. Шу билан қўл олиш маросимини тугатишган.

Йирик кашта тикувчи чеварлар ҳам ҳар йили ёки икки йилда бир марта “ис” чиқариб, чизмакаш ёки мулладан қўл олиш одати ҳам ҳали бугунги кунгача давом этиб келмоқда. Деҳқончилик маросимларида “бова” (бобо) асосий салмоқли ўринга эга бўлган бўлса, ҳунармандчилик ва ҳунармандлар орасида ҳам барча муаммоларни бартараф қилиб, йўл-йўриқлар кўрсатиб борган. Агар устахона ифлос, асбоблар тартибсиз, сочилиб ётган бўлса, уста халифа ёки шогирднинг уст-бошлари ифлос бўлса, шунингдек харидор билан



қиладиган муомаласи кўпол бўлса, уларга қаттиқ танбеҳ бериб, бундан кейин бу каби ҳолатларни такрорламасликка чақирган[8,125]. Воҳада бова, айрим минтақаларда бобо (Бухоро шаҳри) деб юритилган.

Бобо уюшма аъзоларининг барча маъракаларига бошчилик қилиб, уни ўтказиш тартибини қаттиқ назорат остига олиб турган. Шогирд тарбияланиб, усталик даражасига етганлиги учун ўтказиладиган “бел боғлаш” маросимида бобо раҳбар бўлган. Турли маъракаларни ўтказишдан ташқари хунармандлар ҳар йили “Гули сурх” (Қизил гул) байрами вақтида бобо бошчилигида Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд қабрлари олдида “арвоҳи пир” маросимини ўтказишган. Бир ой давом этган бу байрамни бир ҳафтаси тўлиқ хунармандларга берилган бўлиб, улар шу даврда умуман ишламаган. Хунармандлар ушбу бир ой ичида ўз хунарлари “пир” нинг руҳини шод қилиш учун бобо бошчилигида турли маросимлар ўтказган[2,322]. Бундан ташқари, уста бирон бир гуноҳ иш қилса (асбоб дастгоҳларни тепса, жаҳли билан бу усқуналарни синдирса ёки бировни ҳақоратласа) бобо бундай устани ишдан четлаштириш, дўконни ёптиришга ҳақли бўлган. Гуноҳидан фориғ бўлиш учун уста уюшма аъзоларини тўплаб, ўз ҳисобидан “арвоҳи пир” маросимини ўтказиб берган. Бу маросимда бобо бошчилигидаги усталар унга насиҳатлар қилиб, тавбасига таянтирган.

Хунармандчиликка оид урф-одат ва маросимларни ўтказиш ҳамда бошида бўлиб тургани боис пул, нон, ширинлик, арзон чопон ёки мато усталар томонидан берилган. Бобо хунармандлар орасида обрў ва нуфузга эга бўлган. У ўз соҳасини кунт билан эгаллаган киши бўлганлиги учун ундан ўрнак олган. *Иккинчидан*, моддий жиҳатдан қийналган хунарманд фақат шу кишидан ёрдам олиб турган. *Учинчидан*, хунармандлар моли бозордан қайтса, шу кишига сотган. Бобонинг бўш вақти кўп бўлганлиги учун секин-аста харидорларга сотган. Бу уста хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш демакдир. Хунармандларни қўллаб-қувватлаш касб-хунарларни ўргатишда оқсоқолларни ўрнини ҳам алоҳида айтиб ўтиш жоиз. Оқсоқол – хунарманднинг тоифасига оид мустақил усталардан бўлиб кундалик фаолиятида ўз соҳасидаги хунармандчилик маҳсулотларини етиштирган. Оқсоқол бободан кейинги ўринда турувчи уюшма раҳбари бўлиб, у бажарадиган вазифалар “бобо” никига қараганда кенг қамровли эди. Чунки, оқсоқол бошқа усталарга нисбатан тажрибали, ёш жиҳатдан улуғ киши бўлган. У касбдошлари орасида обрўли шахс ҳисобланган. Оқсоқол барча ижтимоий ишларга раҳбарлик қилиб келган. Бобо каби хунармандчилик рисолаларининг билимдони сифатида вақти-вақти билан хунармандлар ишларини зимдан кузатиб турган. Хунармандчиликнинг ижтимоий фаолияти хунарчилик ёки бўлмаса бошқа соҳаларда ариқ ва ҳовузларни қазиш, дўкон, уй, ўчоқ, дор ва ёғочларни қайта созлаш учун барча хунармандларни тўплаб уюштириб борган.

Хунармандчилик маросимларини ташкил этиш ва уларни нишонлашда бош-қош бўлган, у уста, халфа, шогирд ўртасидаги муносабатларни улар орасида пайдо бўладиган низоли масалаларни ҳал қилган. Хунарманд уста ўз



касб-хунарини ўз қўл остидаги халфа ва шогирдга ўргатишга масъул бўлиб, бу ҳақида шогирднинг ота-онаси билан келишилган. Уста ўз ҳисобидан халфа, шогирдни кийинтирган, едирган ва хунарни яхши ўргана бошлагандан сўнг оз-оз миқдорда иш ҳақи бера бошлайди. Уста шогирдни мустақил ишлай олишини ўзи ҳал қилган. Агар шогирд укувли, чаққон, ҳалол-покиза меҳнат қилиб келаётган бўлса, усталар уни қўлдан чиқармасликка ҳаракат қилиб келишган. Тайёр маҳсулотнинг устанинг ўзи сотган ҳамда хомашё, асбоб-ускуналарни ўзи сотиб олган. Маҳсулот ишлаб чиқаришдан келадиган фойда ва зарарга устанинг ўзи жавобгар бўлган[7]. Хунармандлар ичида халфа шогирдлик даражасидан юқори поғонага кўтарилган хунарманд бўлиб, у ўз устози ёки бошқа усталарга ёлланиб, меҳнат қилган.

Шогирд бирон бир хунар соҳиби бўлиш учун шу хунар соҳасида фаолият кўрсатаётган хунармандга шогирд тушган шахс ҳисобланган[1,12]. Ота-она ўз фарзандини маълум бир касб устаси бўлган хунарманд ҳузурига олиб келган. Бунда шогирднинг ота-онаси устозга атаб, нон, ширинлик, ис, чопон ёки мато кўйилган дастурхон тузатиб, боласи билан бирга уста ҳузурига келган. Уста шогирд ва ота-онасини ҳурмат, эҳтиром билан кутиб, дастурхонни уста дўконида ёзган, ундаги таомларни биргаликда тановул қилишган ва шу орада болани шогирдликка олиш келишилгандан сўнг, ота “Эти сизники, суяги бизники” деб фотиҳа ўқиб, боласини қолдириб кетган.

Ҳозирда бу урф-одатлар бир мунча ўзгарган бўлиб, масалан, устага дастурхон тузаш, унинг ичига турли хил ширинликлар, матолар чопон кўйиш одати йўқолиб бораётганини 30 йилдан буён Қоракўл туманида сартарошлик билан шуғулланиб келаётган Аvezов Бобур бобо ҳам буни тасдиқлади. Шогирдликка олиб келиш учун ҳозирда ота-она биттаси ёки шогирднинг ўзи уста ҳузурига келиб, хунармандчиликни сир-асрорларини ўрганишни айтган[6].

Шогирдга уста биринчи йилларда ҳеч қандай ҳақ тўламаган, лекин уни кийим-кечак, озиқ-овқат билан таъминлаган. Шогирд бу даврда устанинг уй-рўзғор ишларини бажариб ҳам турган. У бўш вақтларида дўконга кириб уста халфанинг бажараётган ишларини кузатиб бориб, аста-секин хунар сирларидан воқиф бўлиб борган.

Зардўзлик, заргарлик, кандакорлик, каштадўзлик, дўппидўзлик каби хунарларни ўргатишга 10-15 ёшгача бўлган ўсмирлар шогирдликка олинган. Кулолчилик, чархгарлик, чўянгарлик, темирчилик, қурувчилик каби оғир меҳнатга асосланган хунарларда шогирдликка 15 ёшдан катта ўспиринларни қабул қилиб келинган[9,127].

Бухоро воҳаси хунармандлари ўз хунармандларини иложи борича ўз фарзандларига ўргатишга ҳаракат қилганлар. Мисол учун, заргарлик, зардўзлик, каштадўзлик, дўппи ва чопондўзлик каби хунарлар ёпиқ саналиб, усталар ўз хунарини сир-асрорларини бегона кишига ўргатмаганлар. Чунки, ўз ота мерос касбни ишончли қўлларга топшириш ва фарзандлари “нони” га бегоналарнинг шерик бўлишини исташмаган. Агар устанинг ўз фарзанди бўлмаса, у шогирдликка энг яқин қариндоши бегона кишининг фарзандлари-



ни қабул қилган. Шогирд ўз касбини сир-асрорларидан воқиф бўлса ҳамда ўзининг етук уста бўлганлигини исботлаш учун ўз касбига оид бирор бир буюм тайёрлаб, уни оқсоқол ва устага кўрсатган. Агар бу буюм уларга маъқул бўлса, “бел боғлаш” маросимига тайёргарлик кўра бошлаган шогирд. Шогирд “бел боғлаш” маросимини ўтказишда ўз меҳнат фаолияти давомида топган маблағини сарфлаган. Бу ҳолат кулолчиликда бошқача бўлиб, уста шогирдига мустақил битта хумдон пиширишга рухсат берган ва ундан келган даромад шогирдни ҳисобланиб, маросимга сарфланган.

Бу маросимни ўтказиш учун шогирд оқсоқол ҳузурига маслаҳат олгани борган. Оқсоқол шогирднинг моддий аҳволига қараб, маросимни қандай ташкил қилиш, кимларни таклиф этиш ва дастурхонни қандай безаш ҳақида маслаҳатлар берган. Шундан сўнг, шогирд ўз устасига сарпо, бобо ва оқсоқолга чопон, кишлок имомига дастурхон тузиб, ўз уйига чақирган. Белгиланган кунда барча таклиф қилиниб, шогирдни уйда тўпланишган. Кишлоқ имоми фотиҳа ўқиб маросимни бошлаб берган. Уста шогирдини давра ўртасига турғизиб қўйиб, шогирдини белидаги белбоғини сиқиб боғлаб қўйган. Шогирд ўз навбатида устага олган сарполарини тақдим қилиб, бобо эса шогирдга ҳунарнинг қонун қоидалари ҳақида ваъз ўқиган. Ҳунардаги барча талабларга қатъий бўйсунгани таъкидлаган. Шогирд барча талаб ва қоидаларни бажаришга сўз бериб, бобо елкасига чопон ёпган. Шу билан маросимнинг асосий қисми тугаб, даврага дастурхон ёзилиб, унга нон, ширинликлар, палов ва чой тортилган. Дастурхондаги таомлар истеъмол қилиниб бўлингандан сўнг маҳалла имоми Куръон сураларини ўқиб, дастурхонга фотиҳа берган. Шу орқали “бел боғлаш” маросими ҳам тугаган. Бу маросимдан сўнг, уста номини олган шогирд мустақил ишлай бошлаган. XX аср бошида, “бел боғлаш” маросими ўз аҳамиятини йўқотиб бориб, тантанали суръатда ўтказилмаган, тор доирада бўлиб ўтган.

Бухоро ҳунармандлари маросимлардан ташқари сайллар ҳам ўтказиб турган. Шундай маросимлардан Бухоро амирининг шаҳардан ташқаридаги Ситораи Моҳи-хоссада ҳар йили бозор сайили бўлиб, унда халқ амалий санъати турларидан кулолчилик, мисгарлик, кандакорлик, пичоқчилик, дўппидўзлик ва бошқа ҳунармандлар қаторида заргарлар ҳам ўз буюмларини бутун халқ оммасига кўрсатган. Бу кўргазма Моҳи-хоссада икки ҳафтагача давом этган. Бу сайил ҳар йили халқнинг анъанавий байрами ҳисобланиб, раҳбарият томонидан қонунийлаштирилган. Нарсаларни сотишга қулай бўлиши учун вақтинчалик расталар қурилиб буларнинг ҳаммасини уюштиришга усталарнинг оқсоқоли раҳбарлик қилиб келган[3,321]. Бундай сайилларнинг бўлиб туриши халқ оммавий санъатнинг ривожланишига катта ҳисса қўшган. Амирлик даврида ҳамма ҳунарлар каби зардўзлик муқаддас ҳисобланиб келинган. Чунки, ҳар бир ҳунарга, касбга бўлган ҳурмат шунчалик бўлганки, усталар ҳар бир қилган ишларини дил виждони билан бажаришган. Усталарнинг айтишича, энг биринчи уста зардўз энг биринчи устоз Ғойибона ҳомий ҳамда пир Ҳазрат Юсуф бўлган[10,83]. Шу ҳақида кўпгина рисолача бўлиб, уни ўрганиш қонун-қоидалари зардўзлик касбининг ҳомийси “арвоҳи



пир” га сиғиниш узоқ вақтгача давом этиб келганини таъкидлайди. “Тули сурх” айёмида, яъни, илк баҳор кунларида зардўзлар Бухоро яқинидаги Баҳоуддин қишлоғига келиб, қўй сўйиб, худойи қилишган. Пирзодалар арвоҳига бағишлаб, ҳафтанинг пайшанба, якшанба кунлари барча зардўзлар тўпланишган. Қироатхонлик дастурхон устида бўлиб ўтган суҳбатда рисолачи зардўзликни келиб чиқиш қонун-қоидалари ва унга ўқиладиган дуоларнинг мазмун-моҳиятини тушунтириб беришган. Рисолачига қироатидан сўнг кишилар совғалар беришиб, уйларига кузатиб қўйишган. Бу эса уларни зардўзлик касбига бўлган ҳурматини янада оширишга туртки бўлган[4,116].

Хуллас, ҳунармандчиликка оид урф-одат ва маросимлар узоқ даврлар давомида шаклланиб, сайқаллашиб аجدодлардан авлодларга мерос сифатида қолиб, бугунги ҳунармандчиликни ривожлантиришда асосий омил ва туртки бўлиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдуллаев Т. XIX-XX асрда ўзбек кандакорлиги. -Т.: Фан. 1974. – 212 б.
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Т.: Меҳнат, 1991. – 523 б.
3. Шу асар.
4. Гончарова П.А. Золотошей пол искусство Бухаре. -Т. 1986, –С. 221.
5. Дала ёзувлари. Бухоро шаҳар Эски шаҳар. 2023 йил.
6. Дала ёзувлари. Қоракўл туман Жигачи қишлоқ. 2023 йил.
7. Дала ёзувлари. Пешку туман Хўжайли шаҳар. 2023 йил.
8. Қиличев Р.Э. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик. тарих фан. номз. дисс. Бухоро, 1997. – 164 б.
9. Шу асар, 1997. –Б. 164.
10. Пешерева Е.М. Бухарский золотошей. -Сборник музей антропологии и этнографии. -М.: 1995. –С. 196.
11. Ўроқов М.Б. Зарафшон воҳаси қишлоқ аҳолисининг хонаки тўқимачилик ва чеварчилик ҳунари. Тарих фан. номз. дисс. -Т.: 1993. –158 б.
12. Шу асар
13. Шу асар



“ҚУРОЛСИЗ АСКАРЛАР” КИМЛАР ВА УЛАР ҲАҚИДА ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИ

Xurshid QURBONOV,
Navoiy davlat universiteti

E-mail: xurshid_kurbanov@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада Иккинчи жаҳон уруши йиллари воқеалари таснифида, урушининг галаба қозонишида Ўзбекистон меҳнаткашларининг, халқининг ҳам муносиб ҳиссаси борлиги таъкидланган. 1941 йилнинг ёзида бошланган уруш мамлакат иқтисодиётини хавф остига қўйди. Фронтга ҳарбий техника воситалари, маҳсулотлар етказиб беришида ҳам аскар, ҳам фронт ортида хизмат қиладиган ишчи кучига эҳтиёж сезилди. Шу ўринда, оғир ва енгил саноат корхоналари, айниқса Россиянинг Европа қисмидан эвакуация қилинган завод ва фабрикалар, ишлаб чиқариш ва қурилиш корхоналарида ишлаш учун ҳам ишчи кучи керак эди. Давлат мудофаа қўмитасининг 1942 йил 14 октябрдаги 2414-рақамли “мутлақо маҳфий” қарори қабул қилинди. Қарорга мувофиқ Ўрта Осиё республикаларидан жами 350 минг ишчи кучи Уралнинг кўплаб қурилиш ва саноат корхоналари сафарбар қилинган. Уларнинг мақоми ҳаракатдаги аскарларга тенглаштирилиб “қуролсиз аскар” сифатида Тошкент шаҳридан, Ўрта Осиё ҳарбий округидан эшенлонлар орқали олиб кетилган.

Ушбу мақолада, айнан “қуролсиз аскарлар” ёки “меҳнат армиячилари”нинг фаолияти юзасидан олиб борилган илмий-тадқиқот ишлари, манбалар ва адабиётлар таҳлил қилинган.

Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон халқи муносиб иштирок этди ва галабага муносиб ҳисса қўйди. Буни тарих ўрганади, тарих ўргатади.

Калит сўзлар: Урал, саноат, корхона, ишлаб чиқариш, “меҳнат армиячилари”, “қуролсиз аскарлар”, мудофаа, олимлар, тадқиқотлар, асарлар, Челябинск, Чкалов.

КТО ТАКИЕ «БЕЗОРУЖЕННЫЕ СОЛДАТЫ» И О НИХ ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНА

Хуршид КУРБАНОВ
Навоийского государственного университет
khurshid_kurbanov@gmail.com

Аннотация. В статье подчеркивается достойный вклад трудящихся и народа Узбекистана в победу в войне, в классификацию событий Второй мировой войны. Война, начавшаяся летом 1941 года, поставила под угрозу



экономику страны. Возникла потребность в солдатах и рабочих для работы в тылу, в доставке на фронт военной техники и продовольствия. В то же время рабочая сила требовалась и для работы на предприятиях тяжелой и легкой промышленности, особенно на фабриках и заводах, эвакуированных из европейской части России, а также на производственных и строительных предприятиях. Было принято «совершенно секретное» постановление Государственного Комитета Обороны № 2414 от 14 октября 1942 года. В соответствии с постановлением на многочисленные строительные и промышленные предприятия Урала было мобилизовано в общей сложности 350 тысяч рабочих из республик Средней Азии. Их статус был приравнен к статусу действующих военнослужащих, и их вывозили из города Ташкента, Среднеазиатского военного округа, курьерами как «безоружных солдат».

В статье анализируются исследования, источники и литература, посвященные деятельности «безоружных солдат» или «трудовых солдат».

Народ Узбекистана принял достойное участие во Второй мировой войне и внес достойный вклад в победу. История учит этому, история учит этому.

Ключевые слова

Урал, промышленность, предприятие, производство, «трудоармейцы», «безоружные солдаты», оборона, учёные, исследования, работы, Челябинск, Чкалов.

UDC 93/94

WHO ARE THE “UNARMED SOLDIERS” AND ABOUT THEM UZBEKISTAN HISTORY

Khurshid KURBONOV,

Navoi State University

khurshid_kurbanov@gmail.com

Annotation

This article, in the classification of the events of World War II, emphasizes the worthy contribution of the workers and people of Uzbekistan to the victory of the war. The war that began in the summer of 1941 put the country's economy at risk. There was a need for both soldiers and workers serving behind the front to deliver military equipment and products to the front. In this context, workers were also needed to work in heavy and light industry enterprises, especially factories and factories evacuated from the European part of Russia, as well as in production and construction enterprises. The "top secret" resolution of the State Defense Committee No. 2414 of October 14, 1942 was adopted. In accordance with the resolution, a total of 350 thousand workers from the Central Asian republics were mobilized to numerous construction and industrial enterprises in the Urals. Their status was equated to that of soldiers on the move and they were transported as "unarmed soldiers" from Tashkent, the Central Asian Military District, through the "Soldiers without weapons".

This article analyzes scientific research, sources, and literature on the activities of the “armed soldiers” or “labor soldiers.” The people of Uzbekistan



took a worthy part in World War II and made a worthy contribution to the victory. History learns this, history teaches it.

Key words

Urals, industry, enterprise, production, "labor soldiers", "unarmed soldiers", defense, scientists, researches, works, Chelyabinsk, Chkalov

Кириш

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlanib, har uch nafar o‘zbekistonlikdan bittasi qo‘liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilganligi tarix manbalarida qayd etilgan. Mana, dahshatli urushda xalqimiz qanday og‘ir yo‘qotish va talafotlar bergan, qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgan” [1]

1941 yil SSSRning fashitlar Germaniyasi bilan janga kirishishda bor imkoniyat va kuchlarni safarbar etish, xalq xo‘jaligini mehnat resurslari bilan ta‘minlash muhimligi kun tartibidagiasosiy masalaga aylandi. Vatan urushida bir tomondan frontlarga Vatanni xizmat qilish uchun ko‘plab askarlar kerak bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ana shu harbiy aksarlarga qurol-yarog‘ tayyorlash va yetkazib berish uchun ham talaygina ishchi kuchi kerak edi.

1941-1945 yillarda ushbu ishlarni bajaruvchi, maishiy turmushda “Mehnat armiyachilari” nomi bilan mashhur tushuncha paydo bo‘ldi va bu “qurolsiz askarlar” tushunchasi bilan uyg‘unlashib ketdi. Bugungi kunda “qurolsiz askarlar” tarixi, bu iboraning ma‘no va mazmuni, tarixshunoslikda o‘rganilganlik holatlarini ilmiy va amaliy mushohada qilishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda.

“Mehnat armiyachilari” atamasi XX asrning 1-choragida, ya‘ni fuqarolar urushi yillarida paydo bo‘lib, o‘sha davrda “revolyutsion mehnat armiyasi” ma‘nosida qo‘llanilgan. Boshlangan urush mehnatga jalb etish bo‘yicha amaliy vazifalarni hal etishni o‘rtaga tashlar edi. 1920 yilning boshida qabul qilingan maxsus dekret bilan mehnat frontiga jalb qilinganlardan harbiy mehnat bo‘linmalari paydo bo‘ldi. Xo‘jalik muammolarini hal qilishda ana shu harbiy bo‘linmalar va butun armiya jalb etila boshlandi. 1920 yillardagi “revolyutsion mehnat armiyachilari” masalaning bir tomoni bo‘lib, biz tadqiq qilayotgan masalada aynan 1941-1945 yillardagi “mehnat armiyachilari”, ya‘ni maqomi harbiy askarga tenglashtirilgan “qurolsiz aksarlar” tarixi va taqdiri masalasi o‘zining dolzarbligi bilan e‘tiborlidir. Uning tarixshunoslik masalasini o‘ziga xos davriylik nuqtai nazaridan o‘rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili

Shu nuqtai nazardan ushbu masalaning o‘tgan asrning so‘nggi choragida sovet tarixchilari tomonidan o‘rganilganlik holati haqida qisqacha to‘xtalmoqchimiz.

Ikkinchi jahon urushi yillarida majburiy mehnatga jalb qilinganlar “mehnat armiyachilari” deb atala boshlandi. Ammo, 1941-1945 yillarda qabul qilingan rasmiy hujjatlarda “mehnat armiyasi” yoki “mehnat armiyachilari” iborasi ishlatilmagan, qo‘llanilmagan.

1941-1945 yillar tarixiga oid nashr qilingan kitobda [2;368] harbiy siyosiy ahamiyat kasb etgan ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati, O‘zbekistonda



Boʻzsuv va Sirdaryoda qulishi rejalashtirilgan yirik gidroinshootlar, ayniqsa Oʻrta Osiyoda eng yirik boʻlgan Farxod GES qurilishi haqidagi qaror, Oʻzbekistonliklarning urushdan ozod qilingan Dnepropetrovsk va Xarkov viloyatlariga koʻrsatgan doʻstona yordamlari haqida maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, bu oʻrinda ishlab chiqarish korxonalaridagi “mehnat armiyachilari” haqida biror manba keltirilmagan.

1985 yilda chop qilingan “Ulugʻ Vatan urushi. 1941-1945” Ensiklopediyada esa bu atamalar “mehnat qonunchiligi”, “trudovaya povinnost”, “trudoviye rezervi” kabi tushunchalar bilan keltirilgan [3; 727-729.].

Shu yili chop qilingan uch jildli “Uzbekskaya SSR v godi Velikoy otechestvennoy voyni (1941-1945 gg.)” nomli kitoblarida ham Oʻzbekiston halqining urushdagi ishtiroki, gʻalabaga qoʻshgan hissasi, front va front ortidagi jasoratlari aks ettirilgan boʻlib, aynan “mehnat armiyachilari” faoliyati alohida masala sifatida izohlanmagan [4;338].

Umuman olganda, tarixshunoslikda bu davrda ham XX asrning 20-30 – yillaridagi kabi oʻziga xos tasniflashni talab etadigan koʻplab yangi-yangi tushuncha va atamagan paydo boʻldi. XX asrning birinchi yarmida “mehnatkashlar armiyasi” atamasini ishlatish va bu jarayonda ishlash qaysidir maʼnoda “qullik” xarakteriga ega boʻldi. Bu davrda insonlarning majburiy mehnatga qarshi deyarli barcha huquqlari toptaldi.

Tadqiqot usullari

“Quolsiz askarlar” yoki “mehnat armiyachilari” tushunchalarini qanday gʻoya, qanday mafkura, qanday yondashuv bilan tarjima qilish, tarixiy-falsafiy mushohada qilish masalaga tarixiylik, xolislik, teran tafakkur asosida yondashuvga bogʻliq.

“Mehnat armiyachilari”, yaʼni “quolsiz askarlar” faoliyatida uzoq oʻlkalarga safarbar qilingan Oʻzbekiston xalqining koʻp ming sonli ishchi-mehnatkashlarining tarixi va taqdiri, ularning buyuk gʻalabaga qoʻshgan hissasini tarixiylik, ilmiy-metodologik nuqtai nazardan baho berish lozimdir.

Tadqiqot natijalari

XX asrning 40-yillarida paydo boʻlgan ushbu atamalarni aynan rus tilida berishni maʼqul bildik: “trudarmiya”, “trudovaya armiya”, “trudarmeyets”, “nemsi-truarmeyetsi”, “trudomobilizovanniye”, “trudoviye migranti”, “trudposelensi”, “trudopereselensi”, lyudi “vtorogo sorta”, “soldati bez orujiya” va boshqa.

“Mehnat armiyachilari” tushunchasi asta sekinlik bilan “mehnat koʻchkindilari” tushunchasi bilan boyitildi. Ayrim xulosalarni umumlashtirgan holda, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi “mehnat armiyachilari”ni quyidagicha tasniflash mumkin:

- “jalb qilingan nemislar”;
- Oʻrta Osiyo harbiy okrugidan (SAVO) mehnatga jalb qilinganlar;
- “Maxsus koʻchirilganlar”.

Bu toifalar umumiy xarakterga ega boʻlib, aholining maʼlum bir qatlamlari qiyofasini belgilab beradi.



Tadqiq qilina boshlagan masala aynan O'rta Osiyo harbiy okrugidan mehnatga jalb qilingan "Qurolsiz askarlar" toifasi bo'lib, bu atama va ularning mehnat faoliyati haqidagi ayrim mulohazalarni O'rta Osiyo mintaqasi tarixshunosligi misolida keltirib o'tamiz.

Bizga ma'lumki, Urush yillarida sanoat, ayniqsa, mudofaa sanoati va uning barcha tarmoqlarining ishchi kuchiga ehtiyoji favqulodda ortib ketdi.

SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1941 yil 23 iyuldagi Qarori bilan mehnat armiyachilarining faoliyati harakatdagi qo'shinlarda xizmat qilayotgan harbiylar bilan tenglashtirildi.

Muhokama natijalari

Mahalliy hukumatga idoraviy va mintaqaviy holatdan qat'iy nazar ishchi va xizmatchilarni ish o'rinlarini bemaolol almashtirish huquqi berildi. O'rta Osiyo harbiy okrugida 1941 yilning kuzidayoq qurilish va ishchi batalyonlari shakllantirildi. Unga aholining yoshi katta harbiy xizmatga munosib hamda xizmatga layoqatsizlar qatlami kiritildi.

Harbiy askarga tenglashtirilgan "mehnat armiyachilari"ni boshqarish ishchi brigadalarining o'zlari tomonidan saylangan hurmatli va yoshi katta vakillarga yuklatildi.

SSSR Oliy soveti 1942 yil 13 fevralda "Harbiy vaqt davrida ishlab chiqarish va qurilish ishlari uchun mehnatga layoqatli shaharlik aholini safarbar qilish to'g'risida" qaror qabul qildi. Natijada harbiy sanoat va qurilish ishlariga mehnat armiyachilari safarbar etildi.

Xususan, O'rta Osiyo va Qozog'istondan mamlakatning Ural, Janubiy Ural, Boshqirdiston, Chelyabinsk va boshqa hududlariga yuz minglab kishilar mehnat frontiga jalb etildi. Ular mislsiz og'ir qiyinchilik va ocharchilik sharoitida front talabini qondirish, dushman ustidan g'alaba qozonish uchun qurol-aslaha, o'q-dori, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlarni tayyorlashda ulkan qahramonlik va jasorat ko'rsatib mehnat qildilar.

1942 yil 14 oktabrda SSSR Davlat Mudofaa komitetining "O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalaridagi harbiy xizmat o'tashlari lozim bo'lganlarni qurilish va sanoat korxonalarida ishlash uchun safarbar etish haqida"gi qarori qabul qilindi.

Moskva shahri Kremlda imzolangan ushbu qarorga ko'ra harbiy xizmatni o'tashlari lozim bo'lgan 19 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan 350 ming O'rta Osiyoliklarni Ural va Janubiy Ural harbiy okruglariga yuborish belgilandi.

Unga ko'ra, O'zbekistondan – 150 ming kishi, Qozog'istondan – 100 ming kishi, Qirg'izistondan – 30 ming kishi, Turkmanistondan – 30 ming kishi, Tojikistondan – 40 ming kishini qurilish va sanoat korxonalariga 1942 yilning oktabr va noyabr oylarida yuborish ko'zda tutilgan.

Ishchi koloniyasi 1000 kishilik guruhlarga bo'lingan holda mahalliy harbiy komissariatlar tomonidan yuborila boshlangan edi.

1941-1943 yillarning o'zida O'zbekistondan 155 ming kishi mehnat armiyasiga safarbar qilingan. Toshkent oblasti harbiy komissariatidan 1700 kishi favqulodda holatda eshelonda Boshqirdistonga jo'natilgan. Uraldagi mudofaa



sanoati zavod va fabrikalarda 32620 nafar o‘zbek ishchisi faoliyat ko‘rsatgan.[5;180]

Bu raqamlar masalaning ko‘lami qanchalik katta va tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish muhim ekanligini tasdiqlab turibdi.

1966 yilda nashr qilingan “Uzbekistan v godi otechestvennoy voyni (1941-1945)” [6] nomli kitobda Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda sanoat taraqqiyoti, ilm-fan va madaniyat rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi sohasidagi tub o‘zgarishlar, harbiylarining frontdagi harakatlari, o‘zbekistonlik mehnatkashlarning fashistlardan ozod qilingan rayonlarga ko‘rsatgan yordamlari, front hududlaridan O‘zbekistonga ko‘chirilgan sanoat korxonalarini va ulardagi mehnatkashlar xizmatlari haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lsada, o‘zbekistonliklarning front uchun qurol-aslaha ishlab chiqarishga moslashtirilgan uzoq o‘lkalardagi, ayniqsa Ural mintaqasidagi zavodlarga ishlashga jalb qilinganligi, O‘rta Osiyo okrugi harbiy komissariati tomonidan yuborilgan “ishchilar” haqida qisqacha umumlashgan ma‘lumotlar bilan cheklanilgan. Moskva, Sverdlovsk, Orenburg, Kuybishev, Perm, Gorkiy va boshqa viloyatlarda O‘zbekistondan jalb qilingan 60 mingdan ortiq mehnatkashlar — “qurolsiz askarlar”ning aynan faoliyati alohida bayon qilinmagan.

Tadqiqotchi K.Husainov maqolasida Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘raldagi ishchi-o‘zbeklarning mehnat faoliyatini yoritishga qisman harakat qilingan”[7;23]

Tojikistonlik Fotih Niyoziy o‘zining “Soldati bez orujiya” nomli kitobida Ikkinchi jahon urushi yillarida Uralning Belogorsk viloyatidagi qurilish va zavodlarda xizmat yoshiga yetgan, ammo frotga bora olish imkoniyati yo‘q bo‘lgan tojikistonlik “mehnat armiyachilari”ning faoliyatiga to‘xtalgan. Asar roman shaklida yozilgan bo‘lib, voqealar mehnat armiyachilari faoliyatida bo‘lgan yurtdoshlari xotirasi bayonlaridan iborat bo‘lgan ma‘lumotlardan tuzilgan voqealar bayon qilingan. [8]

Shuningdek, A.M.Gafurov, T.D.Dadoboyev, D.A.Mirpochoyev, R.E.Agzamova, N.Avazmatov, F.A.Tursunovlarning maqolalarida tojikistonlik “qurolsiz askarlar”ning g‘alabaga qo‘shgan hissasi va faoliyati haqidagi ayrim jihatlari keltirib o‘tilgan.[9]

S.Muhammedovanning internet sahifalariga bergan ma‘lumotlariga qaraganda tojikistonlik “mehnat armiyachilari” avval Toshkentga, ya‘ni O‘rta Osiyo harbiy okrugiga keltirilgan, to‘planganva shu yerdan Uralga jo‘natilgan. Jo‘natilgan tojikistonlikning o‘rtacha yoshi 50-55 yoshni tashkil qilgan.[10]

N.S.Usupova va R.S.Beysebayevlar maqolalarida Rossiya va qirg‘iziston xalqining g‘alabaga qo‘shgan munosib hissasi, Qirg‘iziston sanoatining g‘alabaga qo‘shgan hissasi va yerda mehnat qilgan yurtdoshlari haqidagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi.[11]

Bu o‘rinda qozog‘istonlik tarixchilar ham maqolalarida vatandoshlarining front va front ortidagi xizmatlari haqida ayrim fikrlarni ilgari surishgan.[12]

R.Shamsutdinov hamda Sh.Hojiyevning ilmiy maqolalarida “mehnat armiyachilari” va uning tarixshunosligi haqida ayrim mulohazalar berilib, o‘zbekistonlik



“quolsiz askarlar”ni tarixi va taqdirini o‘rganish vaqti yetganligi va bu tadqiqot obyekti sifatida ilmiy iste’molga kiritish lozim ekanligi ta’kidlanadi.[13;66-72]

Professor H.Ziyoyevni maqolasi va boshidan kechirgan xotiralarida ham “mehnat armiyachilari” haqidagi satrlarni o‘qish mumkin. Jumladan: “O‘zbeklarning talay qismi “ishchi batalyoni”ga – Rossiyaga safarbar qilindi. Ularning orasida 16 yoshdan oshgan va hunar bilim yurtini tamomlagan yoshlar ham bor edi. “Ishchi batalyoni”dagi kishlar Ural, Karaganda, Kuybishev, Saratov, Gorkiy, Omsk, Novosibirsk, Moskva, Tula, Yaroslavl, Krasnoyarsk, Xabarovsk, Kemerova, Chelyabinsk, Sverdlovsk, Perm, Irkutsk, Arxangels, Boshqirdiston, Tatariston, Udmurtiya va boshqa joylardagi sanoat korxonalarini va konlarda yarim och holda mehnat qilganlar. Hamyurtlarimizning qanchasi ona yurtidan uzoq joylarda kafansiz ko‘milganlar.” [14;18-23]

Publitsist olim F.Toshev “Samarqandlik sheryuraklar” nomli maqolasida 1941-1945 yillarda Ikkinchi jahon urushi yillarida samarqandlik yurtdoshlarimizning frontdagi, front ortidagi va oliy hududlardagi “quolsiz asrkalar”imiz hayotidan oid ma’lumotlarni mehnatkashlar tomonidan kelgan xatlar va mualliflar nomidan ifodalab beradi. [15;129-151]

Ikkinchi jahon urushi masalasi O‘zbekiston viloyatlari tarixi haqidagi kitoblarda ham alohida bob va bo‘lim shaklida yoritilgan bo‘lib, viloyat aholisining urushda ishtirok etib, g‘alabaga qo‘shgan munosib hissalarini, xalq va millat qahramonlari haqida yozilgan. Ammo, front jangchilari uchun qurol-aslaha yetishtirib beradigan Ural hududlaridagi gigant korxonasi va ishlab chiqarish obyektlaridagi “qarolsiz askarlar” haqida deyarli ma’lumotlar uchramaydi.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan kichik xulosa shuki, bu masalaning tarixshunosligini hududiy va davriy nuqtai nazardan tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bu o‘rinda ushbu masala bilan keng shug‘ullangan Rossiyalik olimlar, O‘rta osiyolik olimlar, xorijiy tadqiqotchilar va mahalliy tarixchilarning ilmiy yutuqlaridan, ilmiy yangiliklaridan foydalanish mumkinligi ayon bo‘ladi.

Ijtimoiy munosabatlar tarixida mehnat armiyachilarining kundalik hayotini, mehnatni tashkil qilish usul va sulublarini, davlat va hukumatning ularga munosabatini o‘rganish masalasi aynan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat armiyachilarining mehnatlarini keng miqyosda atroflicha tahlil qilish va xolisona o‘rganish zarur. Ikkinchi jahon urushi yillaridagi mehnat armiyachilarining faoliyati tarixini yaratish nafaqat bugun balki kelajak avlod uchun muhimdir.

Aynan Ikkinchi jahon urushi yillarida “mehnat armiyachilari” atamasi qo‘llanilmagan bo‘lsada, Ichki ishlar organlari ishtirokida harbiy komissariatlar (voyenkomat) tomonidan mehnat qilinishi lozim bo‘lgan hududlarga ishlashga jalb qilingan aholi qatlami tushunilgan edi.

Shu sababli, ularni ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan, mehnat qilish va yashash sharoitlari yaratilgan “quolsiz askarlar” nuqtai nazardan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.



Mazkur bu masala bo'yicha tadqiqotlar endi-endi boshlanmoqda. Kelgusida, "qurolsiz askarlar"ning mehnat faoliyati, turmush sharoitlari, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, Ikkinchi jahon urushi yillarida Ural mintaqasi, u yerdagi sanoat va ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati va quvvatlari, "qurolsiz aksarlar" tushunchasi-ning klassifikatsiyasi, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati kabi masalalar yuzasidan maqolalar berib borishni lozim bildik.

Chunki, O'zbekiston xalqining va unda "qurolsiz askarlar"ning mehnati, buyuk g'alabaga qo'shgan hissasi masalasini milliy g'oya ruhida ilmiy va tarixiy baho berish ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

SH.Mirziyoyevning buyuk G'alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqdan. <https://uza.uz/oz/politics/>

1. Великая отечественная народная. 1941-1945. краткий исторический очерк. Под ред. П.А.Жилина авторский коллектив. Москва: Мысль, 1985. – 368 б.

2. Великая Отечественная война 1941-1945: энциклопедия / гл. ред. М. М. Козлов. Ред.кол. Ю. Я. Барабаш, П. А. Жилин, В. И. Канатов. Москва: Советская энциклопедия, 1985. — С.727-729.

3. Узбекская ССР в годы Великой отечественной войны (1941-1945 гг.) в трех томах. Ташкент: "Фан", 1985. – 338 б.

5. O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi. 1941-1945. Kitob-albom. Toshkent: O'zbekiston, 2020 yil. –B. 180.

6. Qarang: "Uzbekistan v godi otechestvennoy voyni (1941-1945). Otv.red. R.X.Aminova, T.D.Djurayev. Tashkent: "Fan", 1966. 208 b.

7. Хусаинов К. Патриотический подвиг рабочих-узбеков на предприятиях и стройках Урала и Сибири в годы Великой Отечественной Войны. Материалы XXII научной конференции профессорско-преподавательского состава Самаркандского гос. Университета. История. 1966.

8. Ф.Ниязи "Солдаты без оружия". Москва: "Художественная литература", 1988. 264 с.

9. Гафуров А.М.Вклад Таджикистана в Великую Победу (-С. 66-70); Дадобоев Т.Д., Мирпочоев Д.А., Агзамова Р.Э.Таджики во время Великой Отечественной войны: фронт и тыл(-С. 71-75); Рахимзода Д.М.Участие посланцев Таджикистана в движении Сопротивления(-С. 75-79); Авазматов Н., Турсунов Ф.А.Вклад Таджикистана в победу в Великой Отечественной войне 1941–1945 годов(-С. 242-251). Ушбу мақолалар "Вклад регионов Урала и стран Центральной Азии в победу в Великой Отечественной войне 1941–1945 годов". Илмий мақолалар тўпламида chop этилган. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ (Челябинск), 2020.

10. Internet materiallaridan. "Soldati bez orujiya". Kak vijivali tadjikskiyе trudoarmeysi v godi voyni. "Rossiya dlya vsex" ruknida. (08.05.2016.)

11. Усупова Н.С.Кыргызстан и Россия: вместе к Великой Победе.–С. 213-218; Бейсебаев Р.С.Состояние топливно-энергетического сектора и



промышленности Кыргызстана в 1941–1945 годах: вклад в победу в Великой Отечественной войне(-С. 219-225). “Вклад регионов Урала и стран Центральной Азии в победу в Великой Отечественной войне 1941–1945 годов” мавзусидаги илмий маколалар тўплами. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ (Челябинск), 2020.

12. С.Ж.Сапанов, К.С.Жумабаева.Казахстан в Великой Отечественной войне 1941-1945 годов(-С.191-198); И.Г.Гиззатуллин.Вклад тружеников Кустанайской области в Победу(-С. 207-212). “Вклад регионов Урала и стран Центральной Азии в победу в Великой Отечественной войне 1941–1945 годов” мавзусидаги илмий маколалар тўплами. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ (Челябинск), 2020.

13. Shamsutdinov R. Matbuot – muhim tarixiy manba. / Vodiynoma, Toshkent: Akademnashr, 2016, №2. – В.14-18; о‘sha muallif. O‘zbek harbiy asirlari taqdiri haqida. Vodiynoma, Toshkent: Akademnashr, 2019, № 3 (14). – В.33-44; О‘sha muallif. O‘zbekistonning buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasi xujjat va materiallarda / Vodiynoma, Toshkent: Akademnashr, 2020, № 1 (16). – В.6-13; Hojiyev Sh. O‘zbekiston mehnat armiyachilari (“Qurolsiz askarlar”)ning hayoti va faoliyatini o‘rganishga doir mulohazalar // Vodiynoma, Toshkent: Akademnashr, 2019, № 4 (15). – В.66-72.

14. Qarang: Ziyoyev H. Ikkinchi jahon urushi va o‘zbeklar. Mardlik maktabi. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. 352 b.

15. Qarang: F.Toshev. “Samarqandlik sheryuraklar”. Mardlik maktabi. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. 352 b.



ИСТОРИЯ УЧАСТИЯ УЗБЕКСКИХ ЖЕНЩИН В ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

**Дилрабо КУРБАНОВА,
Ургенчского Инновационного университет**

Аннотация

В данной статье анализируется история вхождения узбекских женщин в политическую, социальную, экономическую и культурную жизнь общества. Также изучаются история и историография борьбы за гендерное равенство. Сегодня женский вопрос занимает особое место в политической жизни общества.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek ayollarining jamiyat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga kirib kelish tarixi tahlil qilingan. Shuningdek, gender tenglik uchun kurashlar tarixi va tarixshunosligi o'rganilgan. Bugungi kun jamiyat siyosiy hayotida ayollar masalasiga urg'u berilgan.

Annotation

This article analyzes the history of the entry of Uzbek women into the political, social, economic and cultural life of society. The history and historiography of the struggle for gender equality is also studied. Today, the women's issue occupies a special place in the political life of society.

Ключевые слова: женщина, общество, политика, депутат, активистка, трудящиеся, страна, пол, закон, культура, парламент, выборы.

Kalit so'zlar: ayol, jamiyat, siyosat, deputat, faol, ishchilar, mamlakat, gender, qonun, madaniyat, parlament, saylov.

Ключевые слова: женщина, общество, политика, депутат, активистка, трудящиеся, страна, пол, закон, культура, парламент, выборы.

Key words: woman, society, politics, deputy, activist, workers, country, gender, law, culture, parliament, elections.

Проблема становления и развития парламентаризма в истории является одной из наиболее актуальных и наименее изученных проблем современной истории. Формирование новых форм государственной власти, особенно новой парламентской системы, требует глубокого изучения истории возникновения и становления института представительных органов, а затем и парламентских структур в системе государственной власти нашей республики. Эта проблема по объективным и субъективным причинам упускалась из виду исследователями, что сделало ее всестороннюю и объективную научную разработку «малозначительной» и даже невозможной на долгое время.

На общем фоне работ, посвященных Государственной Думе и раскрывающих различные вопросы ее деятельности, почти нет исследований, непосредственно связанных с представительством Туркестана.



В программах прогрессивных действий, появившихся в Узбекистане в начале XX века, нашли отражение вопросы равноправия женщин с мужчинами, их места в социальной жизни общества. Например, в программе «Шурой-Ислам» организации Джадидов главной задачей было предоставить женщинам право участвовать в выборах. Такие лидеры джадидов, как М. Бехбуди, А. Фитрат, Ф. Худжаев, А. Чолпон, А. Авлони и другие прогрессивные деятели, высоко оценивали роль женщин в обществе и утверждали о необходимости предоставления им социальной свободы. По их мнению, чтобы изменить общество, необходимо радикально реформировать духовную и культурную жизнь. То есть без принятия женщин как полноправных членов общества, без правильного решения вопросов семьи, без должного воспитания молодого поколения невозможно реформировать общество и направить его на путь прогрессивного развития. В конце концов было отмечено, что судьба нации напрямую зависит от ее женщин и государства [1]. Поэтому события 1920-х годов поддержали не только женщины, но и мужчины с передовыми взглядами [2].

Также в рамках темы исследования было изучено множество выступлений руководства, выступлений на форумах, конференциях. Например, на первом форуме работниц Туркестана, состоявшемся в Ташкенте в мае 1920 года, обсуждались вопросы вовлечения женщин в политическую жизнь. На этом форуме, в котором приняли участие 118 делегатов из разных районов Туркестана, рассматривались многие вопросы, такие как вовлечение женщин в общественно-политическую жизнь и управление делами республики, улучшение их материального положения, проведение среди них культурно-просветительской работы [3].

Согласно выступлению туркестанского делегата Л. Дворкиной на Первом международном съезде коммунистов, состоявшемся 1 августа 1920 года, «...в Туркестане 46 женотделов. Единственные пути обращения к женщинам — экономические и культурно-просветительские: организация артелей и ремесленных изделий через Совет народного хозяйства, а также привлечение женщин к общепрофессиональному строительству, агитация за мастерские и участие в их организации, контроль за их распределением. Организация женских школ, женских клубов, пропаганда среди мусульман — это было внедрение методов привлечения восточных женщин к борьбе за коммунизм. Результаты такой работы, проведенной в Туркестане, поразительны. В короткое время в артели в Ташкенте было организовано 2000 рабочих, из них в партию вступило 60 женщин, шесть были избраны в Советы; было открыто шесть школ» [4].

В 1940-1960-е годы работы, изданные на основе господствующей идеологической концепции в результате строгой унификации исторических взглядов, сообщающие интересный фактический материал, меняют фактическое



выражение взаимозависимости политических сил в Туркестанском крае в рассматриваемый период. П. Котляр и М. Вайс сделали одну из первых попыток обобщить имеющуюся информацию о подготовке и проведении выборов в I и II Государственные Думы в Туркестанской области. Авторы анализируют имперское избирательное законодательство, а также избирательную борьбу между политическими партиями и движениями и делают критические выводы. А. В. Пясковский существенно расширяет тему и наполняет ее статистическими данными [5].

После обретения Узбекистаном независимости, в период царского колониализма и советской эпохи взгляд на историю Узбекистана изменился. Острая необходимость в этом связана со временем и целью восстановления истинной картины исторических процессов, происходивших на протяжении многовековой истории Узбекистана.

В 90-е годы появились принципиально новые работы российских историков, написанные в качественно новой концептуальной манере, основанной на общепризнанных научных принципах и идее национальной независимости. Они отражают задачи систематического обзора и теоретической переоценки сущности, особенностей, особенностей и общих тенденций развития государственности на территории Узбекистана.

В соответствии с новой концепцией отечественной истории, одним из основных направлений которой является полное и объективное освещение национально-освободительной борьбы народа Узбекистана, необходимо отметить исследования Р. М. Абдуллаева, Х. А. Абдурахимовой и С. С. Агзамходжаева. В работах А.Д. Алимовой, Д.Х. Зияевой, Ф.Б. Исхаковой, Н.У. Мусаевой, Г.К. Рустамовой, Х.Д. Содиковой, Д. Таскуловой, Р. Турсуновой, А. М. Худойкуловой, З. Чориева, Т. Катюковой и других исследователей [6] во второй половине XIX — первой четверти XX в. саризм и его борьба шел Основные направления дискриминационной национально-переселенческой политики царизма в Туркестане широко трактуются в творчестве Ф. Б. Ишакова. Формирование национальной политической элиты и национальных политических организаций в Туркестане в начале 20 в., роль современников в этом процессе подробно рассмотрены в работах П. М. Абдуллаева, С. С. Агзамходжаева, Д. А. Алимовой, Д. Ташкуловой, А. М. Худойкулова и ряде коллективных исследований.

Например, в работе Р. Аминовой [7] за сентябрь 1926 г. имеются сведения об ускорении работы между женкомами среднеазиатских партийных комитетов. Движение получило название «Атака», то есть политика решения женского вопроса в стиле нападения началась одна за другой. Для осуществления этой кампании в странах Средней Азии, особенно в Узбекистане, в декабре 1926 г. были созданы специальные комиссии. Основной целью движения «Атака» было широкое вовлечение женщин в



общественное производство. Кроме того, в работе представлена обширная информация о том, как узбекские женщины не только водят автомобили на хлопковых полях, но и эффективно работают в животноводческих хозяйствах, работают в сферах сельского хозяйства агрономами, ветеринарами, животноводами, инженерами по ирригации. За большие заслуги в интересах страны 90 тысяч узбекских женщин награждены орденами и медалями, 135 женщин удостоены звания Героя Социалистического Труда [8].

Кроме того, в труде «Женщины Узбекистана», подготовленном Комитетом женщин Узбекистана, содержится информация об активных и ведущих женщинах в общественно-политических, экономических и культурных реформах нашей страны.

Увеличение числа женщин в органах государственного управления и дальнейшая активизация их деятельности обеспечат дальнейшую демократизацию общества и государственного управления, социальное равенство во всех сферах жизни и стабильное развитие страны.

8-9 сентября 2022 года в Ташкенте прошел 14-й саммит глав парламентов государств-членов Межпарламентского союза. В форуме приняли участие лидеры международных организаций, таких как ООН, Межпарламентский союз, Парламентская ассамблея Организации по безопасности и сотрудничеству в Европе, Межпарламентская ассамблея СНГ, а также представители парламентов более 120 государств.

Следует отметить, что МПС объединяет около 200 парламентов штатов и является крупнейшим форумом для диалога. Основная цель Саммита – создание гендерно-дружественного парламентаризма, нацеленного на стабильность и процветание [9].

На саммите была подчеркнута необходимость разработки плана действий по формированию парламента, который будет реагировать на гендерные вопросы на основе равенства, справедливости и стабильности в кризисных ситуациях. Исходя из этого, на мероприятии было подчеркнуто, что за последние пять лет реализованы масштабные реформы, направленные на обеспечение равного участия женщин в управлении обществом и государственными делами, социальную и правовую поддержку, а также защиту женщин от насилия.

В настоящее время женщины составляют 45 процентов рабочих и служащих, работающих в различных областях и отраслях нашей страны. Идея о том, что «мужчины и женщины имеют равные права», заложенная в статье 46 нашей Конституции, последовательно реализуется в жизнь. «Впервые в истории Узбекистана количество женщин в национальном парламенте достигло уровня, соответствующего рекомендациям ООН. Парламент нашей страны поднялся на 37-е место среди 190 национальных парламентов мира по



количеству женщин-депутатов. Однако – прошу обратить на это внимание – 5 лет назад мы были по этому показателю на 128-м месте» [10].

Следует отметить, что процент женщин в политических партиях Республики Узбекистан также увеличился по сравнению с предыдущими годами. Например, женщины составляют 29% членов Демократической партии Узбекистана «Национальное возрождение», 28% членов Народно-демократической партии Узбекистана, 22% членов Экологической партии Узбекистана, 21% членов Социал-демократической партии Узбекистана «Адолат» и 20% членов Либерально-демократической партии Узбекистана [11].

История Парламента Узбекистана и его развитие важны для политического развития женщин-депутатов. Становление парламентской системы в период независимости и участие в ней женщин свидетельствуют о том, что страна вступила в новый этап жизни. В частности, инициирование новых инициатив по участию женщин в парламенте повысило эффективность государственной политики, направленной на обеспечение социальной справедливости и гендерного равенства в обществе. На основе исторических документов и источников анализируются организационные аспекты деятельности женщин-депутатов и важные изменения в правовой деятельности государства. Вместе с тем, в этот период также оформилась деятельность парламента в независимом Узбекистане и первые шаги по обеспечению прав женщин.

Анализируя участие женщин в парламенте, участие женщин в политических процессах помогает внести вклад в демократическое развитие страны. Деятельность женщин-депутатов направлена на принятие норм, направленных на обеспечение социального и гендерного равенства, не оказывая при этом негативного влияния на процессы принятия законов в парламенте. Расширение возможностей участия женщин в политических процессах служит цели создания равных прав для всех слоев общества.

Список использованной литературы:

1. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент, 1992. – Б.32.
2. Егамбердиева А. М. жамиятдаги аёллар масаласининг тарихий талқини / А. М. Егамбердиева. — Матн: тўғридан-тўғри // ёш олим. — 2017. — № 10 (144). 361-363 бетлар. — УРЛ: <https://moluch.ru/archive/144/40054/> (кириш: 07/16/2023).
3. Женщина и политика. // Народная газета. – Печатный орган Республики Таджикистан, от 12 марта 2020 года.
4. «Отчет о Первой Международной конференции коммунисток». Госиздат, 1921, стр. 66. // Вовлечение женщин в общественно-политическую жизнь начата работа среди женщин туркестана | Биографии Героев и писателей СССР (pavelkaz.ru).



5. Котляр П., Вайс М. Как проводились выборы в Туркестане. — Т., 1947; Пясковский А.В. Революция 1905 — 1907 гг. в Туркестане. — Т., 1958; История народов Узбекистана. — Т.2. -Т., 1947 и др.

6. Абдуллаев Р. М. Национальные политические организации в Туркестане 1917-1918 гг. Дис. док. ист. наук — Т., 1998; Абдурахимова НА. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX — начало XX вв.): Автореф. дис. док. ист. наук — Т., 1994; Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX — первой четверти XX вв. — Т., 1999; Агзамходжаев С.С. "Туркистон мухтирияти": борьба за независимость (1917-1918 гг.) Дис. док. ист. наук — Т., 1996; Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. — Т., 2000; Зияева Д.Х. Национально освободительное движение в Узбекистане в историографии XX века (проблемы изучения истории восстания 1916 г. и движения "истиклолчилик" 1918-1924 гг.): Автореф. дис. док. ист. наук — Т., 1999; Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867/1918 гг.). — Т., 1997; Мусаев Н.У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX- начало XX в.): Автореф. дис. док. ист. наук. — Т., 1999; Садыков Х.Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за национальную независимость в начале XX века. Автореф. Дис. док. ист. наук — Т., 1994;; Ташкулов Д. Основные направления политико правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX- первой четверти XX вв. Дис. док. юр. наук — Т., 1995; Турсунова Р.Ю. Городское самоуправление в Туркестане (1877-1918 гг.): Автореф. дис. кан. ист. наук — Т., 2000; Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX- начало XX в.) Дис. кан. ист. наук — Т., 1995; Чариев З. У. Усиление колониальной политики и колониального гнета и их проявления в Туркестане в начале XXв. (на примере мобилизации на тыловые работы): Автореф. дис. док.; Котюкова Т.В. Проблемы Туркестана в центральных законодательных органах власти Российской Империи, 1905-1917 гг. Автореф. на соис. уч. степ. канд. ист. наук. — Москва, 2001.

7. Аминова, Р. Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. - Т., 1975. - С. 38.

8. ЎзР МДА, оп.1, иш 22. л.14.

9. В Ташкенте начал работу 14-й саммит женщин-руководителей парламентов государств-членов Межпарламентского союза. // Правда Востока от 17 ноября 2022 года.

10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотинқизлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи //2020 йил 7 март

11. Х. П. Кенжаева Аёллар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик институтларининг ўрни // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ayollar-izhtimoiy-faolligini-oshirishda-fu-arolik-institutlarining-rni> (дата обращения: 18).



MAHALLA VA YOSHLAR TASHKILOTLARINING IJTIMOIIY HIMOYADAGI ROLI

**Xusan PARMONOV,
Navoiy davlat universiteti**

Abstrakt. Maqolada mahalla va yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy himoyadagi roli, jamiyatni faollashtirish, qo'llab-quvvatlash tarmoqlari va mahalliy rivojlanish loyihalariga hissasi tahlil qilinadi. Ushbu tashkilotlar aholi va mahalliy hukumat o'rtasidagi aloqani osonlashtirib, marginal aholini himoya qiladi va yoshlarga ta'lim va fuqarolik ishtiroki orqali imkoniyatlar yaratadi. Toshkentdagi "Mahalla" dasturi va Samarqanddagi mahalliy loyihalar misolida jamiyat tashkilotlari va davlat organlari hamkorligining samarali natijalari ko'rsatilgan. Integratsiyalashgan xizmatlar va hamkorlikning ahamiyati ta'kidlangan holda, ijtimoiy muammolarni samarali hal etish va jamiyat farovonligini oshirish uchun ushbu tashkilotlarni kuchaytirish talab etiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya, mahalla tashkilotlari, yoshlar tashkilotlari, jamoatchilik ishtiroki, qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, mahalliy rivojlanish loyihalar, imkoniyatlarni kengaytirish, advokatlik, ko'ngillilik, integratsiyalashgan xizmatlar, hamkorlik, chekka aholi.

РОЛЬ МАХАЛЛА И МОЛОДЕЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ

**Хусан ПАРМОНОВ,
Навоий государственнй университет**

Аннотация: В статье рассматривается важная роль местных и молодежных организаций в социальной защите, подчеркивается их вклад в активизацию сообщества, сети поддержки и проекты местного развития. Эти организации способствуют общению между жителями и местными органами власти, защищают маргинализованные слои населения и расширяют возможности молодежи через образование и гражданскую активность. На примере программы «Махалля» в Ташкенте и местных проектов в Самарканде показаны эффективные результаты сотрудничества общественных организаций и государственных структур. Подчеркивается важность интеграции услуг и сотрудничества для решения социальных проблем и повышения благосостояния общества.

Ключевые слова: социальная защита, общественные организации, молодежные организации, участие в жизни общества, сети поддержки, проекты местного развития, расширение прав и возможностей, пропаганда, волонтерство, интегрированные услуги, партнерства, маргинализованные группы населения.



THE ROLE OF NEIGHBORHOOD AND YOUTH ORGANIZATIONS IN SOCIAL PROTECTION

Khusan PARMONOV,
Navoi State University

Abstract : The article examines the important role of neighborhood and youth organizations in social protection, highlighting their contribution to community activation, support networks, and local development projects. These organizations facilitate communication between residents and local authorities, protect marginalized populations, and create opportunities for youth through education and civic engagement. Successful initiatives, such as the “Mahalla” program in Tashkent and local projects in Samarkand, demonstrate the effective results of cooperation between public organizations and state bodies. The importance of integrated services and collaboration for solving social problems and improving societal well-being is emphasized.

Keywords: social protection, community organizations, youth organizations, community participation, support networks, local development projects, empowerment, advocacy, volunteering, integrated services, partnerships, marginalized populations.

Kirish

Ijtimoiy himoya zamonaviy jamiyatning muhim va ko‘p qirrali tarkibiy qismi bo‘lib, shaxslar va umumiy jamiyat farovonligini oshirishga qaratilgan. U odamlarni qashshoqlik, ishsizlik, kasallik va ijtimoiy chetlanish kabi hayotiy qiyinchiliklardan himoya qilishga qaratilgan turli strategiya va tashabbuslarni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, mahalla va yoshlar tashkilotlari ijtimoiy himoya tizimlari samaradorligiga salmoqli hissa qo‘shadigan muhim o‘rin tutadi. Bu tashkilotlar nafaqat keng aholi va mahalliy hukumat o‘rtasida muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi, balki resurslarni safarbar qiladi va jamiyatchilik ishtirokini rag‘batlantiradi [1; 25–26-b.]. Ijtimoiy himoya zamonaviy jamiyatning muhim va ko‘p qirrali tarkibiy qismi bo‘lib, shaxslar va umumiy jamiyat farovonligini oshirishga qaratilgan. U odamlarni qashshoqlik, ishsizlik, kasallik va ijtimoiy chetlanish kabi hayotiy qiyinchiliklardan himoya qilishga qaratilgan turli strategiya va tashabbuslarni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, mahalla va yoshlar tashkilotlari ijtimoiy himoya tizimlari samaradorligiga salmoqli hissa qo‘shadigan muhim o‘rin tutadi. Bu tashkilotlar nafaqat keng aholi va mahalliy hukumat o‘rtasida muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi, balki resurslarni safarbar qiladi va jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantiradi. Mahalla tashkilotlari inklyuziv ishtirokni rag‘batlantirish va jamiyat a‘zolarining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish orqali ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular mahalliy bilimlardan foydalanadigan va aholini jamoaviy harakatlarga jalb qiluvchi boshlang‘ich tashkilot sifatida faoliyat yuritadi va shu bilan marginal guruhlarning ovozi eshitilishini va ularning ehtiyojlarini qondirishini ta‘minlaydi. Turli tashabbuslar orqali ushbu tashkilotlar muhim xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi, jamiyatning barqarorligini oshiradi va aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan mahalliy rivojlanish loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi.



Xuddi shunday, yoshlar tashkilotlari ham yoshlarga shaxsiy o‘shish, yetakchilikni rivojlantirish va faol fuqarolik faolligi uchun imkoniyatlar yaratish orqali ularning imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning o‘ziga xos muammolari bor, ular o‘ziga xos yondashuvlarni talab qiladi va bu tashkilotlar ularning huquq va manfaatlarini himoya qilib, mahalliy siyosatni ishlab chiqish jarayonlarida ularning ovozini kuchaytirishni ta’minlaydi. Yoshlar tashkilotlari ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini tarbiyalash va ko‘ngillilikni rag‘batlantirish orqali yoshlarda faol fuqarolik madaniyatini tarbiyalaydi, ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun zarur ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Ushbu maqolada mahalla va yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy himoyadagi o‘rni va ahamiyati ularning ta’sirini ko‘rsatuvchi tegishli tashabbus va dasturlardan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqiladi. Jamoat tashkilotlari va davlat organlari hamkorligining samarali natijalarini ko‘rsatish uchun Toshkent shahridagi “Mahalla” dasturi va Samarqanddagi turli mahalliy loyihalar kabi diqqatga sazovor misollar o‘rganiladi. Integratsiyalashgan xizmatlar va hamkorlikdagi yondashuvlar zarurligini ta’kidlagan holda, muhokama ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish va jamiyat farovonligini oshirish uchun ushbu tashkilotlarni kuchaytirish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqot orqali maqola barqaror va inklyuziv jamiyatlar qurishda mahalla va yoshlar tashkilotlarining o‘zgartiruvchi kuchini ta’kidlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mahalla tashkilotlari inklyuziv ishtirokni rag‘batlantirish va jamiyat a’zolarining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish orqali ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular mahalliy bilimlardan foydalanadigan va aholini jamoaviy harakatlarga jalb qiluvchi boshlang‘ich tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, marginal guruhlarning ovozi eshitilishini va ularning ehtiyojlarini qondirilishini ta’minlaydi [2; 30-b.].

Mahalla tashkilotlarining ahamiyati

Jamiyat ishtiroki

Mahalla tashkilotlari jamoa va mahalliy hukumat o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish va hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishni rag‘batlantirish orqali ular hamjamiyat a’zolariga o‘z tashvishlarini bildirish va ehtiyojlarini ifoda etish imkoniyatini beradi. Bu hamkorlik nafaqat boshqaruvda shaffoflikni oshiradi, balki fuqarolar va mansabdor shaxslar o‘rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Rezidentlar muhokamalar va rejalashtirishda faol ishtirok etar ekan, ushbu tashkilotlar mahalliy siyosat va tashabbuslar jamiyatning haqiqiy manfaatlarini va ustuvorliklarini aks ettirishiga yordam beradi va shu bilan quyi darajadagi demokratik jarayonni mustahkamlaydi.

Qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari

Ushbu tashkilotlar ko‘pincha qashshoqlik, ishsizlik va sog‘liq muammolarini o‘z ichiga olgan bir qator qiyinchiliklarga duch kelayotgan shaxslar uchun hayotiy yordam tarmoqlari sifatida ishlaydi. Toshkentdagi “Mahalla” tashabbusi kabi dasturlar fuqarolarni muhim manbalar va xizmatlar bilan bog‘lashi bilan bunga misol bo‘la oladi. Moliyaviy yordam, tibbiy xizmatdan foydalanish yoki bandlikni



qo‘llab-quvvatlash orqali o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish orqali mahalla tashkilotlari odamlarga o‘z sharoitlarini yanada samarali boshqarish imkonini beradi. Ushbu xavfsizlik tarmog‘i nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiyinchiliklarni yengillashtiradi, balki aholi bir-biriga muhtoj bo‘lgan paytda bir-birini qo‘llab-quvvatlash uchun birlashganda, tegishlilik va jamoat birdamligi hissini uyg‘otadi.

Mahalliy rivojlanish loyihalari

Mahalla tashkilotlari mahallalarda hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydigan mahalliy rivojlanish loyihalarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Tashabbuslar keng qamrovli tadbirlarni, jumladan, bog‘lar barpo etish, kasb-hunarga o‘qitish dasturlarini amalga oshirish va o‘quv seminarlarini tashkil etishni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, Samarqand shahrida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli loyihalar ta‘lim resurslari va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi va shu orqali aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi sa‘y-harakatlarni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Mahalliy ehtiyojlar va ustuvorliklarga e‘tibor qaratgan holda, ushbu tashkilotlar jamiyatning barqarorligi va imkoniyatlarini kengaytiradigan barqaror rivojlanishni ta‘minlaydi.

Yoshlar tashkilotlarining roli

Imkoniyatlarni kuchaytirish va himoya qilish

Yoshlar tashkilotlari yoshlar o‘rtasida shaxsiy o‘shish, yetakchilikni rivojlantirish va fuqarolik faolligini oshirish uchun imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ular yoshlar muammolari bo‘yicha himoyachi bo‘lib xizmat qiladi, yoshlar jamiyatda duch keladigan muayyan muammolar, masalan, ishsizlik, ta‘limdagi nomutanosiblik va ruhiy salomatlik muammolari haqida xabardorlikni oshiradi. Mahalliy siyosatni ishlab chiqishda yoshlarning ovozini kuchaytirish orqali ushbu tashkilotlar yosh avlodning istiqbollari hisobga olinishini ta‘minlaydi, bu esa yanada inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi jamiyat muhitiga olib keladi.

Ko‘ngillilik va ijtimoiy mas‘uliyat

Ko‘pgina yoshlar tashkilotlari yoshlarda ijtimoiy mas‘uliyat tuyg‘usini kuchaytiruvchi ko‘ngillilik ruhini rag‘batlantirishga ustuvor ahamiyat beradi. Tozalash kampaniyalari, murabbiylik dasturlari va ta‘lim tashabbuslari kabi jamoat xizmatlari loyihalarida ishtirok etish orqali yoshlar jamoaviy ish, muloqot va yetakchilik kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ushbu ishtirok nafaqat jamiyatga foyda keltiradi, balki ko‘ngillilarning shaxsiy rivojlanishini kuchaytiradi, fuqarolik ishtiroki va ijtimoiy ta‘sirga umrbod sadoqatini kuchaytiradi.

Ta‘lim va ko‘nikmalarni rivojlantirish

Yoshlarni kelajakdagi qiyinchiliklarga tayyorlashga intilishda tashkilotlar tez-tez yoshlarni muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vositalar bilan jihozlash uchun mo‘ljallangan ta‘lim dasturlari va malaka oshirish seminarlarini taklif qilishadi. Ushbu tashabbuslar nafaqat tegishli ko‘nikma va bilimlarni taqdim etish orqali bandlikni mustahkamlash, balki yoshlar populyatsiyasi o‘rtasida umumiy barqarorlikni ham ta‘minlaydi. Yoshlar tashkilotlari mehnat bozorining tez o‘zgarib borayotgan talablarini hisobga olgan holda, yoshlarning o‘z jamiyatlarining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shish bilan birga, kelajakda o‘z kasblarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun puxta tayyorgarlik ko‘rishlarini ta‘minlaydi.



Hamkorlikdagi sa'y-harakatlar

Mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlik

Mahalla va yoshlar tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari hamkorligi aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi tashabbuslar samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Birgalikda ishlash orqali ushbu tashkilotlar yoshlar bandligi, jamiyat xavfsizligi va aholi salomatligi kabi dolzarb ijtimoiy muammolarni hamkorlikda hal qilishlari mumkin. Qo'shma dasturlar umumiy resurslar va tajribadan foydalanadi, kengroq hamjamiyat uchun foydali bo'lgan keng qamrovli yechimlarni yaratadi. Ushbu strategik hamkorlik nafaqat ijtimoiy muammolarga o'z vaqtida javob berishga yordam beradi, balki rivojlanish tashabbuslari ustidan jamiyatning egalik tuyg'usini kuchaytiradi.

Integratsiyalashgan xizmatlar

Hamkorlikdagi sa'y-harakatlar orqali mahalla va yoshlar tashkilotlari jamiyatning ko'p va o'zaro bog'liq ehtiyojlarini qondiradigan kompleks xizmatlarni taqdim etishi mumkin. Sog'liqni saqlash, ta'lim, kasbiy ta'lim va ijtimoiy xizmatlarni o'z ichiga olgan yaxlit yondashuvni taklif qilish orqali ular shaxslarning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Ushbu yagona xizmat ko'rsatish tizimi nafaqat ijtimoiy himoya strategiyalari samaradorligini oshiradi, balki qashshoqlikdan chiqib ketayotgan yoki shaxsiy qiyinchiliklarni yengib o'tadigan shaxslar uchun yanada yumshoq yo'lni osonlashtiradi, pirovardida jamiyatning mustahkamligi va farovonligiga hissa qo'shadi.

Integratsiyalashgan xizmatlar

Birgalikda ishlash orqali ushbu tashkilotlar sog'liqni saqlash, ta'lim va ish bilan ta'minlash kabi bir nechta ehtiyojlarni qondiradigan integratsiyalashgan xizmatlarni taklif qilishlari mumkin. Yagona yondashuv jamiyatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi, odamlarga qashshoqlikdan samaraliroq qutulishga yordam beradi.

Muhokama

Toshkentdagi "Mahalla" dasturi va Samarqanddagi turli mahalliy loyihalar jamiyat tashkilotlari va davlat organlari hamkorligining samarali natijalarini ko'rsatadi. Bu tashabbuslar qashshoqlik, ishsizlik va sog'liqni saqlash muammolari kabi bevosita ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi [3; 45-b.].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mahalla va yoshlar tashkilotlari ijtimoiy himoya sohasida bebaho boylik bo'lib, inson va jamiyat farovonligiga sezilarli hissa qo'shadigan o'zgartiruvchi rol o'ynaydi. Ularning tub tabiati ularga aholining turli qatlamlari, ayniqsa, marginal va zaif guruhlar duch keladigan o'ziga xos muammolarni yaqindan tushunish imkonini beradi va ularni fuqarolar va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi aloqa va hamkorlikni osonlashtirishda muhim vositachilarga aylantiradi. Jamiyatlarni faol ishtirok etish orqali kuchaytirish orqali ushbu tashkilotlar ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlikni rivojlantiradi, natijada o'z a'zolarining hayot sifatini oshiradi. Mahalla va yoshlar tashkilotlari ijtimoiy himoya tizimidagi muhim vosita bo'lib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xissa qo'shadi. Ularning imkoniyatlarini kuchaytirish va mahalliy hukumat organlari



bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali odamlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin [5; 18-b.]. Ushbu maqolada keltirilgan dalillar Toshkentdagi “Mahalla” dasturi va Samarqanddagi turli mahalliy loyihalar kabi tashabbuslar jamoat tashkilotlari va davlat idoralari o‘rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning namunasi ekanini ko‘rsatadi. Ushbu tashabbuslar nafaqat qashshoqlik, ishsizlik va sog‘liqni saqlash muammolari kabi bevosita ijtimoiy muammolarni hal qiladi, balki salohiyatni oshirish va resurslarni safarbar qilish orqali barqaror rivojlanish yo‘llarini yaratadi. Sog‘liqni saqlash, ta‘lim, kasbiy ta‘lim va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qamrab oluvchi ushbu tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning integratsiyasi jamiyat ehtiyojlarini hal qilishda yaxlit yondashuvni ta‘minlaydi, shuning uchun uzoq muddatli barqarorlik va o‘shishga yordam beradi. Ayniqsa, yoshlar tashkilotlari yoshlarni muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va imkoniyatlar bilan qurollantirish orqali jamiyat kelajagini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tashkilotlar vakolatlarni kengaytirish, targ‘ibot va ijtimoiy mas‘uliyatga e‘tibor qaratib, yoshlar o‘rtasida faol fuqarolik tuyg‘usini tarbiyalaydi, bu esa jamiyat faoliyati va mahalliy boshqaruvga kengroq jalb etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, ko‘ngillilik va ijtimoiy tashabbuslarni rag‘batlantirish muhim hayotiy ko‘nikmalar va mas‘uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi, yosh avlodni tez o‘zgarib borayotgan dunyoning murakkabliklarida harakat qilishga tayyorlaydi. Mazkur maqolada ta‘kidlanganidek, mahalla va yoshlar tashkilotlarini kuchaytirish zarurligi birinchi o‘rinda turadi. Bu ularning resurslarni safarbar qilish salohiyatini oshirish, o‘qitish va rivojlanish dasturlarini osonlashtirish hamda mahalliy hokimiyat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan mustahkam hamkorlikni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu tashkilotlarga sarmoya kiritish orqali biz nafaqat ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlaymiz, balki inklyuziv va adolatli jamoalarning o‘shishiga yordam beramiz. Oldinga siljish uchun siyosatchilar, jamoat rahbarlari va rivojlanish amaliyotchilari ushbu tashkilotlarning imkoniyatlarini tan olishlari va ulardan foydalanishlari kerak. Ularning sa‘y-harakatlarini moliyalashtirish, o‘qitish va resurslar orqali qo‘llab-quvvatlash ularning dinamik muhitda rivojlanishi va moslashishini ta‘minlaydi. Pirovardida, mahalla va yoshlar tashkilotlari, mahalliy hokimliklar, umuman, mahallalar o‘rtasidagi hamkorlikdagi sa‘y-harakatlar eng dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etish, aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, barcha uchun adolatli va inklyuziv jamiyat qurish sari yo‘l ochishni va‘da qilmoqda. Barqaror jamoaviy harakatlar orqali biz har bir kishi gullab-yashnashi va jamiyat tuzilishiga mazmunli hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lgan mustahkam jamiyatlarni qurish yo‘lida harakat qilishimiz mumkin.

Adabiyotlar /Литература/References:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2019). Tinch jamiyatlar qurish: ijtimoiy himoya tizimlarida yoshlarning roli. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi.
2. Jahon banki. (2020). Jamiyatga asoslangan tashkilotlarning ijtimoiy himoyadagi roli. Jahon banki nashrlari.



3. Aldrich, DP (2019). Bardoshlilikni oshirish: tabiiy ofatdan keyingi tiklanishda ijtimoiy kapitalning roli. Chikago universiteti matbuoti.
4. Kemp, C. (2018). Yoshlarni mahalliy rivojlanishga jalb qilish: amaliyotchilar uchun amaliy qo‘llanma. Xalqaro yoshlar fondi.
5. HelpAge International. (2021). Hamma uchun ijtimoiy himoya: jamoat tashkilotlarining roli. HelpAge International.
6. Kozak, S. (2022). Yoshlar tashkilotlari orqali mahallalar imkoniyatlarini kengaytirish: Samarqand misoli. Xalqaro ijtimoiy ish jurnali, 55 (3), 364-378.
7. O‘zbekiston Mahalla va oila ishlari vazirligi. (2020). O‘zbekistonda ijtimoiy himoya dasturlari bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent: O‘zbekiston hukumati.
8. Behrendt, C. va Karaoglu, M. (2019). Yoshlar va jamiyat taraqqiyoti: global istiqbollor va mahalliy amaliyot. Routledge .
9. Selvin, N. (2020). Raqamli texnologiyalar va ish kelajagi: o‘zgarishlarni boshqarishda yoshlarning roli. jurnali Yoshlar tadqiqotlari, 23(4), 543-558.
10. Pells, KL (2021). Ko‘ngillilik orqali jamiyatning barqarorligi: yoshlar tashkilotlarining mahalliy taraqqiyotga ta’siri. Jamiyatni rivojlantirish jurnali, 56(1), 127-143.



SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY HAYOTIDA TRANSPORT TIZIMINING O‘RNI

Eshbolta QOBULOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

eshbolta@mail.ru

Uyg‘un SAIDOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatining transport tizimi va uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli tahlil qilingan. Viloyatning geografik joylashuvi, transport infratuzilmasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, avtomobil, temir yo‘l, havo va quvur transporti tizimlarining iqtisodiyotga ta’siri o‘rganilgan.

Tayanch so‘zlar: Surxondaryo viloyati, transport tizimi, avtomobil yo‘llari, temir yo‘l, logistika, Infratuzilma, xalqaro transport.

The role of transport system in the economical life of Surkhandarya region

Abstract. This article analyzes the transport system of the Surxondaryo region and its role in economic development. The geographical location of the region, the current state of transport infrastructure, and development prospects are examined. The impact of road, railway, air, and pipeline transport systems on the economy is also explored.

Keywords: Surxondaryo, transport system, road network, railway, logistics, infrastructure, international transport.

Kirish. Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning eng janubiy qismida joylashgan bo‘lib, geografik jihatdan Afg‘oniston, Tojikiston va Turkmaniston bilan chegaradosh. Ushbu strategik joylashuv viloyatning transport tizimi va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Viloyat transport tizimining rivojlanishi nafaqat ichki hududiy aloqalarni yaxshilash, balki xalqaro savdo va iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham zarurdir. Har qanday hududning transport infratuzilmasi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning iqtisodiy salohiyati va investitsion jozibadorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Surxondaryo viloyatida transport yo‘llari va infratuzilmaning rivojlanishi sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va turizm tarmoqlarining barqaror o‘shishiga xizmat qiladi. Viloyatning transport tarmog‘i avtomobil, temir yo‘l, havo va quvur transportidan iborat bo‘lib, har biri alohida ahamiyatga ega. Surxondaryo viloyatining iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lishiga qaramay, transport infratuzilmasida ba’zi muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, tog‘li hududlardagi transport yo‘llarining rivojlanish darajasi past bo‘lib, qishloq joylarida yo‘l tarmog‘i yetarlicha rivojlanmagan. Shuningdek, xalqaro yuk tashish tizimini modernizatsiya qilish va logistika xizmatlarini takomillashtirish muhim vazifalar sirasiga kiradi.



Adabiyotlar tahlili. Surxondaryo viloyatining transport tizimi va uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu mavzu bo'yicha ilmiy manbalar asosan iqtisodiy geografiya, transport infratuzilmasi va hududiy rivojlanish yo'nalishlarida olib borilgan tadqiqotlarga asoslanadi. Jumladan, Soliev.A. "O'zbekiston geografiyasi" (2014) asarida O'zbekistonning tabiiy-geografik sharoitlari, transport tarmoqlari va ularning hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Muallifning tadqiqotlarida Surxondaryo viloyati transport tizimining geografik joylashuvi va iqtisodiy faollikka ta'siri haqida ma'lumot berilgan[3]. Tarixchi olim B.A.Rayzbergning "Основы экономики и предпринимательства" (1995) asari iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslariga bag'ishlangan bo'lib, transport tizimining iqtisodiy jarayonlardagi o'rni haqida umumiy nazariy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot transport infratuzilmasining rivojlanishi sanoat va savdo aloqalarining kengayishiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib beradi[1]. Yu.G.Saushkinning "Избранные труды" asari esa hududiy iqtisodiy geografiya bo'yicha ushbu ilmiy ishda transport tizimining hududiy taqsimoti va infratuzilmaviy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Muallifning ilmiy qarashlari Surxondaryo viloyati transport tizimini geografik jihatdan tahlil qilishda foydali bo'ldi[2]. "Социально-экономическое развитие Узбекистана за годы Советской власти" (1984) nomli tadqiqotda Sovet davrida O'zbekiston transport tizimining rivojlanish yo'nalishlari va iqtisodiy rejalashtirish asoslari yoritilgan. Unda Surxondaryo viloyatining transport infratuzilmasi qanday shakllanganligi va markaz manfaatlari doirasida qanday rivojlantirilgani haqida ma'lumotlar keltirilgan[4].

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotda Surxondaryo viloyatining transport tizimini tahlil qilish uchun quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tahlil va sintez metodida viloyat transport tizimining hozirgi holati o'rganildi, transport tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilindi; geografik taqqoslash usulidan Surxondaryo viloyatining transport tizimi O'zbekistonning boshqa hududlari bilan taqqoslandi, viloyatning geografik joylashuvi va transport infratuzilmasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi; statistik tahlil metodi orqali transport infratuzilmasining hozirgi holati bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi, transport tarmoqlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar, jumladan, yo'llar uzunligi, yuk va yo'lovchilar tashish hajmi, xalqaro transport yo'laklari haqidagi ma'lumotlar ko'rib chiqildi.

Ushbu metodlar yordamida viloyat transport tizimining bugungi holati, rivojlanish istiqbollari va iqtisodiy ta'siri bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot natijalari. Yurtimizda 1992-1994 yillarda keng ko'lamli xususiy-lashtirish jarayoni boshlanib, bu tadbir yo'l qurilishi va avtotransport korxonalarida ham amalga oshirildi. Ayniqsa, bu davrda avtokorxonalar xususiylashtirilib, davlat tasarrufidan chiqarilgan. Yengil transport vositasida xizmat ko'rsatish to'liq xususiy ishbiarmonlar tomonidan olib borilgan. Shuningdek, aholiga sifatli transport xizmatini ko'rsatish uchun zamonaviy transport vositalari zarur edi. Bu esa, tumanlardagi avtokorxonalar va yo'l qurilishi boshqarmalari ishiga juda katta mas'uliyatni yuklagan.



Surxondaryo viloyatida 1990 yillarning boshlarida barcha avtobuslar Vengriyaning Ikarus, Ukrainaning LAZ va Rossiyaning PAZ firmalari tomonidan ishlab chiqarilgan. Ikarus 260 rusumli avtobuslar 3 eshikli va sariq rangli bo‘lib, shahar ichi va shahar atrofida harakatlanishga mo‘ljallangan. Ikarus 256 rusumli avtobuslar qizil rangli va ikki eshikli bo‘lib, shaharlararo yo‘nalishlarda qatnar, shuningdek, sayyohlik maqsadlarida xizmat qilgan. LAZ-695 avtobusi shahar ichi va unga yaqin hududlarga, LAZ-699 sayyohlar va shaharlararo yo‘nalishlarida qatnagan. Kichikroq hajmdagi PAZ-672 avtobuslari tumanlar va shaharlar atrofidagi yo‘nalishlarda aholiga transport xizmatini amalga oshirgan. Ammo, transport vositalarining moddiy texnik jihatdan eskirishi hamda xo‘jalik aloqalarining buzilishi avtobuslar uchun kerakli bo‘lgan ehtiyot qismlarning keltirilishini yanada og‘irlashtirib yuborgan. Mana shunday vaziyatdan chiqish uchun zudlik bilan zarur choralarni ishlab chiqish zaruriy hisoblangan.

1992 yilda O‘zbekistonga, shu jumladan, Surxondaryo viloyatiga ham chetdan yangi, zamonaviy transport vositalarini keltirish yo‘lga qo‘yildi. Avtotransport vositalaridan Turkiyada ishlab chiqarilgan Tofas-Dogan yengil avtomobillari, Ford-Otosan avtobuslari hamda Koreya Respublikasining DAEWOO avtobuslari keltirildi. Ammo, ehtiyot qismlarni keltirish yo‘lga qo‘yilmaganligi tufayli ushbu transport vositalari tez orada muomaladan chiqarib tashlandi. Yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish asosan RAF – 2203 rusumli mikroavtobus, LAZ-695, PAZ-672 hamda KAVZ-3270 avtobuslari tomonidan amalga oshirildi. Uzoqroq masofaga yo‘lovchilarni tashish uchun Ikarus 256, LAZ-699, shuningdek, Germaniyaning Mercedes va Setra avtobuslaridan foydalanildi[7, 26].

1996 yilda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Andijon viloyatining Asaka shahrida Janubiy Koreaning “DEU” korporatsiyasi bilan hamkorlikda yillik loyiha quvvati 200 ming dona yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan “O‘zDEUavto” qo‘shma korxonasi barpo etildi[5, 37]. 1996 yil 25 mart kuni zavod konveyerlaridan dastlab “Damas” rusumli avtomobillari, o‘sha yilning iyun va iyul oylaridan “Tiko” va “Neksiya” avtomobillari chiqarila boshlandi.

Erishilgan ushbu muvaffaqiyatlar natijasida O‘zbekiston o‘z aholisini yengil avtomobillar bilan ta‘minlash bilan bir qatorda, chetga ham eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shu bilan birga yo‘lovchi tashish transportini modernizatsiya qilish, aholiga arzon va sifatli transport xizmatini ko‘rsatish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda edi. Mamlakatda avtobuslarga bo‘lgan ehtiyojning yuqori ekanligi inobatga olinib, 1996 yil 5 noyabrda hukumat tomonidan Samarqandda O‘zbek-Turk — SamKochavto qo‘shma korxonasini tashkil etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi. O‘zbekistonning UzAutoSanoat va Turkiyaning KocHolding kompaniyalari ushbu korxonaning tashkilotchilari bo‘ldilar. Uch yil davom etgan qurilish ishlaridan so‘ng nihoyat 1999 yil 19 martda zavod konveyeridan zamonaviy avtobuslar va yuk mashinalari chiqarila boshlandi.

O‘zbekistonda yangi avtomobil sanoatining tashkil qilinishi bilan avtobuslardan yo‘lovchi tashish hajmi orta boshladi. Masalan, 1997 yilda Surxondaryo viloyati bo‘yicha avtobuslarda 93,8 mln yo‘lovchi tashilgan bo‘lsa, 2001 yilda 96,3



mln. kishiga yetdi. Avtobuslarda yo‘lovchi tashish aylanmasi 1997 yilda 603,7 mln. yo‘lovchi/km, 2001 yilda 560,4 mln. yo‘lovchi/km.ni tashkil qildi. Bunday bo‘lishiga 1997 yilda, asosan, Toshkent, Samarqand va boshqa uzoq yo‘nalishlar bo‘yicha yo‘lovchi tashish hisobiga to‘g‘ri kelganligi bilan izohlanadi. 2001 yilda esa ko‘proq ichki reyslarda yo‘lovchi tashilganligi kuzatiladi.

Surxondaryo viloyatining mamlakat yagona temir yo‘l tizimiga bog‘lanishi bu yerdagi tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish imkonini berdi. Viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, hududga chet el investitsiyalarini jalb etish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun eng avvalo transport xarajatlarini kamaytirish lozim edi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 fevraldagi PQ-1712 sonli Qaroriga muvofiq Termiz-Qarshi temir yo‘lini elektrlashtirish boshlandi. Loyihaning umumiy qiymati 327,6 mln. AQSh dollar bo‘lib, ish jarayonida 6 ta — Toshguzar, Dexqonobod, Oqrabot, Boysun, Qumqurg‘on, №165-raz‘ezd tayanch nimstansiyalari qurildi. Tayanch nimstansiyalar murakkab ob-havo sharoitlarida barpo etildi. Shuningdek, ushbu uchastka zamonaviy signalizatsiya va aloqa tizimi bilan ta‘minlandi. Bundan tashqari, qurilish va kontakt simlariga xizmat ko‘rsatish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Termiz lokomotiv deposi to‘liq ta‘mirdan chiqarilib, chet eldan keltirilgan zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi[8. 18,19].

2018 yilning 9 yanvaridan boshlab, elektrlashtirilgan Qarshi-Termiz temir yo‘l uchastkasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tgan. Umumiy uzunligi 325 kilometr dan iborat, ushbu liniyada endilikda dizel yonilg‘isi bilan ishlovchi teplovozlar o‘rniga zamonaviy elektrovozlar harakatlanadi. Bu esa yo‘lovchi va yuklarni tashishda transport xarajatlarining uchdan birga qisqartirish bilan bir qatorda, tashish imkoniyatlarini bir necha marotaba oshiradi. Chunonchi, oldin bir lokomotiv bilan o‘rtacha 25 ta vagon tashilgan bo‘lsa, zamonaviy elektrovozda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 45 ta vagonni tashkil etgan. Eski turdagi bitta lokomotivda 2200 tonnaga qadar yuk tortilgan bo‘lsa, zamonaviy elektrovoz bilan 3700 tonna yuk tashiladi. 2018 yilning 20 martidan boshlab, O‘zbekiston temir yo‘llari “Toshkent-Termiz” yo‘nalishida yo‘lovchi tashiydigan elektropoezd qatnovini yo‘lga qo‘ydi[8. 20].

Yer yuzida joylashgan mamlakatlarning transport tizimlarini rivojlantirish bugungi kunning muhim masalalaridan biriga aylangan. Bu borada respublikamizning eng chekka janubiy qismida joylashgan Surxondaryo viloyatini poytaxt va boshqa viloyatlar bilan bog‘lashda hamda viloyatning iqtisodiy va siyosiy mavqeini ko‘tarishda uning transport tizimini rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur viloyatning joylashuvi haqida taniqli olim A.Soliev shunday deydi — “Mamlakatimizda faqat Toshkent va Surxondaryo viloyatlari 3 tadan davlatlar bilan tutash, biroq bunday siyosiy geografik o‘rin, geosiyosiy vaziyat Surxondaryo viloyati uchun o‘zgacha xususiyat kasb etadi”[3].

Viloyatning tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy rivojlanishi xususiyatlari, uning transport tizimlarini shakllanishida yetakchi omillar vazifasini bajarib kelmoqda. Viloyatda dastlabki temir yo‘llar uning tekislik qismidan o‘tkazilgan bo‘lsa, o‘sha hududlarda aholi punktlari shakllangan. Hududining katta



qismi tog‘li hisoblangani sababli transport tizimlarini tashkil etishda noqulayliklar mavjud.

Buni tumanlar kesimda ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, tog‘li tumanlar qatoriga Boysun, Sariosiyo, Sherobod va qisman tog‘li tumanlarga Oltinsoy, Uzun tumanlari, nisbatan, tekislik tumanlari esa Denov, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Angor, Termiz, Muzrabot, Qiziriq tumanlari viloyatning tekislik qismida joylashgan bo‘lib, transport yo‘llari qurilishida qiyinchiliklarga duch kelinmaydi va transport yo‘llar zichligini oshirishni talab etadi.

Aholining sabzavot va poliz ekinlariga bo‘lgan talabining ortishi natijasida mazkur tarmoq ham intensiv rivojlanmoqda. Sabzavotchilik va polizchilikning turli xil mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan viloyatning yangi o‘zlashtirilgan va unga yaqin bo‘lgan hududlarda polizchilik, shahar atrofi mintaqalarida sabzavot va “issiqxona” ekinlari, adir va tog‘ oldi mintaqalarida esa asosan sabzavot ekinlari yetishtiriladi.

Viloyat sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi turli omillar ta’sirida shakllangan. Jumladan, hunarmandchilik va savdogarchilikning rivojlanishida Denov, Termiz, Jarqo‘rg‘on, shahar va tumanlari yaqqol ajralib tursa, qurilish materiallari ishlab chiqarishda Sherobod, Sariosiyo, Denov qisman Uzun tumanlari yetakchilik qiladi. Qiziriq, Muzrabot, Oltinsoy tumanlarida esa asosan qishloq xo‘jaligi shakllangan va bu tumanlar transport yo‘llari noqulayligi ham yuqoridagi sohalar rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Transport viloyat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Viloyatning ichki hududlarini o‘zaro bog‘lashda, uning tashqi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalarida transportning tutgan o‘rni katta. Hozirgi vaqtda viloyat temir yo‘llarining umumiy uzunligi km. 411,5 km. bo‘lib shundan 179,4 km. elektrlashtirilgan. Viloyat temir yo‘l liniyalari 5 ta bo‘lib, Termiz-Quduqli, Aqnazar-Qumqo‘rg‘on, Boldir-Termiz, Termiz-Amuzang, Termiz-Port kabilar. Ulardagi stansiyalar soni esa 27 tani tashkil etadi. Viloyat yuk tashish aylanmasida temir yo‘l transportining hissasi katta.

Viloyat hududidan Moskva-Dushanbe, Ashxobod-Dushanbe temir yo‘llari o‘tgan. Termiz-Toshkent, Termiz-Amuzang, Termiz-Sariosiyo Termiz-Boldir yo‘nalishlarida poyezdlar qatnaydi. Shuningdek Termiz shahri orqali Dushanbe-Astraxan, Dushanbe-Konibodom, Ko‘lob-Astraxan yo‘nalishlarida poyezdlar qatnaydi.

Shuningdek, G‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lini qurilishi Surxondaryo viloyatini mamlakatimizning poytaxtiga 120-130 km.ga yaqinlashtirdi. Yuk va yo‘lovchi tashish hajmini ko‘paytirib, tashqi iqtisodiy aloqalarini kengayishiga xizmat qilmoqda.

Viloyatning ichki transport aloqalarida avtomobil yo‘lining o‘rni beqiyosdir. Avtomobil transporti “eshikdan eshikkacha” yuk va yo‘lovchilarni tashishda ahamiyatlidir. Avtomobil yo‘llari uzunligi 2843 km. bo‘lib, bu yo‘llar xalqaro, davlat, mahalliy ahamiyatga ega yo‘llardir. Viloyat avtomobil yo‘llarining 2843 km.li umumiy yo‘ldan 351 km.li qismi xalqaro ahamiyatga molik yo‘llardir. Shuni ta’kidlash joizki, yana ba’zi yo‘llarni xalqaro ahamiyatli yo‘llar toifasiga o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Ularga Denov-Qarshi, Denov-Shahrisabz, Denov-G‘uzor,



Denov-Urganch, Denov-Samarqand yo‘nalishidagi avtomobil yo‘llari shular jumlasidandir.

Yaqin davrlar ichida loyihalashtirilgan Karachi-Qobul-Termiz avtomobil yo‘lining ishga tushirilishi mamlakatni Afg‘oniston, Pokiston davlatlari bilan bog‘laydi va Hind okeaniga chiqish imkoniyatini yaratib beradi.

Surxondaryo viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida havo va quvur transporti ham muhim o‘rin tutadi. Havo transporti orqali respublikamizning yirik shaharlari va boshqa mamlakatlar bilan aloqa o‘rnatilgan. Termiz-Toshkent, Termiz-Moskva, Termiz-Samarqand-Namangan, Termiz-Buxoro, Termiz-Ashxobod, Termiz-Andijon, Termiz-Oлмаota, Termiz-Qobul va boshqa havo yo‘llarining yo‘lovchi tashishda ahamiyati yuqoridir.

Viloyatda aeroport Termiz shahrida mavjud bo‘lib, 2011 yilda qayta ta‘mirlandi. “Termiz” aeroporti O‘zbekiston Respublikasidagi yirik aviatashkilotlardan biri hisoblanib, uning asosiy faoliyati quyidagilardan iboratdir: havo kemalariga yerda xizmat ko‘rsatish, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish, yuklarga xizmat ko‘rsatish, pochtaga xizmat ko‘rsatishlarni o‘z ichiga oladi.

Viloyatimiz ko‘plab madaniy tarixiy yodgorliklarga boy hudud hisoblanadi. Chet eldan keluvchi turistlar uchun ham aeroport muhim yo‘lovchi tashish funksiyasini bajaradi.

Viloyatda quvur transporti endilikda rivojlanmoqda. U xo‘jaliklar va sanoat korxonalarini, shaharlar va aholi punktlarini chuchuk suv bilan ta‘minlash va gazlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Umuman olganda, mamlakatimizning boshqa mintaqalariga nisbatan Surxondaryo viloyatining transport tizimi u qadar rivojlanmagan. Hozirgi kungacha viloyat havo va temir yo‘l transportida faqat yo‘lovchi tashiladi, yuk tashish endilikda yo‘lga qo‘yilmoqda. Viloyat xizmatlar sohasida transport xizmatlari umumiy xizmatlarning 1/5 dan ko‘proq qismini bajarmoqda.

Yo‘lovchilarni avtomobil transportida tashish 2018 yilda 257,5 mln. kishini tashkil etgan, bu tumanlar miqyosida turlicha ko‘rinishga ega. Jumladan, Termiz shahrida 2018 yilda 39.7 mln. kishi, Denov tumanida 37 mln. kishi, keyingi o‘rinlarda Angor, Jarqo‘rg‘on, Muzrabot tumanlari egallaydi. Albatta, bu tumanlar xo‘jaligi viloyatning boshqa tumanlar orasida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Avtomobil transportida yo‘lovchi tashish bo‘yicha yeng past ko‘rsatkichlarga ega tumanlarga kelsak Boysun, Oltinsoy, Sho‘rchi tumanlari hisoblanadi. Boysun tumanida 2018 yilda 5 mln. kishi tashilgan. Bu o‘z o‘rnida tumanning tog‘li hudud-da hamda rivojlanmagan transport tizimi, aholi soni kamligi bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rayzberg B.A. Основы экономики и предпринимательства. – Moskva: Prosveteniye, 1995.
2. Saushkin Yu.G. Избранные труды. – Smolensk: Universum, 2000.
3. Soliyev A. O‘zbekiston geografiyasi. Darslik. – T.: “Universitet”, [yili ko‘rsatilmagan].



4. Sotsialno-ekonomicheskoe razvitie Uzbekistana za godi Sovetskoy vlasti. – Tashkent: Uzbekistan, 1984.
5. Surxondaryo viloyati hokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi. – Termiz, 1997. – B. 37.
6. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti.
7. Surxondaryo viloyat hokimligining joriy arxivi, 1996 yil noyabr, 11-bayonnoma, 26-varaq.
8. Surxondaryo viloyat hokimligining joriy arxivi, 2018 yil yanvar, 4-bayonnoma, 18-19-varaqlar.
9. O'zbekiston Respublikasi: ensiklopediya. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
10. O'zbekistonning yillik statistik to'plami, 2008 yil. – Toshkent, 2009.



EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI MASALALARI TARIXIGA NAZAR

Shuhrat TOSHTUROV,
Navoiy davlat universiteti
mitra77mix@gmail.com

Аннотация. XX asrning o'rtalariga kelib tabiatni muhofaza qilish kishilik jamiyatidagi eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu davrda global ekologik inqiroz belgilarining namoyon bo'lishi insoniyatni diqqat e'tiborini ekologik xavfsizlik masalalarini hamkorlikda yechishni kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'ldi. Mazkur maqolada dunyo mamlakatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi dastlabki harakatlar, nodavlat tashkilotlari va shartnomalarning vujudga kelishi, xalqaro konferensiyalarda ekologik muammolarni hamkorlikda yechimini topish masalalari tarixi ilmiy adabiyotlar asosida ochib berilgan.

Калит so'zlar: ekologiya, E.Gekkel, A.Pechchi, "Tabiatni muhofaza qilish" xalqaro konferensiyasi, "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi", "Butunjahon atrof-muhit kuni", "Rim klubi", UNEP

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Шухрат ТОШТУРОВ,
Навоийский государственный университет

Аннотация. Во второй половине XX века охрана природы стала одной из важнейших задач человеческого общества. В этот период проявления глобального экологического кризиса привлекли внимание человечества к вопросам экологической безопасности и необходимости их совместного решения. В данной статье рассмотрены первые шаги в области охраны окружающей среды в различных странах мира, причины возникновения экологических проблем, их обсуждение на международных конференциях, а также вопросы поиска совместных решений экологических проблем на основе научной литературы.

Ключевые слова: экология, Э. Геккель, А. Печчи, «Охрана природы», международная конференция, «Всемирный день окружающей среды», «Римский клуб», UNEP

ECOLOGY AND ENVIRONMENTAL PROTECTION ISSUES IN A HISTORICAL PERSPECTIVE

Shukhrat TOSHTUROV,
Navoi State University

Abstract. By the mid-20th century, environmental protection had become one of the most important challenges facing human society. During this period, the manifestation of the global ecological crisis drew humanity's attention to the



necessity of jointly addressing ecological security issues. This article examines the initial measures taken by various countries in environmental protection, the emergence of ecological problems, discussions held at international conferences, and the historical context of finding cooperative solutions to these issues based on scientific literature.

Keywords: *ecology, E. Haeckel, A. Peccei, "Environmental Protection," international conference, "World Environment Day," "Club of Rome," UNEP*

Kirish

Insoniyat XXI asrga qadam qo‘yar ekan uni oldida olamni asrash, turli ekologik muammolarni oldini olish, kelajak avlodning barqarorligini ta‘minlashdek dolzarb masalalar ko‘ndalang turibdiki, ushbu global muammolar barchani birdek tashvishga solmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan tobora kuchayib borayotgan iqlim o‘zgarishlari, fasllarning o‘zgarib borishi, tabiiy resurslarning kamayib ketishi, turli kasalliklarning paydo bo‘lishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Shunday ekan atrof-muhitni ifloslantirish, tabiiy resurslarni ishdan chiqarish, ekotizimdagi ekologik aloqalarni buzish global muammo bo‘lib qoldi. Hozirgi paytda dunyoning qaysi bir mintaqasini olib qaramaylik, inson hayoti uchun xavf tug‘dirayotgan ekologik vaziyatni bartaraf qilishdek og‘ir muammolar o‘z yechimini kutib turganligining guvohi bo‘lyapmiz. Muammoning ko‘lamini 2025 yil 22 yanvar kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish Shvetsariyaning Davos shahrida bo‘lib o‘tgan Jahon iqtisodiy forumining yillik yig‘ilishidagi nutqida “XXI asrda insoniyat yadro urushidan tashqari iqlim o‘zgarishi va sun‘iy intellektning nazoratsiz rivojlanishi kabi tahdidlarga duch kelayotganligi, dunyoning ayrim davlatlari, kompaniyalar va moliya institutlari iqlim bo‘yicha o‘z majburiyatlaridan voz kechayotganligini” alohida ta‘kidladi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda tabiiy resurslarning tobora kamayib borishi va atrof-muhitning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga, modda va energiya almashuvining tabiiy holatda kechishiga keskin ta‘sir qilmoqda. Ekologik inqiroz jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat muvozanatining barqaror ravishda buzilishi natijasida atrof-muhit holatining yomonlashib borishi, ekologik tizimlarni tiklash imkoniyatlarining yo‘qolishi tabiiy muhitning inqiroziga sabab bo‘lmoqda.

Insoniyat butun tarixi davomida atrof-muhit bilan uzluksiz munosabatda bo‘lishi, atrof-muhitga muttasil moslashib borishi xususida taniqli olim Y.Shodimetov: “O‘z atrofidagi muhit va turmush tarzini asta-sekin takomillashtira borish insonning moslashuvida ayni faol shakl hisoblanadi. Mana shu o‘zgartiruvchilik faoliyatida inson bilan atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir hammadan yaqqol ko‘rinadi. Inson atrof-muhitga o‘z ta‘sirini mehnat orqali amalga oshiradi” [2] deb ta‘kidlaydi. Ishlab chiqarish kuchlari taraqqiy etgani sari insonning tabiatga bo‘lgan ta‘siri ham kuchayib, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning miqyosi ham kengayib bormoqda. Natijada, inson mehnat tufayli tabiiy muhitga bevosita bog‘liqlikdan tobora ozod bo‘lib, o‘zining tabiatga bo‘lgan ta‘sirini kuchaytirdi.



O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli fundamental asarida ekologik tahdidlar to‘g‘risida alohida to‘xtalib “... butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish – o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir... Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylanganligini” [3] qayd qilgan edi.

Darhaqiqat, butun jahonda xavf solayotgan muammolardan biri bo‘lgan ekologiya va iqlim o‘zgarishi masalalari O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ta’kidlaganidek, barqaror rivojlanish yo‘lidagi eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Aksariyat mintaqalarda tuproq yemirilib, unumdor yerlar qisqarib bormoqda, cho‘llashish, aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash jiddiy muammoga aylanib bormoqda [4]. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari zamonamizning eng ayanchli ekologik inqirozlaridan biri bo‘lgan Orol fojiasi Markaziy Osiyo va unga yondosh mintaqalarda ayniqsa jiddiy sezilmoqda. Havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘p, so‘nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortgan, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib yo‘qolgan [5].

Shunday ekan, ekologiya va ekologik muammolar nima? U qanday xavfli tahdidga ega? kabi savollarga javob topish, masalaning tarixiy ildizlariga nazar solish va xulosalar chiqarish zarurati tobora dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot usullari

Maqolada ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalarining tarixini o‘rganish va tahlil qilish, taqqoslash, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, ilmiy qarashlar va konsepsiyalarning qiyosiy tahlili, xolislik tamoyillari kabi usullardan foydalanilgan

Tadqiqot natijalari

Ekologiya atamasini 1866 yil nemis biologi Ernest Gekkel (1834-1919 y.) o‘zining “Organizmlar umumiy morfologiyasi” (“Generelle Morphologie der Organismen”) nomli kitobida ilk bor ishlatgan. Uning ta’rifiga ko‘ra, ekologiya — yunoncha oikos -uy va logos-o‘rganish so‘zlaridan kelib chiqqan. Gekkel ekologiyani tirik organizmlar o‘zaro va tashqi muhit bilan aloqalarini o‘rganadigan biologik fan deya baholagan edi [6]. Bugungi kunga kelib ekologiya tushunchasi yanada kengroq ma’noda “tabiatda qanday jamiyat bo‘lishidan qat’iy nazar, tirik organizmlar (mavjudotlar) yashaydigan makon haqidagi ta’limot” sifatida tushuniladi. Bugungi kunda ekologiya fani qishloq xo‘jaligi ekologiyasi, sanoat ekologiyasi, geoekologiya, matematik ekologiya, iqtisodiy ekologiya, yuridik ekologiya, ijtimoiy ekologiya, valeologiya kabi sohalarga bo‘lib o‘rganilmoqda [7].

Insoniyat o‘zining tabiatga ko‘rsatayotgan zararli ta’sirini asta-sekin anglay bordi. Xususan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida jahonning ko‘pgina mamlakatlari tabiatni muhofaza qilish borasida ilk harakatlarga asos solindi. 1864 yilda amerikalik olim Jorj P. Marsh (1801–1882 y.) o‘zining 560 sahifalik “Inson va tabiat yoki Inson faoliyati bilan o‘zgargan fizikaviy geografiya” (Man and Nature;



or, Physical Geography as Modified by Human Action) nomli kitobini nashr etdi. Muallif ushbu asarida inson ta'sirining tabiatga salbiy oqibatlari to'g'risidagi dalillarni ilk bor tahlil qilib, tabiatda muvozanatni saqlash zarurligini isbotlab berdi[8]. Mazkur asarda ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan yaqindan tanishgan keng jamoatchilik vakillarining harakatlari natijasida 1872 yil AQShda jahonda ilk bor yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish jamiyati tuziladi va shu yilda Yellouston milliy parki tashkil qilinadi [9].

Yevropa qit'asida tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qo'yilgan birinchi qadam 1913 yil Bern (Shvetsariya) shahrida 18 ta davlat ishtirokidagi "Tabiatni muhofaza qilish" bo'yicha xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi bo'ldi. 1914 yil 1 avgust kuni ya'ni, Yevropaning Germaniya, Fransiya, Avstro-Vengriya kabi davlatlari Birinchi jahon urushini boshlagan sanada Shvetsariyada maydoni 170,3 km² bo'lgan dunyodagi birinchi milliy park ochiladi va bugungi kunda mazkur milliy bog'da 30 ga yaqin hayvonlar, 100 ga yaqin qushlar, 70 turdagi suvda va quruqlikda yashovchi jonivorlar, 5 mingdan ortiq o'simlik turlari muhofaza qilinmoqda [10]. 1923 yilga kelib Parij (Fransiya)da birinchi xalqaro tabiatni muhofaza qilish kongressi bo'lib o'tadi va oradan besh yil o'tib, 1928 yilda Bryussel (Belgiya)da "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" ochildi. Shu kabi xalqaro darajadagi tadbirlar natijasida Yevropa davlatlarida atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishga e'tiborni bir muncha kuchayadi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib tabiatni muhofaza qilishda umumsayyov-raviy tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini vujudga keltirdi. Avvaliga bu masala ikki davlat o'rtasidagi tabiiy obyektlardan teng huquqli foydalanish ko'rinishida namoyon bo'ldi. Tabiatni muhofaza qilishga oid dastlabki shartnomalar hayvonot olamidan foydalanishni tartibga solish va uni muhofaza qilishga bag'ishlandi. Shunday birinchi shartnoma 1902 yil Parijda tuzilgan bo'lib, unda G'arbiy Yevropa mamlakatlari qishloq xo'jaligiga foyda keltiruvchi qushlarni muhofaza qilish ko'rsatilgan edi. Bu shartnoma 1950 yilda qayta ko'rib chiqiladi va ilgari zararli deb hisoblangan qushlar ham muhofaza qilinadigan bo'ldi [11]. 1946-47 yillarda Gollandiyada "Tabiatni himoya qilish xalqaro jamiyati" tuziladi va 1948 yil Fontenblo (Fransiya)da o'tkazilgan Bosh Assambleyada mazkur jamiyat "Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi" deb qayta nomlandi. 1956 yilda ushbu tashkilot "Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish xalqaro ittifoqi"ga aylantirildi. Mazkur xalqaro ittifoq tabiiy resurslarni muhofaza qilish, sohaga ilmiy texnika yutuqlarini tatbiq etish va tarqatish, xalqaro miqyosdagi tabiiy resurslardan foydalanishga doir shartnomalarni tuzishda bevosita ishtirok eta boshladi. Mazkur xalqaro tashkilotning Bosh Assambleyasi XIV kongressi 1978 yil Ashxobod (Turkmaniston) shahrida o'tkaziladi va unda tabiat muhofaza qilish borasidagi bir qator muhim masalalarni ko'rib chiqib, atrof-muhit muhofazasiga doir bilimlarni ta'lim tizimiga joriy etishi tavsiya etiladi [12].

Muhokama natijalari

XX asrning 60-70-yillariga kelib dunyoda antropogen va texnogen ta'sirlar natijasida ekologik vaziyatning keskin yomonlashuvi, xususan, o'rmonlarning ayovsiz kesilishi, hayvonot olami keng miqyosda qirilib ketishi, suv manbalarining



haddan tashqari darajada ifloslanishi, atmosferada issiqxona effekti natijasida yuzaga keltiruvchi gazlar miqdorining ortishi va azon tuynugining yuzaga kelishi kabi jiddiy ekologik muammolar paydo bo'ldi. Buning natijasida insonlarda yangi turdagi yuqumli va epidemiologik kasalliklar tobora ortib bordi. Fan-texnika rivojlangan bu davrda bunday muammolarning yuzaga kelishi insoniyatni qattiq tashvishga solib qo'ydi. Atrof-muhitning inqirozli vaziyatini chuqur anglab yetgan holda 1968 yil 6-7 aprel kunlari italiyalik sanoatchi A.Pechchi (1908-1984 y.) va ingliz ximigi A.King (1909-2007 y.) tashabbusi bilan dunyoning 10 ta davlatidan 30 nafar tabiatshunos olimlari, madaniyat, maorif va davlat arboblari birgalikda salbiy ekologik holatdan chiqib ketish rejasini tuzish, biosferaning rivojlanish istiqbollari o'rganish, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish maqsadida "Rim klubi" nomli nodavlat tashkilotiga birlashadi [13]. Rimdagi Milliy akademiya binosida yig'ilganlar asrning eng muhim global muammolari yuzasidan munozara qilib, yakunda "Rim klubi" nomli xalqaro tashkilot tuzish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydilar. Ushbu xalqaro tashkilot rejalari o'zini uncha oqlamagani sababli 1972 yil 5 iyun kuni Stokgolm (Shvetsiya) shahrida "Atrof-muhitni muhofaza qilish" bo'yicha xalqaro konferensiya chaqiriladi [14]. Mazkur konferensiya xalqaro hamjamiyatning ekologik dunyoqarashida tub burilish nuqtasi bo'lib xizmat qildi. Sababi, bu anjuman ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan aynan dunyodagi ekologik vaziyatni, xususan, yer yuzidagi ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan voqea sifatida tarixdan joy oldi. Mazkur konferensiyada davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari xalqaro miqyosda nazoratga olishga kelishiladi va konferensiya ochilgan sana 5 iyun — "Butunjahon atrof-muhit kuni" deb e'lon qilinadi [15]. Konferensiya tavsiyasi asosida BMT Bosh assambleyasining atrof-muhit bo'yicha maxsus dasturi — UNEP tuzildi. Ushbu xalqaro tashkilot mamlakatlar va xalqlarning turmush darajalarini kelgusi avlod uchun zarar yetkazmaydigan tarzda yaxshilashni ko'zda tutuvchi imkoniyatlar yaratish yo'li bilan atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan muomala qilish bo'yicha rahbarlikni ta'minlash va sherikchilikni rag'batlantirishni maqsad qildi [16].

Dunyo hamjamiyatini birlashtirgan holda global muammolarga yechim topish, dasturlar qabul qilinishi va amalga oshirilishi o'zida aks ettirgan BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil 8 sentabrdagi 55/2-rezolyutsiyasiga asosan 2015 yilga qadar erishilishi lozim bo'lgan 8 ta maqsaddan iborat "Mingyillik rivojlanish maqsadlari" qabul qilindi [17]. Ushbu xalqaro hujjatning to'rtinchi qismi "Umumiy atrof-muhitimizni muhofaza qilish" deb nomlandi [18]. O'n besh yilga mo'ljallangan Mingyillik rivojlanish maqsadlari global dasturi doirasida erishilgan salmoqli natijalarga qaramasdan BMT oldida global darajadagi yangi muammolarni oldindan ko'ra olish va ularni hamkorlikda yechish kabi masalalar paydo bo'ldi. Shu sababli 2015 yilda xalqaro miqyosdagi yangi dastur – Barqaror rivojlanish maqsadlari nomli global dasturni qabul qilish zaruriyati yuzaga keldi. Ushbu xalqaro hujjat dastur Mingyillik rivojlanish maqsadlarining mantiqiy davomi sifatida uni yanada kengaytirdi va to'ldirdi. 2015 yil 25 sentabrda BMTga a'zo 193 mamlakatlar tomonidan 2030 yilga qadar mo'ljallangan global



rivojlanishning yangi — Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development agenda) [19] qabul qilindi. Mazkur xalqaro hujjat iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarda barqaror rivojlanishni koʻzda tutuvchi 2030 yilgacha erishilishi lozim boʻlgan 17 ta maqsad, ularga bogʻliq boʻlgan 169 ta vazifa va 232 ta koʻrsatkichni mujassamlashtirib, Yer sayyorasida iqlim oʻzgarishlariga qarshi kurashish, dengiz va yer ekotizimlarini asrash kabi maqsadlari qamrab oldi [20].

Xulosa

XX asrda insoniyat tomonidan tabiiy resurslardan, hayvonot va oʻsimlik dunyosidan ayovsiz foydalanishi, tabiat qonunlariga rioya etilmasligi jiddiy ekologik muammolarni yuzaga keltirdi. Mazkur muammolar Yer yuzi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga xavf solishi natijasida XX asr oʻrtalarida dunyoning rivojlangan mamlakatlari, turli nodavlat tashkilotlari, davlat va jamoat arboblari tomonidan olib borgan saʼyi harakatlar sababli tabiatni asrab-avaylash, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ekologiya va atrof-muhit tarixini oʻrganish asnosida bugungi kunda butun dunyoda sodir boʻlayotgan va taʼsiri Oʻzbekistonga ham sezilayotgan ekologik muammolarning tarixiy ildizlarini anglash va ularni bartaraf etish hamda oʻlkamiz tabiatini avaylab-asrash va kelajak avlodga yetkazishga doir davlat va xalqaro darajadagi chora-tadbirlarni, dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun muayyan darajada tarixiy bilimlarga tayanilgan xulosalar zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

- [1] Генсек ООН в Давосе: отказ от климатических обязательств – «недалековидный и эгоистичный» шаг | Новости ООН (22.01.2025)
- [2] Shodimetov Y. Ijtimoiy ekologiyaga kirish.- Toshkent: Oʻqituvchi, 1994. - B.15.
- [3] Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: Oʻzbekiston, 1997. -B.112-113.
- [4] Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2021. -B. 389.
- [5] Мирзиёев COP28 да беш таклифни илгари сурди | Qalampir.uz (01.12.2023.)
- [6] Tursunov R. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston oʻlkasida ekologik vaziyat va atrof-muhit muhofazasi masalalari [Matn]: Monografiya. – Toshkent: “Firdavs-Shoh nashriyoti”. 2023.-B.13.
- [7] Misirov K. Globallashuv sharoitida zamonaviy tahdidlar va ekologik muammolar// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” elektron ilmiy jurnali. №3, may-iyun, 2017 y. -B. 4.
- [8] Розанов Л. Вклад Дж. П. Марша в учение об окружающей среде (к 150-летию пионерского труда) // Научный диалог. – 2014. – № 1 (25) : Естественные науки. – С. 127–139.
- [9] Alibekov L. Inson va tabiat. –T.: “Fan va texnologiya”, 2016. -B. 4.
- [10] Мазуров Ю.Л. Швейцария: от страны парков к стране-парку // Bulletin AB RGS [Izvestiya AO RGO]. 2017. No2 (45) стр.47-60



[11] Davletov S.R. O‘zbekistondagi ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari (XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshi). – T.: Fan, 2012. -B.9.

[12] Qudratov O. Sanoat ekologiyasi. -T.: 2003. -B.167.

[13]https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A0%D0%B8%D0%BC%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B9_%D0%BA%D0%BB%D1%83%D0%B1 (28.02.2025)

[14] To‘xtashev H.I. Ekologiya huquqi. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDYUU nashriyoti. “Lesson press” nashriyoti, 2022 y. -B. 8.

[15] Tursunov R. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ekologik vaziyat va atrof-muhit muhofazasi masalalari [Matn]: Monografiya. – Toshkent: “Firdavs-Shoh nashriyoti”. 2023.-B.20.

[16] Birlashgan Millatlar Tashkiloti: Asosiy omillar. Toshkent, 2001. -B. 42.

[17] Toshturov Sh.E. O‘zbekiston Respublikasining BMT global dasturlaridagi ishtiroki tarixi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: 2022. -B.13.

[18]

https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/summitdecl.shtml (02.03.2025)

[19] The 2030 agenda for sustainable development. A/RES/70/1 Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015. -New York. 2015. September. –P.35.

[20] Nurmetov I. Barqaror rivojlanish va O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasi// Tamaddun nuri. 2021. №1-2. — B. 7.



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MUSIQA ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

**Xurshida FAYZULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning musiqa ilmiga qo'shgan hissasi, "Musiqa ilmi" asari, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi dolzarbligi yoritilgan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье освещен вклад Захириддина Мухаммада Бабур в музыкальную науку, труд «Musiqa ilmi», суть его духовно-просветительских реформ и их актуальность в наши дни.

ABSTRACT: This article highlights the contribution of Zahiriddin Muhammad Babur to music science, the work "Musiqa ilmi", the essence of his spiritual and educational reforms and their relevance today.

Kalit so'zlar: Ilm, adabiyot, o'zbek, asar, musiqa, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, muvaffaqiyat, islohot, ijod.

Ключевые слова: Наука, литература, узбек, труд, музыка, духовность, просвещение, культура, успех, реформа, творчество.

Key words: Science, literature, Uzbek, labor, music, spirituality, education, culture, success, reform, creativity

Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) (1483.14.2, Andijon 1530.26.12, Agra) — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste'dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi — Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi.

Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolalar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi.¹⁸

Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur sufiiy — Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, «Boburnoma» asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizliqdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi (1494-yil iyun).

¹⁸ M: «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2005 yil 27-soni



Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk shoir, balki o'z davrining tarixchisi, etnografi, o'lkashunosi, geograf va dinshunosi sifatida ham ma'lum va mashhurdir. U davlatchilikda vaqt me'yorlarini qayta ishlab chiqqan, pochta tizimiga tartib bergan va jamiyat uchun boshqa ko'plab foydali islohotlarni amalga oshirgan buyuk shaxsdir. Uning hayotida og'ir sinovli va quvonchli kunlar ko'p bo'lgan. Shoir har qanday sharoitda ham iymon yuksakligiga, ruhiyatning barkamolligiga, qalbidagi dilbar his tuyg'ulariga dog' tushirmay yashagan. Uning ana shunday boy ichki dunyosi she'rlarida go'zal tashbehlar orqali, yuksak badiiy shakllarda ham o'z ifodasini topgan.

Movarounnahr 15-asr oxirida o'zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo'lib olgan ko'pdan-ko'p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) bo'ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba'zilari mustaqillik da'vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog'alariga qo'shib, uni jismonan yo'qotish payiga tushadi. O'z amakisi va tog'asi bo'lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o'zaro munosabatni yaxshilash, qo'shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o'rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi.¹⁹

Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi. Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494 yil iyul) dan keyin taxtga o'tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi — qisqa muddatli kasallikdan so'ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o'rniga Buxoroda hokim bo'lgan o'g'li Boysung'ur o'tiradi. 1495-96 yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497 yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo'shinni ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og'ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror qiladi. Ammo Xo'jandga yetganda Andijon ham qo'ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o'tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog'asi Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi,

¹⁹ Rasulov R. Bobur – o'zbek tilining sofligi uchun kurashuvchi. /Ilmiy to'plam. Samarqand. 2000-yil.



Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo‘shiniga salbiy ta‘sir etib, ko‘pchilik bek, navkarlar (700—800 kishi) Boburni tark etadi. O‘ziga sodiq kishilar (200—300) bilan qolgan Bobur ma‘lum muddat Xo‘jandda turgach, Toshkentga — Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma‘lum muddat o‘tgach, Bobur Xo‘jandga qaytadi, ko‘p o‘tmay, Marg‘ilonni qo‘lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko‘radi. Nihoyat, 2 yildan so‘ng (1498 yil iyun) uni qayta qo‘lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida «Xo‘jand suvining Axxi tarafi viloyatlarini...» qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi.

Temuriylarning o‘zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499 yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzga bosib boradi, katta o‘lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko‘p o‘tmay, katta kuch bilan Movarounnahrqa qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako‘lni egallaydi (1499), Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500). Biroq, shahar aholisi va zodagonlarining ma‘lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg‘ona hokimi Boburga maktub yo‘llab, Samarqandni ishg‘ol qilishga da‘vat etganlar.

Bobur 1500 yil kech kuzida o‘z qo‘shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G‘uzor shahrilarida Bobur hokimligi e‘tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zahiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to‘plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501 yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to‘rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501 yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo‘l oladi.

Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503 yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504 yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504 yil iyun) majbur buladi.

Bobur 200-300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azni va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi,



qattiq ichki intizom o'rnatadi. Kobulga, umuman Afg'onistonga Bobur o'z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog'i Shahrora», «Bog'i Jahonoro», «O'rtabog'», «Bog'i vafo» va «Bog'i Bobur» kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal'asini o'z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta'mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal'ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug'iladi. 1506 yil bahorda vafot etgan Qutlug' Nigorxonim Mirzo Ulug'bek shu yerda bunyod ettirgan «Bog'i Navro'ziy»ga dafn etiladi.

Bobur Afg'onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg'in faoliyat ko'rsatdi, uning manfaatlari yo'lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg'onistondagi amaliy faoliyatiga ko'ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig'i va muzaffar sarkarda sifatida katga obro' orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e'tiborli o'ringa ko'tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko'rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig'iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko'rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo'yicha Hirotga o'tlanadi. Husayn Boyqaroning to'satdan vafot etishiga (1506) qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o'tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniixon qo'shinlariga to'siq qo'yish rejaları amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag'lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo'ldan chiqaradilar.

1507-yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo, bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi. Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o'z qo'shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniixon Xurosonning yirik markazlarini qo'lga kiritgach, Eronni zabt etish uchun yurish boshlaydi. Ammo, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to'qnashuvda (1510) yengiladi, o'zi ham Marvda halok bo'ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrda qo'shin kiritib shayboniylarga ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511 yil bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktyabr boshida esa Samarqandni yana qo'lga kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniylar ra'yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug'diradi. 1512 yil 28 aprelda Ko'li malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512 yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o'tib, avval Huzar (G'uzor) qal'asini oladi, so'ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so'ng taslim bo'ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512 yil 24 noyabrda G'ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo'ladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e'tiborini Hindistonga qaratadi.

1519 yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi.



Nihoyat, 1526 yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko'p o'tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi. Agrani o'ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg'onistonda bo'lganidek, ko'plab ijtimoiy-xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o'zaro ichki nizo, qirg'inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi.²⁰

Boburning o'z guvohligiga ko'ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan; «Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim», deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o'rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to'plana boshlashi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o'rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg'in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko'p vaqti jangu jadallarda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog'larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san'at va ijod ahlini o'z atrofiga to'plab, homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan.

O'tmish adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo'ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga bunday mehrlil munosabat aslo bejiz bo'lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

“Boburnoma” – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davridagi ko'plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar jamlangan. “Boburnoma” – o'zbek nasrining go'zal namunasi. Ungacha Yusuf xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari muqaddimasida, Rabg'uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog'onaga olib chiqdi. Biroq “Boburnoma” bu borada o'zbek nasrining o'ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko'rsatdi. Asarda tarixning Bobur yashab o'tgan davri voqealari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo'jand, Hirotdan

²⁰ Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. Toshkent. O'qituvchi-1994-yil.



boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega. Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan. “Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat beradi. Asarda o’sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan. Bu narsa Boburning bergan ma’lumotlaridagi ishonchlilikni ta’minlagan. Asar bilan yaxshi tanishish Bobur xarakterini, undagi fazilatlar manbalarni aniqlashga imkon beradi. Bobur o‘z otasi haqida shunday yozadi: “hanafiy mazhabliq, pokiza e’tiqodliq kishi edi... Ravon savodi bor edi.

“Xamsatayn” va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o‘qub edi. Aksar “Shohnoma” o‘qur edi. Tab’i nazmi bor edi, vale she’rga parvo qilmas edi. Adolati bu martaba ediki, Xitoy karvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidag‘i tog‘larning tubida ming o‘yluk korvonni andog‘ qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib, muhassillar (xiroj oluvchilar) yiborib, korvonning jam’i jihatini (hamma yog‘ini, butun atrofini) zabt qildi... Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim (omon, sog‘-salomat) topshurdi. Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dog‘i saxovaticha bor erdi, xushxulq va harrof (tez gapiradigan, so‘zamol) va fasih (yoqimli) va shirin zabon kishi erdi, shujo‘ (shijoatli) va mardona kishi edi”. Otasidagi bu xislatlarning ko‘pi Boburning o‘zida ham mujassamlashganini qayd etish joiz.²¹

Bobur ko‘plab hukmdorlar, mamlakat boshliqlari haqidagi tarixiy faktlarni muhrlab qoldirgan. Amir Temur, Umarshayx, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar mirzo singari davlat boshliqlarining siyosiy-ijtimoiy faoliyatlariga baho berilgan. Boburning o‘zi har qanday holatda, hatto urush-taloshlar avj olib turganida ham adolat mezonini qattiq tutgan. Jumladan, 909 (1503–1504)-yillar voqealari bayonida shu holat kuzatiladi. Qunduz shahri atrofida Xisravshohning askarlari ancha betartiblikka, zulm va zo‘ravonlikka o‘rgangan edilar. Ular Boburga qo‘shilganidan keyin ham bu odatlarini tashlamaydi. Bir navkar “birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida o‘q joni chiqdi. El bu siyosattin tamom bosildilar”, – deb ta’kidlaydi Boburning o‘zi. Asarda o‘simliklar va hayvonot olami haqidagi nodir ma’lumotlar ham jamlangan, jumladan, adib Afg‘onistondagi Dashi Shayxda o‘ttiz uch xildagi bir-birini takrorlamaydigan lola turlari haqida gapiradi.

“Boburnoma”da adabiyot va san’at ahli, ilm-ma’rifat kishilariga ham munosib o‘rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Alisher Navoiy, Binoiy va boshqa so‘z ustalari haqida maroqli hikoyalar mavjud.

Hasan Ya’qub haqida gapira turib: “...tab’i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she’ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she’r aytqondin aytmog‘on

21 Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. Tosh. “Sharq”. 2011-yil



yaxshiroqdur”, – deydi. Kotiblardan Sulton Ali Mashhadiy, musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, musiqa ustalaridan Qul Muhammad Udiy, Shayxi Noyiy, Shohquli G‘ijjakiy va boshqalarni faxr va iftixor bilan tilga oladi. Bu o‘rinda adibning Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Navoiy siymosiga bir necha marotaba murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Ular orasida Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, Navoiyning shaxsiyati, uning ijodi, adibning badiiy ijod va ijodkorlarga bo‘lgan munosabati haqida ko‘plab qimmatli kuzatishlar mavjud. “Boburnoma”da adibning shaxsi, uning tarjimai holi, xarakteri, qiziqishlari, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari tegishli tarzda o‘z aksini topgan. Biz asar sahifalaridan Bobur shaxsiyatidagi rostgo‘ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo‘llik, hassoslikning namoyon bo‘lish holatlari bilan tanishamiz. Asarda Boburning ajdodlari, oilasi, avlodlari haqida ham birlamchi materiallar berilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M: «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2005 yil 27-soni
2. Abug‘oziy. Shajarai turk. Toshkent. “Cho‘lpon”.1992-yil.
3. Abdullayev M. Boburnoma va Shajarai turning qiyosiy poetikasi.
4. U. Erskin. Bobur Hindistonda.Toshkent. “Cho‘lpon nashriyoti”. 1995-yil.
5. L.P. Sharma. Boburiylar saltanati. Toshkent. “Ma’naviyat” 1998-yil.
6. Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. Toshkent. O‘qituvchi-1994-yil.
7. Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. Toshkent. “Fan”.1994-yil.



GLOBALLASHUV DAVRIDA TA'LIM MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Surayyo ELMURADOVA,
SamDCHTI

elmurodovasurayyo6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola globallashuv davrida ta'lim madaniyatini shakllantirishning dolzarb masalalarini tahlil qiladi. Maqolada ta'lim madaniyati tushunchasi, uning globallashuv jarayonidagi o'rni va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga ta'siri batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada globallashuv jarayonida milliy va global qadriyatlarning uyg'unligini saqlash, o'qituvchilarni professional rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalar, inkluziv ta'lim, pedagogik yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'lim madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, ta'lim madaniyati, innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar, global qadriyatlar, ta'lim islohotlari.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Сурайё ЭЛМУРАДОВА,
СамДЧТИ

Аннотация. В статье анализируются актуальные вопросы формирования образовательной культуры в эпоху глобализации. В статье подробно рассматривается понятие образовательной культуры, ее роль в процессе глобализации и ее влияние на изменения в системе образования. В статье также рассматривается важность сохранения гармонии национальных и общемировых ценностей в процессе глобализации, профессионального развития педагогов, использования инновационных технологий, инклюзивного образования, педагогических подходов и информационно-коммуникационных средств в формировании культуры образования.

Ключевые слова: глобализация, образовательная культура, инновационные технологии, педагогические подходы, мировые ценности, образовательные реформы.

CURRENT ISSUES OF FORMING EDUCATIONAL CULTURE IN THE ERA OF GLOBALISATION

Surayyo ELMURADOVA,
SamDCHTI

Abstract. This article analyzes the current issues of forming an educational culture in the era of globalization. The article examines in detail the concept of educational culture, its role in the globalization process and its impact on changes in the education system. The article also discusses the importance of maintaining



the harmony of national and global values in the globalization process, the professional development of teachers, and the importance of innovative technologies, inclusive education, pedagogical approaches, and information and communication tools in forming an educational culture.

Keywords: globalization, educational culture, innovative technologies, pedagogical approaches, global values, educational reforms.

KIRISH

Globallashuv jarayoni faqat iqtisodiy va siyosiy aloqalarni kuchaytirmaydi, balki dunyoning turli burchaklaridagi jamiyatlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ham rivojlantiradi. Bu jarayon ayniqsa ta'lim sohasida o'zida ko'plab imkoniyatlarni va xatarlarni olib keladi. Bugungi kunda ta'lim madaniyati nafaqat milliy yoki regional chegaralarda, balki global miqyosda ham shakllanmoqda. OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) tomonidan 2020 yilda chiqarilgan hisobotda ta'kidlanishicha, ta'lim tizimlarini global miqyosda integratsiya qilish o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar, xalqaro me'yorlar va madaniyatlar bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. OECD o'quvchilarning faqatgina bilim emas, balki ularning madaniy anglash, axloqiy qadriyatlar va global mas'uliyatni his qilishni rivojlantirish zarurligini qayd etadi.

Ta'lim madaniyatining shakllanishi — jamiyatning ta'lim jarayonidagi qadriyatlar, yondashuvlar va metodlar tizimi bo'lib, bu jarayon nafaqat o'quvchilarni bilimga, balki ularni ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy, madaniy va shaxsiy jihatdan rivojlangan insonlar sifatida tarbiyalashni ko'zlaydi. Inson madaniyatli bo'lsa, u ta'limni eng muhim narsa deb biladi²². Ta'lim madaniyati — bu jamiyatning ta'limga bo'lgan munosabati, o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi faolligi va o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlari orqali shakllanadi. Ta'lim madaniyatining shakllanishi bir tomondan o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ikkinchi tomondan, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim madaniyati ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy yuksalish va milliy madaniyatlarni saqlash uchun muhim omil hisoblanadi. “Globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda”²³.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolada globallashuvning ta'lim tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish uchun ilmiy bilishning quyidagi: tahliliy, taqqoslash, analiz va sintez tadqiqot metod va usullaridan foydalanildi. Globallashuv davrida ta'lim madaniyatini shakllantirishning dolzarb masalalari keng yoritildi. Sh.M.Mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo'lib belgilanadi.

²² Elmuradova S.A. Influence of culture on education. Web of Humanities Journal of social Science and Humanitarian Research. May, 2024. Page-67.

²³ Mirziyoyev Sh. M. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. 2017-yil 7-fevral. PF-4947-son. Lex-uz.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Globalashuvning ta'lim madaniyatiga ta'sirini tushunish uchun, dunyo ta'lim tizimlarining bir-biriga yaqinlashib borishini ko'rib chiqish lozim. Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimlari o'rtasida integratsiya davom etmoqda, bu esa bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishini ham nazarda tutish lozim.

O'zbekistonning ta'lim tizimi globalashuv jarayoniga moslashish yo'lida jiddiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insonni murakkab va xilma-xil jamiyatda yashashga tayyorlashdir²⁴. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimini yangilashga qaratilgan bir qator tashabbuslar ta'lim madaniyatining shakllanishini tezlashtirmoqda. "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"²⁵. O'zbekiston ta'lim tizimida ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar integratsiyasi davom etmoqdaki, bu yangi ta'lim madaniyatini yaratishga yordam beradi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va zamonaviy milliy ta'lim modelini yaratish maqsadida 2019-yil 8-oktyabrda Prezidentimiz tomonidan "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmon qabul qilindi. Ushbu hujjatning asosiy g'oyasi va maqsadi milliy ta'lim tizimini chuqur isloh qilish, uni liberallashtirish va jahon ta'lim makoniga integratsiya qilishdan iboratdir.

Bu jarayonda muhim qadam sifatida ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etildi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida yaxshi samara bergan ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) – Kreditlarni ko'chirish va to'plashning Yevropa tizimi asos qilib olindi.

Kredit-modul tizimining ahamiyati haqida so'z yuritganda, uni joriy etish milliy ta'lim tizimiga xalqaro standartlarga mos qator muhim qoidalarni tatbiq etishni nazarda tutganini qayd etish joiz. Avvalo, boshqaruvni markazlashtirishdan voz kechildi. Oliy ta'lim tizimida markazlashgan boshqaruv tizimini qayta ko'rib chiqish zaruriyati tug'ildi. Shu maqsadda, 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun asosida ta'lim boshqaruv organlari vakolatlari qayta ko'rib chiqildi. Bu tizimni desentralizatsiya qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

O'zbekistonda ta'lim madaniyatini shakllantirishda quyidagi asosiy yo'nalishlar ajralib turadi:

- **Innovatsion ta'lim metodlari:** Zamonaviy ta'lim metodlari, masofaviy ta'lim va interaktiv pedagogik yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga va global miqyosda raqobatbardosh malakalarini oshirishga yordam beradi.

- **Axborot texnologiyalari va raqamli ta'lim:** Yangi axborot texnologiyalari va onlayn ta'lim platformalarining joriy etilishi ta'lim madaniyatining

²⁴ Elmuradova S.A. Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarda ta'limning o'rni. Web of teachers: Inderscience Research. Volume 2, Issue 6. June, 2024, Page-286.

²⁵ Mirziyoyev Sh. M. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 29.09.2020. O'zbekiston Milliy portal.



shakllanishida katta o‘rin tutadi. O‘quvchilarni raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash, ularning axborot texnologiyalariga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish zarur.

- **Milliy qadriyatlarni saqlash:** O‘zbekiston ta‘lim tizimi, xalqaro standartlarga mos kelish bilan birga, milliy madaniyat va an‘analarga hurmatni shakllantirishni maqsad qilmoqda. Bu o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki milliy qadriyatlarni ham o‘rgatadi.

- **O‘qituvchilarni professional rivojlantirish:** O‘qituvchilarni professional rivojlantirish, ularni yangi pedagogik usullar bilan tanishtirish va xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish ta‘lim madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir.

- **Kadrlar tayyorlash:** O‘zbekistonning ta‘lim tizimi zamonaviy kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. O‘qituvchilarni zamonaviy metodlar asosida tayyorlash, pedagogik malakalarni oshirish va yangi bilimlarni o‘rgatish orqali ta‘lim madaniyatini mustahkamlash maqsad qilinmoqda.

Globallashuvning ta‘lim tizimiga salbiy ta‘siri ham bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- **Milliy madaniyatlarning xavfi:** Globallashuv jarayonida ba‘zi madaniy an‘analarning yo‘qolishi yoki unutilishi mumkin. Xalqaro ta‘lim tizimlarining standartlashtirilishi milliy qadriyatlarni saqlashni qiyinlashtirishi mumkin.

- **Ta‘limning kommersiyalashuvi:** Ba‘zi rivojlangan davlatlar o‘z ta‘lim tizimlarini boshqa davlatlarga eksport qilayotganida, bu kommersial manfaatlarga asoslanishi va ta‘limning asosiy maqsadiga zarar yetkazishi mumkin.

- **Ijtimoiy tengsizlik:** Globallashuv jarayonida ba‘zi mamlakatlar ta‘lim tizimining yuqori darajalariga kirish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin, bu esa global miqyosda tengsizlikni kuchaytiradi.

XULOSA

Globallashuv davrida ta‘lim madaniyatini shakllantirish — bu o‘quvchilarni faqat bilim olishga, balki turli madaniyatlarga hurmat, ijtimoiy mas‘uliyat va global miqyosda o‘zaro aloqalarga tayyorlashdir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va innovatsiyalar ta‘lim madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni saqlash va ularni rivojlantirishning muhimligini unutmaslik zarur. Madaniyatni saqlashdan tashqari, mavjud madaniy tajribalar, qadriyatlar, urf-odatlar va hokozolarni turli dasturlar va darsliklar orqali avloddan avlodga o‘tkazish orqali madaniyatning uzluksizligini saqlash ta‘limning vazifasidir²⁶.

Globallashuvning ta‘lim madaniyatiga ta‘siri bir tomondan imkoniyatlar, ikkinchi tomondan esa qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, ta‘lim tizimlarining rivojlanishi va uning madaniyatining shakllanishi nafaqat texnologik yangiliklarga, balki ijtimoiy, madaniy va pedagogik omillarga ham bog‘liq. Ta‘lim madaniyatining shakllanishi — bu uzoq muddatli va doimiy jarayon bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

²⁶ Elmuradova S.A. Madaniyatga asoslangan ta‘limning ahamiyati. QarDU xabarлари. 4/2 (60) 2023, Iyul-avgust, 105-bet.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 2017-yil 7-fevral. PF-4947-son. Lex-uz.
2. Mirziyoyev Sh. M. "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil 8-oktyabr. PF-5847-son. Lex-uz.
3. Mirziyoyev Sh. M. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 29.09.2020. O'zbekiston Milliy portal.
4. OECD. (2020). *OECD Education at a Glance 2020: OECD Indicators*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/eag-2020-en>
5. Elmuradova S.A. Influence of culture on education. *Web of Humanities Journal of social Science and Humanitarian Research*. May, 2024.
6. Elmuradova S.A. Madaniyatga asoslangan ta'limning ahamiyati. *QarDU xabarlari*. 4/2 (60) 2023, Iyul-avgust.
7. Elmuradova S.A. Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarda ta'limning o'rni. *Web of teachers: Inderscience Research*. Volume 2, Issue 6. June, 2024.

Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal

ISBN-2181-0281



2181 0282